

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

**Gulnoza Azizova**

**PEDAGOGIK FAOLIYATNI  
TAKOMILLASHTIRISHDA  
INNOVATSION YONDASHUV**

O‘quv-uslubiy qo‘llanma

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti,  
Samarqand - 2021

UO‘K 37.377.36

KBK 74.59

A 31

Azizova Gulnoza Ganijanovna. Pedagogik faoliyatni takomillashtirishda innovatsion yondashuv. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDCHTI nashriyoti, 2021. – 156 bet.

*Ushbu o‘quv uslubiy qo‘llanmada pedagogik faoliyatni takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar haqida ma’lumotlar berilgan.*

Mas’ul muharrir: prof. M.M. Mahmudova

Taqrizchilar: dots. A.I. Saidov,  
prof. X.I. Ibraimov

*Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma Samarqand davlat chet tillar instituti O‘quv-uslubiy Kengashining 2021-yil 25-maydagi 10-sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-6272-9-1

© Azizova Gulnoza, 2021

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotida ta’lim ustivor yo‘nalish hisoblanadi. Mamlakatimizning Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi muhim o‘rin egallaydi.

Jahon miqyosida ta’lim tizimini isloh qilishning muhim omillaridan biri sifatida o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish, jumladan, millatlararo madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning integrasiyalashuvi, axborot uzatish va muloqot qilishda asosiy vosita sanalgan xorijiy tillar, xususan ingliz tili o‘qituvchilari faolligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilg‘or ta’lim muassasalari xorijiy til mashg‘ulotlarini samarali pedagogik texnologiyalar, yondashuvlar bilan boyitish bilan birga, soha professor-o‘qituvchilarning rekruting talablariga axborotlashtirish va kommunikasiya sharoitida intensiv faoliyat yurituvchi, yuqori kompetensiyaga ega bo‘lish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Xalqaro miqyosda til o‘qitishning jadallashtirilgan texnologiyalari va texnikasi, usullari va vositalari, jumladan, an’anaviy predmetlashtirilgan, til sharoitiga chuqurlashuv va intensivlashuv, shaxsiy emosional-hissiy munosabat yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilib, mazkur izlanishlarda xorijiy tillar bo‘yicha o‘qituvchining funkSIONalligi va kommunikativ ta’sirini oshirish jarayonlariga asosiy obyekt sifatida qaralmoqda. Bunda kasbiy kompetensiyalar tarkibini kreativ fikrlash elementi asosida kengaytirish, ta’lim-tarbiya jarayonlarida mavjud an’anaviy o‘qitish metodlari hamda umumiy mahorat yo‘nalishlarini yangilangan integrativlik orqali aks ettirish va qo‘llashning ahamiyati dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv-metodik ta'minotini yaxshilash, mutaxassis-kadrlar tayyorlash sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida professor-o'qituvchilarning ilg'or ta'lim texnologiyalari va o'qitish usullarini tatbiq etish bo'yicha tashabbuskorligini oshirish, chet tillarini o'qitishning interfaol metodlarini joriy etish imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyati mazmunini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini shaxs, davlat va jamiyatning dolzarb istiqboliy ehtiyojlariga muvofiqlashtirish, chet tillarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada chet tillarini o'qitishning kasbiy-pedagogik shart-sharoitlari va amaliyotini tahlil qilish, ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishning didaktik ta'minoti, chet til ta'limi mazmunini takomillashtirish, shakl, metod, vositalarini qo'llash samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

# 1-MAVZU: PEDAGOGIK FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING METODLARI

## **Reja:**

1. Takomillashtirish metodlari
2. Metodlarning bog‘liqlik jihatlari
3. Metodlar va innovatsion bog‘lanish

*Tayanch so‘z va iboralar:* Innovatsiya, pedagogika, metod, faol, interfaol, texnologik, moliyaviy, tashkilot.

Agar bugungi kundagi chet tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha qo‘llanilayotgan turli innovatsion pedagogik texnologiyalar mazmunini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, quyidagi innovatsion an‘analar mavjudligi oydinlashadi:

Har qanday innovasiya jamiyat taraqqiyotini ta‘minlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Innovatsion faoliyat – yangi mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat tadbirlari majmuasidan iborat bo‘lib, ulardan maqsad – yig‘ilgan bilim, ko‘nikma, malaka, texnologiya va ishlab chiqirish asboblari keng miqyosda amaliyotga tatbiq etish, ishlatish va ta‘minlashdir. Demak, pedagogik innovasiya yangi mahsulot, yangi kadr, mutaxassis yetishtirishga yo‘naltirilgan har qanday pedagogik yangilik bo‘lib, undan maqsad jarayonning yuqori samaradorligini ta‘minlashdir.

Innovatsion texnologiya ta‘lim jarayoni sifati va darajalarini diagnostika qilish, uning talablarini (kriteriyalarini) belgilab, muntazam o‘rganib borish, pedagogik faoliyat ko‘rsatkichlari va uning o‘zgarish jarayonlarini kuzatish imkoniyatini yaratib beradi.

Shu nuqtai nazardan, innovatsion pedagogik texnologiya – ma’lum bir belgilangan pedagogik faoliyatning dasturi bo‘lib, mazkur dastur o‘quv jarayonida amaliyotdan reja asosida, oddiydan murakkabga qarab, qadam-baqadam avvalgi bilimlarni keyingi bilimlar bilan mustahkamlash asosida o‘tkaziladi. Ingliz tili o‘qituvchisi o‘z innovatsion faoliyatida quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanadi:

- jamoaviy ta’lim turlari;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari;
- belgili-kontekst ta’lim turlari;
- o‘yin texnologiyalari;
- muammoli ta’lim va uning turlari;
- axborot texnologiyalari yordamida o‘qitish;
- dasturlashtirilgan ta’lim;
- rivojlantiruvchi ta’lim;
- masofaviy (distansion) ta’lim;
- konstruktiv ta’lim;
- ta’limning predmetlashtirilgan texnologiyalari;
- til o‘rganishda axborot resurlaridan unumli foydalanish (internet);
- SD-Rom kurslari, videofilmlar va kinofilmlardan foydalanish;
- Powerpoint (slyd) tizimlari;
- multimediya tizimlaridan foydalanish;
- lingofon kabinetlaridan foydalanish;
- interfaol metodlar (guruhlarda ishlash, SVOT analiz, aqliy hujum, akvarium, zinama-zina, idrok xaritasi, klaster, o‘quvchi o‘qituvchi rovida, rolli o‘yinlar, keys-stadi, ARIZ, bumerang, suhbat, diskussiya, liderlik maktablari, oratorlik turnirlari, OREN space, video-konferensiya, E-learning, mobil ta’lim) va boshqalar.

## **Ko‘p tomonlama metodlarning qo‘llanilishi.**

Ko‘ptomonlama metodlar majmui ingliz tilini o‘rganishga nisbatan o‘tgan asrning 20-yillaridan beri qo‘llaniladi. Uning negizida “Klivilend rejasi” asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning bosh tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

1. Ingliz tili oddiy mexanik yodlash orqali o‘zlashtirilmaydi. Chet tilini bilish, aslida har bir individning shaxsiy-intellektual xususiyatlari bilan uzviy va chambarchas bog‘langan holda kechadi. Shu bois, oddiy so‘zlar qaytarilishi va ularni yodlash majburiyatidan holi bo‘lgan til muhitini shakllantirish taqozo etiladi.

2. Til bu – milliy-etnik madaniyatning bir bo‘lagi, uning takribiy qismi sifatida baholanuvchi qadriyat sanaladi. Biror chet tilini o‘rganish jarayoni aslida boshqa milliy-etnik madaniyatni o‘rganish, uni anglash va qabul qilish sanaladi. Shuning uchun chet tilini o‘rganish jarayonini asl milliy madaniy tushunchalar asosida shakllantirish darkor.

3. Chet tilini o‘rganish jarayonida har bir dars faqat bir fokus, ya‘ni markaz asosida tuzilishi darkor. O‘quvchi diqqatini har bir darsda ma‘lum bir markaziy negiz asosida jamlash lozim.

4. Har qanday ikkinchi til bosqichma-bosqich o‘rganilishi lozim. Har bir bosqich avval o‘tilgan dars negiziga qurilmog‘i, shuningdek, avval o‘tilgan til materialining mustahkamlanishiga xizmat qilmog‘i kerak.

5. Ingliz tiliga o‘qitish jaryonida til o‘rganishning har bir turi, ya‘ni o‘qish, yozish, talaffuz qilish, eshitish o‘zaro bir me‘yor va hajmda berilishini ta‘minlash darkor.

Odatda ko‘rib chiqilgan ko‘ptomonlama metodlar o‘quvchida o‘rganilayotgan til va mamlakat madaniyati bo‘yicha chuqur, har tomonlama ma‘lumot berish asosiga quriladi. Biroq mazkur metodning o‘ziga xos chegaralovchi xususiyati shundan iboratki, unda asosli bilimlar

shakllantirilsa ham, o'quvchining til erkinligini mazkur metod to'la ta'minlab bera olmaydi.

**Faol va interfaol o'qitish metodlari.** Faol metod o'quvchining chet tili bilan bog'liq bo'lgan turli muammoli vaziyatlarga tushib qolishi va ulardan chiqib ketish malakalari negiziga quriladi. Faol metodlar o'quvchining mustaqil o'zini shakllantirishi darkorligi asosiga tashkil etiladi. Ya'ni, o'quvchi o'z bilimlarini chet tili bo'yicha shakllantiruvchi shaxsga aylantiriladi. Faol metod hozirgi kunda chet tillarni o'qitishda keng qo'llaniladi. Har qanday bilim olish jarayoni o'quvchining tafakkurida kechadigan fikrlash qobiliyati bilan uzviy aloqadorlikda yuz beradi. Bu esa, pedagogdan turli innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishini taqozo etadi. Ulardan: kognitiv, pozitiv, emosional, motivasiyalashgan, optimistik, texnologik metodlar majmuidan iboratdir. Ularning bari o'quvchi shaxsini har tomonlama keng til nuqtai nazaridan rivojlantirishga yo'naltiriladi.

**Chet tillarini o'qitishda axborot-kommunikasiyasi va internet resurslaridan unumli foydalanish.** Chet tillarni o'qitish jarayonida axborot-kommunikativ imkoniyatlardan to'la foydalanish jarayoni boshlanganiga ancha bo'ldi. Axborot-kommunikativ imkoniyatlar keng rivojlanib borayotgan bo'lib, ularning o'quv jarayoniga kirib kelishi juda faol va tezkorlik kasb etmoqda. Ularning ichida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- o ingliz tilini o'qitishda multimediyadan unumli foydalanish;
- o ingliz tili ta'limida interaktiv doska imkoniyatlarini ishga tushirish;
- o ingliz tilini o'rgatishda elektron resurslarni ishga tushirish va ulardan unumli foydalanish;
- o ingliz tilidagi lingofon materiallar imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

- internet orqali ingliz tilida so‘zlashuvchilar bilan bevosita muloqotni tashkil qilish;
- internet orqali turli xalqaro internet-konferensiyalarda ishtirok etish;
- turli mustaqil ishlangan materiallar, shu jumladan, slayd-shoularni internet tizimiga uzatish.

Metod kategoriyasiga nisbatan nazariy-pedagogik manbalarda turli fikrlar bildiriladi. Ulardan biri – o‘qituvchi va talabaniq aniq bir ta’lim maqsadini amalga oshirishda hamkorlikdagi faoliyatidir, degan qarash. Shunga ko‘ra, chet tillarni o‘qitishda ta’lim maqsadi – birinchidan, o‘quvchining xorijiy tildagi kommunikativ layoqatini shakllantirish va o‘stirish uchun “*o‘qituvchi nima qilishi kerak degan?*” savol mazmuni bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, mazkur maqsadning amalga oshirilishi uchun “*o‘quvchi nima amallarni amalga oshirishi kerak?*” degan savolda mujassam bo‘ladi. Binobarin, mana shu savollarga javob o‘quv jarayonida olib borilgan va tashkil qilingan faoliyatda namoyon bo‘ladi.

Talabalar o‘quv faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonda bir qator kamchiliklar, nuqsonlar, zaifliklar mavjud. Jumladan, talabalarda fikr mustaqilligining yetishmasligi, talaba fikrlash qobiliyatining zaifligi, fikrlash uslubining shakllanmaganligi va boshqalar. Buning bosh sababi oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichda talabalarga mustaqil fikrlash o‘rganilmaganligidadir. Shuningdek, talabalar o‘quv faoliyatidagi muhim nuqsonlardan yana biri – bu fikr yuritishdagi mantiqsizlik davom etayotganligidir. Mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligidir.

Mazkur tadqiqotda talabalarning o‘quv-biluv faoliyatida quyidagilarga e’tibor qaratildi:

- muammoning real jihatlarini idrok qilishga yo'naltirish;
- aqliy izlanishlarni jadallashtirish;
- alohida holatlarni psixologik sharhlash;
- o'xshash va farqli tomonlarini topish uchun obyektlarni o'zaro qiyoslash;
- obyektlardagi umumiy jihatlarini tavsiflash;
- farqlarni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv omillarni sharhlash;
- matndagi masalalar va materiallarni o'ziga xosligiga binoan tasniflash;
- nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni ijtimoiy turmushning barcha infrastrukturalarida oqilona qo'llash.

Ushbu tadqiqotda o'quvchining chet tilidagi kommunikativ layoqatini shakllantirish uchun o'qituvchi qaysi innovatsion pedagogik metodlar, shakllar, vositalar va yo'llarni tanlashi kerakligi bosh masala bo'ldi. Pedagogik jarayondagi ikki bosh ishtirokchidan aynan o'qituvchi faoliyatini olib ko'rish mumkin. Agar chet tilini o'qitishning umumiy pedagogik metodlari to'g'risida gapirilsa, unda:

1. O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodlari.
2. O'quv materialini ko'rgazmalar orqali bayon qilish metodlari.
3. O'quv materialini amaliy mashg'ulotlar orqali berish metodlari ish ko'radi.

Bugungi kunda chet tillarni o'qitishning zamonaviy innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish davr talabiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga ta'lim texnologiyalari kundan kun rivojlanmoqda hamda ularning yangidan yangi turlari, shakllari va usullari tadqiq etilmoqda. Ya'ni, chet tillarni o'qitish texnologiyalari muntazam rivojlanish, takomillashish jarayoniga kirib bormoqda. Zamonaviy

axborot-kommunikasiya tizimining rivojlanishi pedagogik ta'lim va uning shakllari, usullari masalasiga ham o'z ijobiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Axborot-kommunikasiyasining taraqqiyoti ta'lim tizimida ham o'zining yangi standartlarining o'rnatilishini taqozo etadi. Ta'lim berish va o'qitish jarayonlari eng tez o'z shakl, vosita va usullarini o'zgartirayotgan va tez rivojlanib borayotgan sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Shunga ko'ra ham chet tillarni o'qitishda yangi texnologiyalar taqozo etilmoqda.

Ko'p hollarda chet tillarni o'qitishda kitob bilan ishlash metodisiz o'quv jarayonini tashkil etib bo'lmaydi. Chunki kitob, ayniqsa, o'quv darsligi bilan ishlash o'quv jarayoniga tizimlilik, bosqichma-bosqichlilikni olib kiradi. Kitob bilan ishlash jarayoni talabalarda mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Kitob bilan ishlash jarayonida talabada tilni chuqur, tafakkur darajasida anglash jarayoni vujudga keltiriladi. Chet tilini chuqur lingvistik tafakkur darajasida anglashda ham vizual, ya'ni, ko'rish orqali, ham intellektual, ya'ni ong va miya orqali, ham interpretasiya, ya'ni chet tilini ovoz chiqaruvchi a'zolar orqali qayta ifoda qilish, tilni qayta shakllantirish jarayoni, ham qo'l orqali til materiali bilan tanishish, masalan yozma ishlarni bajarishda vujudga keladi. Chet tilini o'zlashtirish jarayonida insonning barcha a'zolari bir majmua bo'lib ishlashi tabiiy ravishda o'z natijalarini ko'rsatadi. Shunday qilib, kitob bilan ishlashda o'qish, qarab chiqish, konspekt olish, analiz qilish, tizimlashtirish, xulosalash bosqichlari faol sanaladi. Kitob bilan ishlash har qanday tilni o'rganishda an'anaviy usullardan sanaladi. Kitob bilan ishlash jarayonida talabalar savollar berishi, o'quv materialini muhokama qilishi, o'z fikrlarini aytishi, o'quv materiali yuzasidan baxslar uyushtirishi ham mumkin.

Kitob bilan ishlashda *reproduktiv metodlarni* qo‘llash yaxshi natijalar beradi. Reprodukativ metodlarga o‘quv material va axborotlarni qabul qilish bilan birga, bir tomondan, ularni amaliy mashg‘ulotlarda qayta tiklashni, ularni amaliy qo‘llashni va ikkinchi tomondan o‘qituvchining turli lingvistik va grammatik mashqlar orqali muntazam takrorlashi taqozo etiladi.

Chet tili bo‘yicha kommunikativ layoqatni talabalarda shakllantirish jarayoni mazmuni o‘qituvchi tomonidan quyidagi omillar bo‘yicha **aniq yo‘naltirilgan sa‘y-harakatlarni taqozo etadi:**

- talabalarda chet tili bo‘yicha kommunikativ layoqatni shakllantirish ta‘lim tizimining ustuvor vazifasi ekanligini *anglash*;

- chet tili bo‘yicha kommunikativ layoqatni shakllantirishning *yaxlit pedagogik konsepsiyasini yaratish va uni amaliyotga joriy etish*;

- talabalarda chet tili bo‘yicha kommunikativ layoqatni shakllantirishning *samarali shakl, usul va vositalarini* ishlab chiqish va ta‘lim jarayoniga *tabiiq etish*;

- talabalarda chet tili bo‘yicha kommunikativ layoqatni shakllantirish jarayonida ta‘lim-tarbiya tizimi imkoniyatlari va yo‘ldosh fanlardan oqilona *foydalanish*;

- talabalarda chet tili bo‘yicha kommunikativ layoqatni shakllantirish jarayonida ta‘lim-tarbiya tizimiga ko‘makdosh bo‘lgan fuqarolik jamiyati, ya‘ni, turli nodavlat institutlar imkoniyatlarini *belgilangan pedagogik vazifaga maqsadli safarbar etish*, mazkur faoliyatga oila, mahalla, nodavlat tashkilotlar, OAVlarini keng *jalb etish*;

- talabalarda chet tili bo‘yicha kommunikativ layoqatni shakllantirish jarayonini turli innovatsion qo‘llanma va darsliklar, metodik ishlanmalar, axborot-kommunikasiya

vositalari va jihozlari, lingofon kabinetlar va zarur infrastruktura hamda dasturlar bilan *boyitish*.

O'qituvchilarni pedagogik innovatsion faoliyatga tayyorlashda umumiy metodik xususiyatlarga ega bo'lgan quyidagi metodlarga murojaat etish o'rinli bo'ladi.

### **O'qituvchilarni pedagogik innovatsion faoliyatga tayyorlashda umumiy xususiyatlarga ega metodlar**

<b>Metodlar</b>	<b>samaradorligi</b>	<b>Yangilik kiritish darajasi</b>
<b>Amaliy</b>	Ta'lim jarayonida yangi o'quv materialini anglash, uni tushunish va qabul qilishni osonlashtiradi.	Ta'lim jarayonida yangi o'quv materialini anglash, uni tushunish va qabul qilishni osonlashtiruvchi, uni tezlashtiruvchi va yengillashtiruvchi metodlar majmuidan iboratdir.
<b>Ko'rgazmali</b>	Turli ko'rgazmali qurollar, shu jumladan slayd-shoular, rasmlar, illyustrasiyalar, sxemalar, klaster, idrok xaritalari, tablisa va jadvallar, video va audio materiallar, kinofilm, multfilmlar orqali lingvistik materialga chuqur kirib borishga imkon yaratadi.	Motivasiya hosil qilinadi
<b>Og'zaki</b>	Gapirish ko'nikmalari rivojlanadi, kommunikativ kompetensiyalar shakllanadi	Talabalarning og'zaki nutqi rivojlanadi, ingliz tilida so'zlashish madaniyati oshadi

<b>Metodlar</b>	<b>samaradorligi</b>	<b>Yangilik kiritish darajasi</b>
<b>Do'stona muhit yaratish</b>	Hamkorlikda ishlash jarayoniga zamin yaratiladi, bilimlar mustahkamlanadi, talabalar ta'limning faol ishtirokchisiga aylanadi.	Talabalar passiv fazadan chiqib, aktiv fazaga kirib borishadi.
<b>Ma'ruza</b>	Bilimlarni nazorat qilish, mashg'ulot o'tkazish, faoliyatni baholash, uy vazifalarini berish faoliyati shakllanadi.	Yangi o'quv materiali bilan ishlash ko'nikmalari shakllantiriladi.
<b>Muammoli</b>	Talabalarni muammoli vaziyatga tushirish orqali mavjud muammoni hal qilishga o'rgatish.	Yangi vaziyatda yangi fikrlash, kreativlikni namoyon qilish, refleksiya o'tish.

**Amaliy metod** bilimlarning amaliy hayoti, tajriba asosida shakllantirilishi darkorligini anglatadi. Chet tillarni o'qitishda mazkur metodlar majmuasining o'zini juda muhim sanaladi. Amaliy metodlar chet tilida kommunikativ vazifani shakllantirishning bosh omilidir. Amaliy metod chet tilida talabalarning so'zlashishi, savollarga javob ayta olishi, savol so'ray olishi, suhbatlashishi, baxslasha olishi, o'z fikrini ochiq bayon qila olishi, maslahat qilishi, yozma malakalarga ega bo'lishi, ariza to'ldira olishi, xat yoza olishi, rasmiy ma'lumotlarni hujjatlashtirishi, bank va moliya hujjatlarini yozma tartibda shakllantirishi, bayonnomalarni yozma tartibda shakllantira olishi kabi o'nlab soha va yo'nalishlarni qamrab oladi. Mazkur jarayonda pedagogning vazifasi, avvalo, mana shu ko'rsatkichlar bo'yicha talabada ma'lum va talab etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish,

keyinchalik ular amaliyoti bo'yicha talaba oldiga aniq vazifa qo'ya olish, mazkur amaliy vazifalarni bajarish uchun tegishli pedagogik shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat bo'ladi. Mazkur amaliy metodlar majmuasida talabalardan ma'lumotlarni tizimlashtirish, ularni tahlil qila olish, xulosalash va o'z xulosalarini chet tilida ifoda qila olish taqozo etiladi. Mazkur amaliy interfaol metodlar tarkibiga: guruhlarda ishlash, debat, baxs va munozaralar tashkil qilish, talabalar guruhini ikkiga ajratib, ularga o'zaro qarama-qarshi mavzularni muhofaza qilishni tayinlash, "Mening qarorim", "Mening nuqtai nazarim", "Mening fikrim bo'yicha bunday. Ammo...., "Olimlarning ta'kidlashicha...., biroq" kabi psixologik-lingvistik o'yinlarni taklif etish samarali hisoblanadi.

**Ko'rgazmali metodlar** ta'lim jarayonida yangi o'quv materialini anglash, uni tushunish va qabul qilishni osonlashtiruvchi, tezlashtiruvchi va yengillashtiruvchi metodlar majmuidan iboratdir. Mazkur jarayonda asosiy rol o'qituvchiga qaratiladi. O'qituvchi vazifasiga turli ko'rgazmali qurollar, shu jumladan, slayd-shoular, rasmlar, illyustrasiyalar, sxemalar, klaster, idrok xaritalari, tablisa va jadvallar, video va audio materiallar, kinofilm, multfilmlar, rang-barang amaliy tajribalar, lingvistik materialga chuqur kirib borishni ta'minlaydigan rolli o'yinlar orqali o'quv materialini tushuntirish, uni nazorat qilish, mashg'ulot o'tkazish, talabalar bilimlarini baholash, uy vazifalarini berish kabilar kiritiladi. Talabalarga ko'rgazmali qurollar bilan yangi o'quv materialini ishlanganda aktiv emas, passiv rol ajratiladi. Biroq talabalar zimmasiga o'quv ko'rgazmalari bilan ishlash vazifasi yuklanganda, ular passiv fazadan chiqib, aktiv fazaga kirib borishadi. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmali qurollar yangi o'quv materialini tushuntirish bosqichida ko'p ishlatiladi.

Chet tillarni o'qitishda **og'zaki metodlar** bosh usullardan sanaladi. Chet tilini o'qituvchining o'zi mazkur chet tilini chuqur og'zaki nutqini egallamasdan turib, tashkil qila olmaydi. Shu bois, o'qituvchidan chet tili bo'yicha juda katta va boy og'zaki nutq ko'nikma va malakalari talab etiladi. O'qituvchi o'z og'zaki nutqida erkinlik ko'rsata olmas ekan, u o'qituvchi o'qitgan talabalar ham amaliy hayotda og'zaki nutq malakalarini ko'rsata olmaydilar. Ta'lim jarayonida og'zaki metodlardan yangi dars materialini talabalarga tushuntirishda, masalan grammatik nazariy mavzularni tushuntirishda keng foydalaniladi. Shu bilan birga, til amaliyoti darslarida ham o'zaro muloqot jarayoni og'zaki nutqda o'tkaziladi.

Og'zaki nutq amaliyoti talabalar kommunikativ funksiyalarining shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiy etishida juda katta ahamiyat kasb etadi. Og'zaki nutq orqali talabalar chet tilidagi lahjalar, pereferiyalar tili, turli davlatdagi talaffuzlararo mavjud lingvistik farqlarini anglashga o'rgatiladi.

Masalan, amerikaliklar, sof angliyalik inglizlar, Hindiston xalqi, yoki Avstraliya xalqlari ingliz tili talaffuzida o'ziga xos farqlar mavjud. Mana shunday o'ziga xosliklarni anglash aynan og'zaki nutq darslarida amalga oshiriladi.

Interfaol usullar ingliz tilini o'rgatish jarayonida **do'stona muhit yaratish** omili bo'lib xizmat qiladi. Ular o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi ishonch, hamfikrlilik, hamkorlik, do'stlik muhitini yuzaga keltiradi. Birgalikda fikrlash va ishlash ulardagi faollikni oshiradi, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtiradi, ularning intellektual va xissiy-emosional shaxsiy yondashuvi va sifatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Do'stona muhit o'quvchining belgilangan o'quv materialini oson,

tayziqsiz, iliqlik bilan qabul qilishi uchun zarur pedagogik sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

O'qituvchi ingliz tilini o'qitish jarayonida quyidagi omillar orqali auditoriyada do'stona muhitni yarata oladi:

- o'quv jarayonini demokratizm, xalqchillik, o'zaro tenglik muhitida tashkil qilish;

- ta'lim jarayonida avtoritar uslubdan voz kechgan holda, liberal uslubni vujudga keltiradigan metodlardan oqilona foydalanish;

- auditoriyada hamkorlik va hamnafaslik, fikr almashishi va barcha fikrlarni erkin ifoda qilish muhitini tashqil qilish;

- o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan turli ijtimoiy dolzarb mavzularni erkin tanlash;

- o'quvchilarning mustaqil fikrlari va vazifalarni mustaqil bajarishi sharoitini vujudga keltirish, buning uchun guruhlarda ishlash, aqliy hujum, idrok xaritasi, zinama-zina, klaster, intellektual tahlil, baxs-munozara, muammo monitoringi, mustaqil ishlash, individual vazifalar, o'quvchi o'qituvchi rovida, muammoli o'qitish metodlari va texnologiyalaridan unumli foydalanish.

Ma'lumki, interfaol metodlar dars va mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ingliz tilini o'qitish jarayonida esa o'quvchining erkinligi va mustaqilligi juda ko'p hollarda uning ingliz tili ko'nikma va malakalarini puxta egallashi asosi bo'lib xizmat qiladi. Idrok va shaxs erkinligi bo'lsagina, til erkinligi vujudga keltiriladi. Agar shaxs o'z erkinligini ko'rsatishga moyil bo'lmasa, uning tilida ham erkinlik bo'lmaydi. Agar dars va mashg'ulot jarayonida o'quvchi o'z malakalarini erkin, qo'rqmay, mustaqil bayon qilib, namoyon eta olsagina, u kelajakda real hayotiy vaziyatlarda o'z bilimlarini erkin qo'llashga erishadi.

Ingliz tilini o'rgatish jarayonida o'qituvchi do'stona muhitni tashkil qila olsagina, o'quvchida uning ichki intellektual va mantiqiy bilim darajasini namoyish etishi uchun muhit yaratilgan bo'ladi. Agar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida mana shunday do'stona muhit yaratilmagan bo'lsa, o'quvchi materialni bilsa va ko'nikmalarga ega bo'lsa ham, ularni aynan dars va mashg'ulot doirasida erkin namoyish etishdan cho'chiydi, hayiqadi.

Ingliz tili o'qituvchisi faoliyatida pedagogik metodlarning to'g'ri va aniq tanlanishi ahamiyatli hisoblanadi. Shu bois, tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion pedagogik jarayonga tayyorlashda quyidagi metodlardan foydalanish ham samarali ekanligi aniqlandi:

1. **Ma'ruza metodi** – chet tilining grammatik, stilistik, lingvistik, leksikologik tuzilishi va qurilishi, shuningdek, til tarixi, davlatlar tarixi, xalqning madaniyati, mashhur kishilar hayoti, mazkur davlatlarning bayramlari, iqtisodi, ravnaqi to'g'risida to'liq va ilmiy asoslangan axborot berish.

2. **Dialog metodi** – o'quv jarayonining barcha bosqichlarini tashkil qilish, ishtirokchilar o'rtasida o'zaro dialog sharoitini vujud keltirish. Dialoglar turli mavzularga bag'ishlangan bo'lishi mumkin: masalan, buyuk insonlar hayotini o'rganish, ularning tarixiy rivojlanish va sivilizasiya takomilida tutgan o'rinlarini belgilash. Bu metod orqali tarixiy va yetuk shaxslarni milliy tarix, madaniyat va islom madaniyati tarixidan ham topib, ishlatish talabalarda parallel ravishda milliy g'urur va milliy iftixor, ijtimoiy faollik, yetakchilik, milliy o'zlikni anglash tuyg'usining shakllanishida ham qo'l keladi.

**Hamkorlikdagi tahlil metodi** – xorijiy til tajribasi chet tillarni o'rganishda juda muhim sanaladi. Shuning uchun

hamkorlikda tahlillar qilish tilni faol o‘zlashtirishda juda katta o‘rin tutadi.

**Suhbat metodi** – talabalarning xorijiy til borasidagi bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, ularning til amaliyoti bilan shug‘ullanish jarayonini keskin faollashtirish, talabalarning til amaliyotidan qo‘rquv holatining oldini olish va uni bartaraf etish, ularning o‘z til qobiliyatiga bo‘lgan munosabatlarini belgilash, xorijiy til malakalarining ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy hayotda tutgan o‘rnini belgilash, talabalarning muammolar yuzasidan erkin, mustaqil fikr yuritishlarini ta’minlashda juda qo‘l keladi.

**Savol-javob** – mazkur metod olingan bilimlarni aniq baholash jarayonida qo‘l keladi, savollarga aniq va lo‘nda javob berishi orqali talabaning bilim doirasi aniqlanadi. Shuning uchun mazkur metod aniq ma’noga ega bo‘lgan o‘quv materiallarini baholash, nazorat qilish va namoyon etishda ishlatiladi.

**Interfaol metodlar** – chet tillarini o‘qitish jarayoniga o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning barcha interfaol metodlardan unumli foydalanishlari taqozo etiladi. Masalan, “Guruhlarga bo‘linib ishlash”, talaba o‘qituvchi rovida usuli “Individual topshiriqlar olish”, “Aqliy xujum”, “Idrok xaritasi”, “Roli-poli”, “Muammo texnologiyasi”, “Rezyume”, “Blis-so‘rov”, “FSMU texnologiyasi”, “Akvarium”, “Debat olib borish”, “SWOT analiz (strength, weariness, opportunity, threat)”, “Shaxsiy analogiya (empatiya)”, “Open Space”, “Tashviqot texnologiyasi”, “IMAK-ishontirish maktabi texnologiyasi”, “Talk-Show», kabilarni qo‘llagan holda talabalarda ijodiy izlash va anglash jarayonini tashkil qilish samarali hisoblanadi. Mazkur interfaol metod va usullarning chet tillarni innovatsion o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi o‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlabgina qolmay, balki uni talabalar uchun bir necha bor qiziqarli va ishtiyoqli qiladi.

Bunday jarayonlarda talaba o'z tanlagan kasbini egallash jarayonidan huzurlanadi, uning o'ziga bo'lgan ishonchi ortib boradi. Talaba bilimlar olish jarayonidan zerikmaydi, balki rohatlanadi, uning o'z kasbining sirlarini egallashga bo'lgan qiziqishi ortib boradi. Talaba mustaqil ishlay olish, bilimlarni mustaqil egallashni o'rganib boradi, natijada o'zi tanlagan mutaxassisligi orasida iliqlik, uzviy aloqadorlik va manfaatdorlik vujudga keladi. Bu esa, o'z o'rnida, talabaning ta'lim jarayonidan manfaatdorligini oshiradi hamda uni o'z sohasida yaxshi mutaxassis bo'lishga undaydi.

**Pedagogik baholash metodi** – an'anaviy bo'lgan so'roq, imtihon, insho, bayon, og'zaki so'rov kabilardan, shuningdek, yakuniy va oraliq nazoratlardan foydalangan holda talabaning bilim darajasini aniqlashdan iborat.

**Filmlar va mikrofilmlarni muhokama qilish** – mavzuga oid filmlarni ko'rish va ularning turli qirralarini, hayotiy vaziyatlarini o'rganilayotgan tilda muhokama qilish, munosabat bildirishdan iborat.

**Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi** – o'quvchilarni o'quv material mazmuni bo'yicha yaratilgan muammoli vaziyatga tushirish va mavjud muammoni tahlil qilinishi orqali chet tiliga oid ma'lum ko'nikma va bilimlarning shakllanishiga yordam berishdan iborat.

**Ko'rgazmali qurollardan effektiv foydalanish** – qo'yilgan pedagogik maqsad va tadqiqot mavzusi doirasida juda keng ravishda qo'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Ko'rgazmali qurol sifatida filmlar, vaziyatlar, hodisalar, ijtimoiy holat va xalqaro vaziyat, konflikt holatlari ishlatilishi mumkin.

**Maqsadli tadbirlar o'tkazish** – yetakchilikni namoyon qilishga bag'ishlangan maxsus tanlov, ko'rgazmalar, intervyular, konferensiya, anjumanlar, davra suhbatlarini tashkil qilishdan iborat bo'ladi. OTMda talabalar bilan turli

ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni chet tilida o'tkazish juda katta samara beradi. Agar mazkur jarayonda OTM rahbariyati ham xorijiy til malakalarini namoyon qila olsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Ya'ni, talabada taqlid qilish uchun yorqin namuna shakllantirilgan bo'ladi. Mana shunday tadbirlardan “Biz XXI asr farzandlarimiz”, “Yetuklik sari”, “Xorijiy tillar marafoni”, “Til turniri”, “Til KVN'i”, “Til maktabi”, “Bir kunlik til aksiyalari”, “Jamiyatdagi mening o'rnim va vazifalarim”, “Shahrimiz, tumanimizni ozodalikda tutish – kelajakka qadam qo'yish”, “Sog'lom bo'lsam – polvon bo'laman”, “Biz kuchli va sog'lom oila”, “Sog'lom turmush tarzi – millat boyligi”, “Xorijiy til - mening taqdirimda”, “Vatan mustaqilligi”, “Xorijiy til va mening oilam kelajagi”, “Mening hayotimda chet tilining tutgan o'ri” kabi mavzularda seminarlar, anjumanlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari, ko'rgazmalar, bahslar, ommaviy tadbirlar, ommaviy harakatlar, tanlovlar, spektakllar, namoyishlar, qo'shiq va ertak kechalarining tashkil etilishi talabalarda juda katta qiziqish va ishtiyoq uyg'otishi aniq.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Suhbat metodini klastir usulida tushuntiring.
2. Interfaol metodlar yordamida nimalarni amalga oshirish mumkin?
3. Pedagogik baholash metodini tushuntiring.
4. Filmlar va mikrofilmlarni muhokama qilish deganda nimani tushunasiz?
5. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi nima?
6. Ko'rgazmali qurollardan effektiv foydalanish qanday hollarda amalga oshiriladi?

## **2-MAVZU: PEDAGOGIK FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH SHAKLLARI**

### **Reja:**

1. Pedagogik faoliyat
2. Pedagogik faoliyatni takomillashtirish shakllari
3. Pedagogik faoliyat shakllaridan foydalana olish darajasi

*Tayanch soʻz va iboralar: pedagogika, shakl, innovatsion, metod, translitiratsiya, lugʻatlar.*

Oʻqituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni, pedagogik faoliyat uchun muhim boʻlgan axloqiy fazilatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar barchakishilar hamma kasb egalari, jumladan oʻqituvchi tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir. Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, feʼl-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilik fikri taʼsirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqeylik shaxs oldiga maʼlum axloqiy talablar qoʻyadi; bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat oʻz faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloqiy normalari, talablarini belgilaydi. Oʻqituvchi umuminsoniy va milliy – axloqiy fazilatlarni oʻzlashtirib olishi, tajribada qoʻllash, oʻzining dunyoqarashi, mafkurasi va ahloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etish turmushda sinab koʻrish natijasida umuminsoniy va milliy axloqiy sifatlar qoidalar normalar oʻqituvchining oʻz axloqiy fazilatiga eʼtiqodiga aylanadi. Bular muallimning

dunyoqarashi fikr va mulohazalari bilan qo‘shilib bozor iqtisodiyotida asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning rolini belgilaydi. O‘qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga axloqiy fazilati va e‘tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e‘tiqod va sifatlar o‘qituvchuning dars berish jarayonida tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilar, ot-onalar va boshqalar bilan muomala munosabatlarida kundalik turmushdan o‘zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta’sir o‘tkazsa ko‘zga tashlanadi. Pedagogik takt o‘qituvchi axloqining amaliy ko‘rinishlaridan biridir. Muallim xulqining natijalari joylarga axloqiy ta’sirini samaradorligida tarbiya sohasida erishgan yutuqlaridan nomoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini odobining asosiy hislatlari umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar tushunchalarga, mos keladi va ularni pedagogik salohiyat bilan bog‘liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, adolat, shaxsiylik, yaxshilik qilish o‘qituvchilik burchi, o‘qituvchilik sh‘nani qadir qimmat, vijdon, halollik, fidoyilik, oklik talabchanlik kabi ahloqiy fazilatlar. O‘qituvchi odobida pedagogik faolliyati bilan bog‘liq ravishda tahili qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish o‘qituvchilik burchi qadr-qimmat, o‘qituvchilik ma’sulyati o‘qituvchilik vijdoni talabchan va adolatli bo‘lish, o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo‘yligi kabilar o‘qituvchi axloqning muhim fazilatlarini hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o‘zlashtirish bo‘lajak o‘qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilik faoliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra axloqiy xarakterga ega pedagogik saviyaning bunday hususiyati barcha fan o‘qituvchilari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tarbiyachilar sinf va maktab rahbarligiga birdek ta’luqlidir barcha pedagogik xodimlarning har bir so‘zi amaliy va xatti-harakatlari o‘quvchilarga tarbiyalanuvchilarga umuminsoniy,

milliy axloqni singdirish maqsadiga xizmat qilish lozim. Bu ish o'z navbatida muallim va o'quvchilardan axloq nazaryasi, axloqi tassaruf va tushunchalar o'qituvchi odobiga doir bo'limlarini muntazam ravishda oshirib borishni, muhokama mulohaza qilib uning mohiyatini tushunish mag'zini chaqishni talab etadi. Murakkab axloqiy hodisalarning mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish ma'sulyati ish bo'lib buning uchun muallim o'quvchilarning yoshi, saviyasiga mos ular tushunadigan misollarni izlab topishi tanlab oishi kerak. Pedagogik faoliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisidan axloqiy ma'rifatli yaxshi xulq egasi bo'lishni, axloqiy tajribaga ega bo'lishni, o'z-o'zini muntazam ravishda axloqdan saboq berib, ularni axloqiy, bilimli qilish, bolalarga yaxshi xulqiy odatlarni amalga bajartirib, mashq qildirib, axloqiy tajriba ortirishga ko'maklashish, o'quvchilarni ham o'z-o'zini tarbiyalab borishlariga erishish zarur. Axloqiy ma'rifat pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi bo'lib, ularning maqsadi umuminsoniy va miliy axloqning mohiyatini qonuniyatlarini ularning tamoyillari talablari qoidalariga doir bilimlarni axloqning odamlar hayotidagi o'rni va rolini muallimning o'zi anglab olishi va tarbiyalanuvchilarga va o'quvchilarga singdirishdir. Pedagogik xodimlarning hammasi barcha fan o'qituvchilarning faoliyati maqsadga qaratilishi zarur. O'quvchilarni axloqiy ma'rifatli qilish bu ularni axloqqa doirmuammolar axloqiy baho mezonlari bilan tanishtirish kishi biror ishni qilayotganda fikri, so'zi, hatti-harakatlarida ma'suliyatni va erkinlik darajasini bilishi har bir harakatning xulq-atvorining oqibatini ko'z oldiga keltirish lozimligini yoshlarga aniqlatishdan iborat.

Shu tariqa o'quvchilar hayotining ma'nosi yashashdan maqsad, baxt nima ekanligini anglab yetishlari lozim. O'quvchilarni axloqiy ma'rifatli qilish vositalaridan biri ularga pand-nasihat berishdir. Nasihatni albatta o'rni bilan va

meyorida ishlatish lozim. Aks holda u nasihatbozlikka aylanib ketadi. Keksalar sizdek paytida unday qilgan edilar, bunday qilgan edilar, siz urush nimaligini, qiyinchilik nimaligini ko'rmagansiz qabilida ta'na toshlarini otish, minnat qilish yoshlarning g'ashini keltirib nafratini qo'zg'atishi mumkin. Keksalar haqida, ularning yaxshi an'analari, odatlari haqida gapirish bilan birga yoshlarga ham ibratli, yaxshi xulqini ma'qullash xolisona baholash zarur. Muallim biror axloqiy qusurni o'quvchilar bilan birga tahlil etayotganida, iloji boricha, sinfda turgan o'quvchini misol tariqasida keltirmasligi yoki o'quvchilardan qaysi biri bunga o'xshaydi"- deb, darsni bo'shroq o'zlashtiradigan yoki sho'xroq bolaga ishora qilmasligi lozim. Bolalarni axloqiy ma'rifatli qilish uchun, muallim o'quvchilarning hissiyotiga ta'sir o'tkazadigan vositalaridan foydalanishi kerak. Bunday badiiy adabiyot juda qo'l keladi. Masalan, hadislarning mazmunini ifodalagan she'rlar - Alisher Navoiyning "Qirq hadisi" Abdulla Oripovning "Hajdaftari" va boshqa kabilar kitoblardan foydalanish axloqiy saboq mashg'ulotlarini tiklantiradi, tarbiyaviy ta'sirini oshiradi. O'quvchilarni axloqiy ma'rifatli qilishda "Odobnoma" darslari muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston maktablarida "Odobnoma" darsligi bo'yicha o'tkazilayotgan mashg'ulotlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Muallimning axloqiy -ma'rifat faoliyati samarali bo'lishi uchun o'quvchi yoki talabaning axloqqa doir bilim darajasidan xabardor bo'lishi kerak. Bolalar bilan yakkama-yakka suhbatlar o'tkazish, savol-javob kechalarini tashkil etish, mashg'ulotlar jarayonida axloqqa doir savollar berish kabilar bunda qo'l keladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolarni axloqiy ma'rifatli qilish jarayonida shuni esda tutishi lozimki, "Hayot ma'nosi nimadan iborat?", "Kimni baxtli deyish mumkin?", "Baxtlilikni o'lchaydigan mezon bormi?" kabi axloqiy masalalarga yoshlarga hamma vaqt qiziqqan va

qiziqadilar. Shuningdek, oilaviy hayot, jinsiy odob muammolarining axloqiy jihatlari ham yoshlarni o'ziga jalb etadi. Bunday suhbatlar chog'ida sinfdagi biror bolaning salbiy hatti-harakati haqida gap ochilgan bo'lsa, aksincha muallim bola shaxsiga va uning qadr-qimmatiga inson sifatida qarashi, hurmat bilan yondashishi zarur. Axloqiy tajriba. O'quvchilarda axloqiy tajriba hosil qilish pedagogik faoliyatining muhim jihatlardan biri bo'lib, u ijobiy axloqiy hatti-harakatlarini bajartirish, mashq qildirishdan iborat. Bu jarayonda o'qituvchilar va ota-onalar rahbarlik qiladilar. O'qituvchilar bu ishga pedagogikadan bilimdon mutaxassis sifatida yondashish, bolaga axloqiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan barcha omillarni hisobga olish lozim. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogika o'quv yurtida ta'lim olish jarayonida bu sohada katta imkoniyatlarga ega bo'lishadi. Chunki, oquv yurtidagi nazariy mashg'ulotlar bo'lajak o'quvchilarning pedagogik amaliyoti bilan birga amalga oshiriladi, o'quvchilarni axloqiy ma'rifatili qilishga doir tadbirlarni topshiriqlarni bajaradilar, o'quvchilarga axloqiy mavzularga ma'ruzalar qilib, ular bilan suhbat, uchrashuv anjumanlar o'tkaziladilar, sayohatga birga borib tarbiyasi qiyin bolalarga homiylik qiladilar o'quvchining oilasidagi ma'naviy-ruhiy vaziyatni o'rganadilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar bilan birga ijtimoiy foydali mehnatda, yozgi dam olish oromgohlarida ishlash jarayonida ham axloqiy tajribasini tashkil etish, ularga yaxshi xulq-odoblarni mashq qildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'quvchilarni foydali mehnatning xilma-xil turlariga jalb etish, axloqiy tajriba ortirishning muhim shartidir. Bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda mehnat faoliyatining ahamiyati katta. Mehnat jarayonida tejamkorlik, hamkorlik, mehnatsevarlik, uddaburonlik kabi axloqiy fazilatlar shakllanadi. O'qish bola bajaradigan murakkab mehnatdir.

Yetti yoshdan boshlab bola o'qishga jalb etiladi. O'qish sohasida erishilgan dastlabki yutiqlar uning qalbiga quvonch bag'ishlaydi, savod chiqarishda uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklarni bartaraf etishga undaydi. Boshlag'ich sinf o'quvchilarining qobilyati har xil bo'lsa ham, tirishqoqligi tufayli ularning barchasi ma'lum yutiqlarni qo'lga kiritadi. Bu borada boshlang'ch sinf o'qituvchisi bolalarga o'qishga qiziqish va ehtiyojni intiluvchanlikni tarbiyaviy bilim juda muhim ahamyat kasb etadi. O'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatida uning boshlang'ich sinf o'qituvchisiga va u o'qiyotgan fanga axloqiy munosabati namoyon bo'ladi. Umumiy ta'lim maktablarida bolalarni kasbga yo'naltirishi sohasidagi ishlarga jalb etish ham axloqiy tajriba hosil bo'lishiga ko'maklashadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining bu sohadagi muhim vazifalardan biri tarbiyaviy ishlarni tanlab, ularga turli topshiriqlar berib, qo'yi sinf o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni bajarishga jalb etishdir. Bo'lajak oqituvchi o'quvchilarini bu kabi ishlargajalb etish jarayonida uning o'zi ham axloqiy jihatdan mukammalashadi, pedagogik tajriba ortiradi .Maktablarda o'quvchilarning oz-o'zini boshqarishning turli sohalarga qiziqtirish bolalarning axloqiy tajribasini tashkil qilishda katta ahamyat kasb etadi. Sinfda, maktabda navbatchilik qilish natijasida bolalar intizomini, tozalikni o'rganadilar. Bu ishlarni bajarish jarayonida bolada talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar shakllanib boradi. Sinfda sinfdoshlik vazifasini bajarish talabchanlik, adolatli bo'lish talabchanlik, halollik kabi axloqiy sifatlarni mashq qildirish uchun muhimdur. Bu jarayonda bolada burchini bajarish ma'suliyatini his qilish, kattalarning topshirig'ini bajarish, tengdoshlariga topshiriq berish kabi axloqiy hati-harakatlariga doir ko'nikma hosil bo'ladi,bola haqiqiy tajriba ortiradi. Ayniqsa yoshlar tashkilotlarining ishlarida faol qatnashish, badiiy havoskorlik, fizkultura va sport, munozaralar

konferensiyalar o'tkazish kabilar bolalarda tashkilotchilik qobiliyatini o'stirish bilan birga, ularning xulqini mashq qildirish takomillashtirish maktabi bo'lib xizmat qiladi. Axloqiy mashqlarni bajartirish jarayonida maktab, oila, o'qituvchilarva ota-onalar bilan bolaga nisbatan bir xil talab qo'ya bilishlari muhimdir. Ayrim oilalarda ota-onalar o'zlari sezmaganda holda bolalari qalbiga qaysarlik, o'jarlik, o'zboshimchalik, ochko'zlik, kattalarga ishonmaslik urug'ini sepgan bo'ladilar. Bunday bolalarga yaxshi ishlarni bajartirish ancha qiyin kechadi. Bundaylar orasidan "tarbiyasi qiyin" bolalar yetishib chiqadi. Qaysar bola ko'pincha kichikligida katta yoshdagi kishilarning yaxshi niyati, odilligi ishonchini yo'qotgan bo'ladi. Bolaning murg'ak qalbida paydo bo'lgan bu ishonchsizlik asta - sekin dushmanlikka, shavqatsizlikka va uni yomon ishlar qilishga undaydi. Bundaylarni gap nasihat bilan tuzatish amrimahol, ularni amaliy ishlarga faol jalb etish lozim. Chunki, elat bolaning qalbini, vujudini butunlay egallab oladi. Sinf rahbari, o'qituvchi bundan kech xabar topmasa ham, bola qalbini bu shumlikdan tozalashni o'z burchu deb bilishi kerak, oiladagi jaholatni asoratini insoniniylik, adolat, xayri xoxlik bilan bartaraf etish zarur. O'z xulqidagi nuqsonlarni yo'qotishda bo'lgan samimiy yordam kerak. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina bola qalbiga yo'l yopib yaxshi ishlarni amalda bajartirib, undagi qaysarlikning bartaraf etilishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchisining fidoiy ishlarini, yashashhati-harakatini ko'rgan o'quvchi unga erishadi. Muallim bolalar bilan ishlashi, birga ovqatlanishi kabilar ham axloqiy ta'sir o'tkazishda muhimdir. O'qituvchi "Muallim aytganini qilgin qilganini qilma" qalbida ish tutish mumkin emas. O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash. Pedagogik faoliyatning muhim jihatidan biri o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashdir. Orta Osiyo xalqlarining umuminsoniy va milliy ma'naviy qadriyatlarda inson o'zligini

anglab olishi, o'z odatlari va sifatlarini o'zlashtirishga va sifatlarini o'zlashtirishga qodir ekanligi ta'kidlanadi. Ijodiy faoliyat jarayonida insonga o'z-o'zini boshqarish qobiliyati hosil bo'ladi, u o'z istaklarini o'z ishini o'z irodasiga bo'ysundirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kishining o'z ishini axloqiy bilimlar, e'tiqodlar asosida shakllantirish maqsadiga yo'naltirilgan faoliyati o'z -o'zini axloqiy tarbiyalashdir. O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash bu kishining ijtimoiy tajribada mavjud bo'lgan va shu jamiyat a'zolarining ongida mustahkamlanib qolgan axloqiy odatlar va sifatlarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyatidir. Demak, o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat talablari asosida belgilanadi. O'z-o'zini tarbiyalash har bir shaxsning mehnat jamoalari ma'lum bir guruh, kasb egalarining mehnat faoliyatida qatnashi jarayonida yuz beradi. Jamiyatda axloqiy tarbiyaning va o'z-o'zining tarbiyalashning maqsadi va mazmuni bir xil bo'ladi. Bu maqsadga erishish axloqiy tarbiyaning natijasi va jamiyatni taraqqiy tirishning sharti hamdir. Uning uchun ham o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash masalasi pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega. Maktabda o'qish yillari inson hayotida axloqiy izlanishlar davriga to'g'ri keladi. Bu davrda bolalarni o'z-o'zini tarbiyalashga da'vat etish samarali bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarga ibrat olishlari egallashlari uchun namuna bo'ladigan dalillarni topishga ko'maklashishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash ishini tashkil etish, amalga oshirishga davat etar ekan, avvalo uning o'zi o'z shaxsini muntazam takomillashtirishi, o'zining axloqiy saviyasini kengaytirib, axloqiy odat va sifatlarini o'stira borishi lozim. O'quvchi o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashi uchun ma'lum shart-sharoitlar ham zarur. Bulardan eng muhimi o'z-o'zini tarbiyalashning negizi sifatida o'z bilimlarini mustaqil

oshirishi uchun bo'sh vaqtga ega bo'lish, pedagogik jamoada o'qituvchining o'z ustida ishlashga ko'maklashadigan tegishli muhit mavjudligi. Bu shart-sharoitlardan birortasi bo'lmasa ham o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni susayadi. Bu sharoitlar bo'lgan taqdirda ham, agar o'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalashga xohish o'z-o'zini tarbiyalash maqsadi qat'iy bo'lsa, muallim o'zi mo'ljallagan maqsadga erishish uchun irodani ishga solib, astoydil intilmasa, o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash sohasida biror samaraga erisha olmaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash ishiga jiddiy kirishishi uchun irodasi kuchli, axloqiy tarbiyalangan bo'lmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi maktablarida ishlaydigan o'qituvchining ma'naviy qiyofasini ko'rsatadigan (belgilaydigan) axloqiy fazilatlardan eng muhimlari qo'yidagilar: o'z ishiga vijdonan va tanqidiy munosabat; mehribon va adolatli bo'lish; halollik va xushmuomalalik; kamtarlik, o'z kasbini va bolalarni sevish; o'z kasbidan g'ururlanish. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu axloqiy fazilatlarni o'zida tarbiyalashi uchun, avvalo, bunday axloqiy sifatlar pedagogik faoliyat uchun ijtimoiy qimmatli va zarur ekanligini, shuningdek bu sifatlardan qay biri unda kamroq rivojlanganligini anglab, bilib olishi zarur. Lekin o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash uchun buni anglab yetishning o'zigina kifoya emas. Buning uchun muallim aniq bir maqsadni ko'zlab intilishi, faol harakat qilishi lozim. Davlat va jamiyat oldidagi o'z pedagogik burchini yuksak darajada his etgan mullimgina bu sohada uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklarni bartaraf etib, ko'zlagan maqsadga erisha oladi. O'z-o'ziga, o'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lish o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash jarayonida zarur axloqiy xislatlardan biridir. Bunday xislat o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash uchun kishiga o'z kamchiliklarini aniqlash, o'z oldiga ularni bartaraf etish maqsadini qo'yishga imkon

yaratadi. Kishi o'ziga, o'z xulqi, xatti-xarakteriga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaramasa, o'z-o'zini tarbiyalab bo'lmaydi. Shuning uchun ham kishiga bunday xislatlarni yoshlik chog'idan tarbiyalab o'stirish maqsadga muvofiq. Kuzatishlar va o'qituvchilar bilan suhbat natijalari qo'yidagi xulosaga kelishi uchun asos bo'la oladi: boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z hatti- harakatlarining axloqiy qimmatini haqidagi tasavvuri, tushunchasi uning pedagogik mahorati darajasiga, pedagogik burchini sezish va bajara olish darajasiga bog'liq; bu o'z navbatida, muallimning pedagoglar jamoasigagi obro'yiga ta'sir etadi. Odatda, o'z ishining ustasi, mohir o'qituvchilar o'z- o'ziga o'z ishiga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan va o'z bilimlarini muntazam oshirib borishga intiluvchan bo'ladilar. O'rtacharoq pedagoglar esa xotirjam yuraveradilar, o'qituvchining bilimi sayozligi muallimning pedagogik manorati darajasiga bog'liq emas, deb hisoblaydi. Bunday o'qituvchi o'z bilimlarini oshirish, o'z-o'zini tarbiyalashga befarq qaraydi. Ko'pincha, o'qituvchilar o'rtasida ham katta o'bro ortira olmaydi. Demak, har kim o'z kuchi va imkoniyatlarini oqilona ongli baholay olish, yo'naltrilishi, boshqara bilishi boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashning muhim shartidir. O'z-o'zini baholash deganda kishining qobiliyati va bilimlari, pedagoglar jamoasi mavqei axloqiy sifatleri, odatlari, ko'nikma va malakalarini baholay olish nazarda tutiladi. Bu har bir kishi o'z fazilatlar va kamchiliklarni tasavvur etib baholay olish, o'z hislatlarini his etib oqilona yo'l tutish demakdir. O'qituvchilar nazarida boshlang'ich sinf o'qituvchisi inson kamolotining ko'zgusi hisoblanadi. O'qituvchilar muallim timsoliga barcha yaxshi fazilatlarini mujassam ko'rishni istaydi. Lekin, radio, televidenie, ommoviy axborot vositalari ko'paygan hozirgi davrda o'qituvchilar uchun axborot olamining yagona manbai emas.

Endigina bolalar muallimning fazilatleri va xislatlarini boshqalar bilan taqqoslash imkoniyatiga ko'proq egadirlar. Shuning uchun ham hozirgi davr boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axloqiy qiyofasiga qo'yiladigan talablar juda yuksakdir. Bu esa, o'z navbatida, muallimdan o'z bilimlarini mumtazam oshira borish va o'z - o'zini axloqiy tarbiyalab borishni talab etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashning mohiyati ideal talablariga mos ravishda o'zining fazilatleri, odatleri va xislatlarini takomillashtirib, o'zgartirib borishni ongli ravishda belgilab olishdan iborat. O'quvchisining ko'z o'ngida inson kamolotining yuksak timsoli bo'lish uchun muallim o'z bilimlarini mumtazam to'ldira borish bilan birga optimist bo'lishi, kelajakka ishonch mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilarga, kasbdoshlar va ota-onalarga munosabatini, xulqini belgilaydi. Bu muallim faoliyatining pedagoglar jamoasi va ma'muriyat nazorat etishi, tanqid qilish va rag'batlantirish usullari bilan amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisidan o'z axloqiy fazilatlarini takomillashtirish talab etuvchi omillardan yana biri bolalar orasida, pedagoglar jamoasidan o'bro orttiishiga intilishdir. Bu ham muallimni o'z - o'zini axloqiy tarbiyalashga da'vat etuvchi omillardandir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining obro'yi esa uning pedagogik mahoratiga, ta'lim - tarbiyaga mafkuraviy va nazariy tayorgarlikga, faoliyatiga, o'quvchilar va ota - onalar bilan ishlash usulariga, oiladagi xulqiga, bilim - saviyasi, o'quvchilar va o'z kasbdoshlariga xayrixohlik kabilarga bog'liq. Bu fazilatleri o'qituvchi faoliyati jarayonida egallaydi va o'z - o'zini axloqiy tarbiyalash yo'li bilan takomillashtiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z- o'zini axloqiy tarbiyalashga undovchi omillardan yana biri so'z va ishning birligida intilish, tarbiyalanuvchilar uchun ibrat bo'lishi

istagidir. Shuningdek, o'quvchining darsga kechikib kelishi, bolalarning dars qoldirishi va kechikishlarga sabab bo'lishi ham mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z - o'zini kuzatish va nazorat qilib borishi muntazam bo'lmog'i kerak. Bunday ish, odatda, ma'lum bir muddatga mo'ljallab amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisin o'zini nazorat qilishi uchun o'quvchiga, kasbdoshlariga, ota-onalariga, bergan va'dasini alohida daftarga yozib borishi mumkin. Buning natijasida o'quv yili yoki faoliyat davomida axloqiy harakatdagi juda ko'p pedagogik faktlar, materiallar to'planadi. Bu daholardan biri qoidalarga amal qilishi, o'z faoliyati uchun asos qilib olgan: hovliqmaslik, ayniqsa tashqaridan qaraganlar uchun xotirjam bo'lib ko'rish, so'zda va hatti-harkatdan rostgo'y, dangal bo'lish, o'zi haqida kamroq gapirish, mo'ljallangan kerakli ishlarni albatta bajarish zarur va kerakli narsalargagina sarf - harakat qilish har kuni biror qilgan yoki qilmoqchi bo'lgan ish haqida maqtanmaslik.

Pedagogik faoliyatni takomillashtirish shakllari shuningdek, innovatsion yondashuvlar birgalikda o'quvchiga tushuntirishda qulayliklar yaratadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Pedagogik faoliyat tushunchasini keng va tor ma'noda tushuntirib bering.
2. Pedagogik faoliyat shakllarini Venn diagrammasi asosida innovatsion yondoshgan holda tasvirlab bering.

### **Topshiriq:**

1. Pedagogik faoliyat shakllarini jadval asosida chizib tushuntirib bering.

### **3-MAVZU: PEDAGOGIK FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH VOSITALARI**

#### **Reja:**

1. Pedagogik faoliyatni takomillashtirishda bir necha vositalar.
2. Vositalarni innovatsion usullar bilan birlashtirib yondashish.

*Tayanch soʻz va iboralar:* pedagogika, vosita, innovatsiya, usul, ijtimoiy yondashuv, izlanuvchilik, an'ana, mahalliy, mikromahalliy

Pedagogik faoliyatning mohiyati va tuzilishi, shuningdek ular bilan bogʻliq boʻlgan samaradorlik pedagogik fan va amaliyotning eng dolzarb masalalaridan biridir. Odatda, ushbu muhim hodisalarni ilmiy tahlil qilish pedagogik san'at haqidagi umumiy munozaralar bilan almashtiriladi.

Pedagogik faoliyatning ilmiy tahlili har bir oʻqituvchining ijodiy usulining oʻziga xosligini taʼkidlaydi, lekin u oʻzi tavsiflarga emas, balki qiyosiy tadqiqotlar, sifat va miqdoriy tahlil tamoyillariga asoslanadi. Pedagogik faoliyat modellarini tahlil qilish va tuzishda tizimli yondoshish printsiplarini qoʻllash bilan bogʻliq istiqbolli yoʻnalish deb qaraladi.

Jamiyat rivojlanishining ob'ektiv qonunlari bilan maxsus tashkil etilgan sun'iy sifatida, uyushgan, pedagogik tizim jamiyatning doimiy "nazorati" ostida, ya'ni. uning bir qismi boʻlgan ijtimoiy tizim. Pedagogik tizimdagi oʻzgarishlar, uning tarkibiy tuzilishi va moslashuvi hozirgi paytda jamiyatning ta'siri nimaga yoki qaysi elementlarga yoʻnaltirilganiga bogʻliq: moddiy bazani mustahkamlash,

ta'lim mazmunini yaxshilash, o'qituvchining moddiy ahvoriga g'amxo'rlik qilish va boshqalar. Pedagogik tizimlarni takomillashtirish bo'yicha ko'plab muvaffaqiyatsiz urinishlarning sabablari uning elementlarini o'zgartirishga tizimli emas, mahalliy yondashuv bilan bog'liq. Ijtimoiy buyurtmani shakllantiruvchi jamiyat eng umumiy pedagogik tizim sifatida tegishli ta'lim tizimini quradi. Bu, o'z navbatida, quyi tizimlari bilan ta'lim funksiyalarini bajaradigan va ta'lim tizimiga qo'shilgan barcha ijtimoiy institutlarga ega. Yosh avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik tizimlarning samarali ishlashi uchun jamiyat o'qituvchilar, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini yaratadi. pedagogik tizimlar. Kasbiy malaka darajasiga e'tibor qaratib, jamiyat kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirishning turli darajadagi pedagogik tizimlarini yaratadi.

Biz zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik faoliyat modellarini yanada rivojlantirishning dolzarbligini belgilaydigan zamonaviylikning pedagogik tizimlari va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rmoqdamiz.

Pedagogik faoliyat inson faoliyatining mustaqil turi bo'lib, unda ijtimoiy tajriba, moddiy va ma'naviy madaniyat avlod-dan-avlodga uzatiladi.

Ushbu ta'rifga asoslanib, tadbirlarni ajratib turing. Shunday qilib, moddiy mahsulotni yaratishga, olishga qaratilgan harakatlar odatda amaliy deb nomlanadi; ong sohasini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat odatda ma'naviy deb nomlanadi. Bular nisbatan mustaqil, ammo faoliyatning o'zaro bog'liq shakllari.

Endi "pedagogik faoliyat" tushunchasini juda izohlashga o'taylik. Faoliyatning har qanday turining mazmunini tahlil qilish uning psixologik asosining mavjudligini ko'rsatadi, chunki faoliyatning asosiy

xususiyatlari ob'ektivlik deb hisoblanadi, ya'ni u bevosita shug'ullanadigan narsa (har qanday moddiy yoki ideal ob'ekt) va sub'ektivlik, chunki u muayyan shaxs tomonidan amalga oshiriladi. (A.N. Leontiev, S.L. Rubinshteyn va boshqalar)

Faoliyat kontseptsiyasi zamonaviy psixologiya va pedagogikada kalitlardan biridir. Psixologiya faoliyatning subyektiv tomonini o'rganadi.

Pedagogik faoliyat bu faoliyat vositalaridan biridir.

Pedagogik faoliyat kasbiy va kasbiy bo'lmaganlarga bo'linadi (N.V. Kuzmina, E.M. Ivanova va boshqalar). Kasbiy bo'lmagan pedagogik faoliyatning namunasi bolalarni oilada tarbiyalash faoliyati yoki korxonah rahbarlari tomonidan olib boriladigan faoliyatdir. Kasbiy bo'lmagan pedagogik faoliyat hunarmandchilik mashg'uloti hisoblanadi. Shunday qilib, kasbiy bo'lmagan pedagogik faoliyat - bu ko'pchilik kundalik hayotida shug'ullanadigan, maxsus pedagogik ma'lumot va pedagogik malakaga ega emas. Kasbiy pedagogik faoliyat davlat yoki xususiy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi va uni amalga oshiradigan shaxslarning ma'lum bir maxsus ma'lumot darajasidagi kasbiy mahoratini talab qiladi.

Pedagogik faoliyat tushunchasini talqin qilishda bir nechta yondashuvlarni ko'rib chiqing.

A.I. Shcherbakov o'qituvchining ishini "chuqur bilim, yuqori madaniyat, pedagogik qobiliyat va birinchi navbatda, pedagogik faoliyatning psixologik tuzilishi va mazmunini, uning asosiy vazifalarini tushunishni talab qiluvchi san'at" deb ta'riflaydi, uni amalga oshirish talaba yoshlarga ta'lim va tarbiya ta'sirini ta'minlaydi. A.I. Shcherbakov pedagogik faoliyatning 8 funksiyasini aniqlaydi, ularni muhimlik tartibida quyidagicha ajratadi: axborot, safarbarlik, rivojlantiruvchi, yo'naltirilgan, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy, tadqiqot. Bundan tashqari, mualliflarning

ta'kidlashicha, oxirgi to'rtlik "maxsus pedagogik emas, chunki ular zamonaviy malakali ishchilarning barcha turlarida uchraydi".

V.A. Slastenin fikricha "o'qituvchi faoliyati, o'z mohiyatiga ko'ra, har xil sinflar va darajadagi tipik va o'ziga xos pedagogik muammolarning son-sanoqsiz echimini topish jarayonidan boshqa narsa emas. Ammo, o'zining boyligi va xilma-xilligi bilan, pedagogik muammolar ijtimoiy boshqaruvning vazifasidir". V.A.ga ko'ra. Slastenin, "pedagogik muammolarni yuqori malakada hal qilishga tayyorlik bir qator kasbiy va pedagogik mahorat bilan belgilanadi." Tegishli ko'nikmalar tizimi u o'qituvchi-tarbiyachining kasbiy mahoratini shakllantirish uchun asos sifatida qaraladi.

Yu.N. Kulyutkin o'qituvchi kasbini shaxslararo o'zaro munosabatlar bilan ajralib turadigan "odam-odam" turidagi kasblar guruhiga kiradi. Ikkinchisining ajralmas xususiyati aks etuvchi jarayonlardir. Shu bilan birga, "o'qituvchi talabada kelajakda o'z faoliyatini mustaqil ravishda boshqarishga imkon beradigan" ichki asoslarni "(bilimlar, e'tiqodlar, usullar, xatti-harakatlar) shakllantirishga intilmoqda. Shu bilan birga ... yanada katta maqsad qo'yish - uning shaxsiyatining yo'nalishlari va uni targ'ib qilishning turli xil ta'sirlarini hisobga olgan holda talaba shaxsini rivojlantirish. " Ushbu nazariyada pedagogik faoliyat o'qituvchining shaxsiyatini rivojlantirish maqsadida o'qituvchi tomonidan talaba faoliyatini nazorat qilish sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'riflangan xususiyatlarda pedagogik faoliyat tushunchasini aniqlashga 2 yondashuvni ajratish mumkin

Birinchi, ma'lum bir o'quv dasturini amalga oshiruvchi, o'zining funktsional vazifalarini bajaradigan va kasb talablariga javob beradigan o'qituvchining etakchi rolini

tan olish bilan tavsiflanadi. Bunday yondashuv bilan talaba tashabbuskor va o'qituvchi ta'sirining ob'ekti hisoblanadi.

Ikkinchi yondashuvda, o'qituvchi talabalar va uning atrofidagi dunyo o'rtasida vositachi bo'lib, u talaba bilan muloqotda teng huquqli sherikdir.

Ushbu tasniflashning asosini aloqa turi - monolog yoki dialog tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, barcha xarakteristikalarda, monologik tipdagi pedagogik faoliyat aloqa turiga yo'naltirish shakli yashiringan: so'z bilan aytganda, talaba faol faoliyat sub'ekti deb e'lon qilinadi, ammo taklif etilayotgan o'zaro ta'sir shakllari aslida o'qituvchiga bir tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu yondashuv, albatta, o'quv jarayoniga katta e'tibor qaratadi. Ikkinchi turda, PD chinakam insoniy ma'noga ega, u hamkorlikda va birgalikda yaratishda ifodalangan.

Qadimgi davrlarda (miloddan avvalgi) insoniyat pedagogik faoliyatda, yosh avlodni tarbiyalashda boy tajriba to'plagan. Antik davrning eng buyuk mutafakkirlari, faylasuflar Demokrit (mil. Avv. 470 yoki 460), Sokrat (mil. Avv. 469-399), Platon (mil. Avv. 427-348), Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 yillar).va boshqalar insonning tabiati, uni takomillashtirish yo'llari, zamonaviy jamiyatda axloqning pasayishi haqida mulohaza yuritib, bolalar va yoshlarni tarbiyalash va tarbiyalash bo'yicha birinchi pedagogik g'oyalar, qoidalar, tavsiyalarni yaratdi. Tarix biz uchun saqlab kelgan qadimiy faylasuflarning so'zlari va ularning bugungi kungacha saqlanib qolgan asarlari, ilm-fan sohasiga taalluqli pedagogik nazariyalar deb nomlanishi mumkin emas. Faylasuflarning o'zlari pedagogikaga bolani hayot orqali etaklash san'ati sifatida qarashgan. Shunga qaramay, birinchi pedagogik qarashlar falsafa tubida paydo

bo'lganligini va pedagogikaning fan sifatida peshqadam bo'lganligini ta'kidlash kerak.

Pedagogik faoliyat vositasi - bu bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirish va uni zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan o'qituvchining qasddan, asoslantirilgan ta'siri.

Pedagogik faoliyatning asosini ta'lim amaliyotining qonunlari tashkil etadi. Pedagogik faoliyat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi va maxsus o'qitilgan va o'qitilgan odamlar - o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyatning tabiati va mazmuni uning predmeti, motivlari, maqsadi, vositalari va natijasi bilan belgilanadi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi - bolani ta'lim ob'ekti va predmeti sifatida rivojlantirish istiqbollarini amalga oshirish uchun sharoit yaratish. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish pedagogik ta'sirning boshida va u tugaganidan keyin bolaning shaxsiyatining xususiyatlarini taqqoslash orqali tashxis qo'yilgan pedagogik faoliyat natijasidir.

Pedagogik faoliyatning predmeti - rivojlanish asoslari va shartlari sifatida ijtimoiy-madaniy tajribani rivojlantirishga qaratilgan talabalar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish.

Pedagogik faoliyatda ham tashqi, ham ichki motivlar ajralib turadi. Ularning tashqi tomonlari shaxsiy va kasbiy o'sish motivlarini o'z ichiga oladi, ichki esa hukmronlik, gumanistik va g'oyaviy yo'nalishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik faoliyatning vositalari: nazariy va amaliy bilimlar, ularning asosida bolalarni o'qitish va tarbiyalash amalga oshiriladi; o'quv va uslubiy adabiyotlar; ko'rinishi.

Ijtimoiy xulq-atvor va pedagogik faoliyatdagi o'zaro ta'sir tajribasini topshirish usullari tushuntirish, namoyish, kuzatish, o'yin, qo'shma ishdir.

B.T. Lixachev pedagogik faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlaydi:

- - o'qituvchining ehtiyojlari, ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalari, shaxsga qo'yiladigan asosiy talablar to'g'risida bilim;

- - ilmiy bilimlar, qobiliyatlar, ishlab chiqarish, madaniyat, ijtimoiy munosabatlar sohasida insoniyat tomonidan to'plangan tajriba asoslari, ular umumlashtirilgan shaklda yosh avlodga beriladi;

- - pedagogik bilimlar, o'quv tajribasi, mahorat, sezgi;

- - o'z tashuvchisining yuksak axloqiy, estetik madaniyati.

Bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat, agar u bolaning tabiatiga, madaniyatiga va o'qituvchiga muvofiq qurilgan bo'lsa, samaraliroq bo'ladi.

Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi va bola o'rtasida maxsus aloqa vujudga keladi, unda ishtirokchilar dunyoga nisbatan o'z nuqtai nazarlarini his qilishadi. O'qituvchi va bola madaniyati o'rtasidagi muloqot kontekstida pedagogik faoliyatning vazifasi ikki xil: bir tomondan, bolaning fikrlash, dunyoqarashi, pozitsiyasini, dunyoqarashini rivojlantirish va rivojlantirish; boshqa tomondan, boshqa madaniyat (kattalar) bilan o'zaro aloqani tashkil qilish.

Pedagogika fanida o'qituvchi va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ikki turi ajratiladi: mavzu-ob'yekt va predmet-mavzu.

Mavzu-ob'ekt munosabatlari. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi predmet rolini o'ynaydi va o'quvchi (bola) ob'ekt vazifasini bajaradi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatning predmeti sifatida maqsadlarni belgilash, faollik, pedagogik o'zini o'zi anglash,

o'zini o'zi anglashning etariligi va da'volar darajasi va boshqalar bilan tavsiflanadi. Bunday vaziyatda bola o'qituvchi tomonidan qo'yilgan talablar va topshiriqlarning ijrochisi sifatida ishlaydi. Muvofiq sub'ekt-ob'ekt munosabati bilan bolalarda ijobiy fazilatlar shakllanadi va mustahkamlanadi: mehnatsevarlik, intizom, javobgarlik; bola bilim olishda tajriba to'playdi, tizimni, tartibli harakatlarni o'zlashtiradi. Biroq, bola pedagogik jarayonning ob'ekti ekan, ya'ni. faoliyat uchun motivatsiya doimo o'qituvchidan kelib chiqadi, bolaning kognitiv rivojlanishi samarali bo'lmaydi. Tashabbusni namoyon qilish kerak bo'lmagan vaziyat, mustaqillikni cheklash ko'pincha shaxsning salbiy tomonlarini shakllantiradi. O'qituvchi o'z o'quvchilarini, asosan, xatti-harakatlar me'yorlari va uyushgan faoliyat qoidalariga muvofiqligi, nomuvofiqligi nuqtai nazaridan o'z o'quvchilarini juda ko'p "ko'radi".

Subyektiv-subyektiv munosabatlar bolalarning hamkorlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, nizolarni konstruktiv hal etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Fikrlash jarayonlarining eng murakkab ishi, xayolot faollashadi, bilim faollashadi, zarur usullar tanlanadi, turli ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Barcha harakatlar bola uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'ladi, sub'ektiv pozitsiyani doimiy ravishda kuchaytirish bilan uning shaxsiy fazilatlariga aylanishi mumkin bo'lgan faollik va mustaqillikning qimmatli belgilari shakllanadi. O'qituvchi fan-predmet o'zaro ta'sirida o'z o'quvchilarini shaxsan tushunadi, bu o'zaro munosabatlar shaxsga yo'naltirilgan deb nomlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qituvchi bolaning boshqa odamlar va dunyo bilan munosabatlarda uning "men" ni anglash qobiliyatini, uning xatti-harakatlarini tushunish, boshqalar uchun ham, o'zlari uchun ham ularning oqibatlarini kutish qobiliyatini

rivojlantiradi. Ushbu turdagi o‘zaro ta’sirli pedagogik faoliyat tabiatan dialogikdir.

O‘qituvchi va bola o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning tabiati pedagogik faoliyat uslubini belgilaydi. A.K. Markov pedagogik faoliyatning demokratik, avtoritar va liberal uslublari bilan farqlanadi va ularni quyidagicha tavsiflaydi.

Pedagogik faoliyatning demokratik uslubida bola aloqa va kognitiv faoliyatda teng huquqli sherik sifatida qaraladi. O‘qituvchi bolalarni qaror qabul qilishga jalb qiladi, ularning fikrlarini inobatga oladi, mustaqil qarorlarni rag‘batlantiradi, nafaqat akademik ko‘rsatkichlarni, balki shaxsiy fazilatlarini ham hisobga oladi. Ta’sir qilish usullari harakatlar, maslahat, so‘rovga undashdir. Demokratik hamkorlik uslubidagi o‘qituvchilar katta kasbiy barqarorlik, o‘z kasbidan qoniqish bilan ajralib turadi. Avtoritar uslubda bola teng sherik emas, balki pedagogik ta’sir ob’ekti sifatida ko‘riladi. O‘qituvchi individual ravishda qarorlar qabul qiladi, u taqdim etgan talablarning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatadi, vaziyatdan va bolaning nuqtai nazarini hisobga olmagan holda o‘z huquqlaridan foydalanadi, uning oldidagi xatti-harakatlarini oqlamaydi. Natijada, bolalar o‘z faolligini yo‘qotadilar yoki uni faqat o‘qituvchining etakchi roli bilan mashq qiladilar, ular o‘zlarini past baholaydilar, tajovuzkor bo‘ladilar. Ushbu uslubning ta’sir qilishning asosiy usullari buyruqlar, ta’limotlardir. O‘qituvchi kasbga nisbatan past qoniqish va kasbiy beqarorlik bilan ajralib turadi.

Liberal uslubda o‘qituvchi qaror qabul qilishdan qochadi, tashabbusni bolalarga, hamkasblariga topshiradi. Bolalar faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish tizimsiz amalga oshiriladi, qat’iylik, ikkilanish.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Pedagogik faoliyatning demokratik vositalarini tushuntirib bering
2. Klassifikatsiya qilishdagi qiyinchiliklar?

### **Topshiriq:**

1. Klassifikatsiya qilishdagi muammolarni sanab o‘ting.

## 4-MAVZU: ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI TA‘LIM JARAYONIDA QO‘LLASH AMALIYOTI

### Reja:

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi.
2. Pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoni bilan bog‘liqligi

*Tayanch so‘z va iboralar: pedagogika, vosita, innovatsiya, usul, ijtimoiy yondashuv, izlanuvchilik, texnologiya.*

Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko‘plab ishlab chiqarish sohaslarini texnologiyalashtirishga sabab bo‘lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, bilimlar gumanitar sohaslariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta‘lim sohasida ham. “Pedagogik texnologiya” so‘z birligi – bu inglizcha “an educational technology” – “ta‘lim texnologiyasi” iborasining aniq bo‘lmagan tarjimasidir. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi oxirgi paytlarda o‘qitish nazariyasida yanada kengroq qo‘llanilmoqda. Aynan “texnologiya” termini va uning “o‘qitish texnologiyasi”, “ta‘lim texnologiyasi”, “ta‘limda texnologiya” kabi shakllariga pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq ta‘riflar berilgan. “Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha ishlarda XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasida turlicha ifodalashlar mavjud.

1. Texnologiya – bu bir ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan uslublar to‘plamidir (izohli lug‘at).

2. Pedagogik texnologiya – bu o‘quv jarayonini amalga oshirishning texnikasidir (V.P. Bepalko).

3. Pedagogik texnologiya – bu o‘qitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlashdir (I.P. Volkov).

4. Pedagogik texnologiya – bu o‘qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to‘plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko‘rsatmalar yig‘indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir (B.T. Lixachev).

5. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini optimallashtirish masalani qo‘yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olib o‘qitish va bilimlar o‘zlashtirish butun jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashga sistemali yondashishidir (YuNESKO).

6. Texnologiya – bu san’at, mahorat, moxirlik, ishlab chiqish metodlari to‘plami, holatini o‘zgartirishdir (V.M. Shepel).

7. O‘qitish texnologiyasi - bu o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun so‘zsiz qulay sharoitlar yaratib berish uchun o‘quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va 13 olib borish bo‘yicha har tomonlama o‘ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir (V.M. Monaxov).

8. Pedagogik texnologiya – bu pedagogikada fikrlashning sistemali usulidir (T. Sakamoto).

9. Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonining tashkiliy shakli, metodlari, mazmunini o‘zgartiruvchi uning rivojlanish sistemasidir (E. Bistereki va J. Seller).

10. Pedagogik texnologiya - pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalar sistemali to‘plami va ishlatilishi tartibini bildiradi (M.V. Klarin).

11. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim maqsadiga erishishga qaratilgan o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatini

sistemali, konseptual, qoidali, obyektivlashtirilgan, invariant tasvirlashdir (F.A. Fradkin).

12. Pedagogik texnologiya bilimlarni egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta'minlashni tahlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar, g'oyalar, vositalarni o'z ichiga oluvchi kompleks integral jarayon demakdir (Pedagogik kommunikasiyalar va texnologiyalar bo'yicha AQSh assosiasiyasi).

Pedagogika fani tarixidan ko'rinib turibdiki o'qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan. O'qitish – bu jamiyat taraqqiyoti uchun samarasi pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darhol ko'rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir. Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishi qarab farq qilmaydi. Ana shu nuqtai nazardan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo'lgan “pedagogik davrlarni” ko'rib chiqamiz:

I. Individual pedagog, qo'l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);

II. Yozuv kitobi davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha);

III. Audiovizual vositalar davri (XX asrning 50-yillari).

IV. O'qitishni boshqarishni avtomatlashtirish oddiy vositalari davri (XX asrning 70-yillari).

V. Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta'limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterda o'qitish).

Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san'atini ham o'z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish bilan operasiyalar ma'lum ketma-ketligini ko'zda tutadi. Texnologiya prosessual

mazmunda “qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?” degan savolga javob beradi. XX asrning 20-yillarida “pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o‘zida yana bir boshqa – “pedagogik texnika” termini ham tarqaldi. U pedagogik ensiklopediyada 30- yillarda o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Pedagogik texnologiyalarga o‘quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko‘rgazmali qo‘llanmalardan foydalanish mahoratlari ham kiritilgan. 60-yillar o‘rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda uni talqin qilish ikki yo‘nalishi belgilandi.

Birinchi yo‘nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o‘qitish vositalarini qo‘llash zarurligini ta’kidladilar.

Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari esa o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g‘oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo‘qotishni muhim deb hisobladilar.

Hozirgi kunda mamlakat bo‘ylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQSh da 1961 yilda “Pedagogik texnologiya” jurnali (Yeducational Technology), 1971 yilda esa – “Audiovizual o‘qitish” jurnali nashr etila boshlandi. Angliyada 1967 yil - Pedagogik texnologiya bo‘yicha Milliy kengash 1964 yildan boshlab “Pedagogik texnologiya va o‘qitishni dasturlashtirish” (Yeducational Technology progratted tearing) jurnalini, 1971 yilda – “Pedagogik texnologiya” jurnalini nashr eta boshladi. Yaponiyada - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shug‘ullanadi. 1967

yilda “Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Milliy kengash” tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965 yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda “Pedagogik texnologiya” jurnali va ingliz tilida yiliga ikki marta “Pedagogik 15 texnologiyalar sohasida tadqiqotlar” jurnali nashr etiladi. Yaqinda “Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha umumiyapon Markaziy kengashi” tashkil etildi, u muammolar bo‘yicha xalqaro aloqalar o‘rnatish bilan ham shug‘ullanadi. Italiyada – 1971 yili pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Milliy markaz tashkil etildi va “Pedagogik texnologiyalar” jurnali nashr etiladi. Vengriyada - 1973 yili o‘qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi. O‘qitish texnologiyasi bo‘yicha Xalqaro seminarida (Budapesht, 1977) olim S.G. Shapovalenko o‘qitish jarayonining uchta texnologik prinsiplarini ko‘rsatdi: Vengriya olimi L. Salai “o‘qitish texnologiyasi” tushunchasiga rejalashtirish, maqsadlarni taxlil qilish, o‘quv-tarbiyaviy ishlar jarayonini ilmiy tashkil etish, samaradorligini oshirish maqsadida eng muhim vosita va materiallarni tanlashni kiritib o‘qitish jarayonini tashkil etuvchilarni doirasini ancha kengaytirdi. E. Bisterski va J. Sellerlar (AQSh) to‘plangan ma’lumotlar bo‘yicha o‘qitish texnikasi faqatgina yordamchi vosita va yangi sistemadan iborat bo‘libgina qolmay, balki o‘qish jarayoni tashkiliy shaklini, metodi va mazmunini o‘zgartirib uning rivojlanishida katta rol o‘ynadi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilar va o‘quvchilarni pedagogik fikrlashlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Rossiya XX asrning 90-yillarida pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Markaz tashkil etildi, “Maktab texnologiyasi”, “Ta’limda innovasiyalar” jurnallari nashr etiladi.

O‘zbekiston 1997 yili kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan boshlab ta’lim tizimida, pedagogik

nashrlarda pedagogik texnologiyalar muammolari dolzarb tadqiqotchilik obyektlari sifatida ko‘tarila boshlandi. 1999 yilda Respublika ta‘lim Markazi qoshida pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Markaz tashkil etildi. “Ta‘lim texnologiyalari”, “Ta‘lim muammolari” kabi jurnallar nashr etila boshlandi, pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha maqolalar “Xalq ta‘limi”, “Pedagogik ta‘lim”, “Ta‘lim va tarbiya” jurnallarida, “Ma‘rifat”, “O‘qituvchilar gazetasi” va boshqa ilmiy-pedagogik nashrlarda bosilib chiqarilmoqda. 1994 yili pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha 1-Respublika ilmiynazariy konferensiyasi o‘tkazildi, ma‘ruzalar va hisobotlar materiallari maxsus to‘plamda chop etildi. Pedagog-olimlar U. Nishonaliyev, N.S. Saidaxmedov, N.N. Azizxodjayeva, Ziyamuxammedov, U. Tolipov, B.L. Farberman va boshqalar Respublikada pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Pedagogik texnologiya tushunchasiga izoh bering.
2. Texnologiya tushunchasining rivojlanishi kimlarga yoki nimalarga bog‘liqligini ikki guruh bo‘lib tushuntiring.

## 5-MAVZU: INNOVATSION PEDAGOGIKA. TA'LIM INNOVATSIYATSIYALARINING MOHIYATI, NAZARIY ASOSLARI VA TURLARI.

### **Reja:**

1. Pedagogik texnologiyaning tasnifi, qonuniyatlari, tamoyillari va mezonlari.

2. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari..

***Tayanch soʻz va iboralar:** modernizasiyalash, ta'lim jarayonini modernizasiyalash, texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologiyalashtirish, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, innovasiya, novasiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, innovatsion jarayon, ta'limiy innovatsion jarayon, ta'limiy innovatsion jarayon bosqichlari.*

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilgʻor yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Mazkur yondashuvlarning mohiyati soʻnggi yillarda umumiy tarzda “modernizasiyalash” tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmoqda. Modernizasiya (ingl. “modern” – zamonaviy, ilgʻor, yangilangan) – obyektning yangi talablar va meʼyorlar, texnik koʻrsatmalar, sifat koʻrsatkichlariga mos ravishda yangilanishi sanaladi. Odatda modernizasiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi. Biroq, ilmfan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli

jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan bosqichga o'tadi. Falsafiy talqinda ifoda etganda miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga aylanadi. ta'lim sohadagi yangilanishlar ham shular jumlasidandir. Ta'lim tizimining modernizasiyasi – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish, ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi Mazkur modernizasiya shaxsni o'qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta'lim tizimining barcha sohalarini to'la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi .

Ta'lim tizimining modernizasiyalashda quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi:

- har bir shaxsning to'laqonli ta'lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta'lim olishning ochiqligini ta'minlash;

- uzluksiz ta'lim tizimida yangi sifat ko'rsatkichlariga erishish;

- yangi ta'lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta'lim tizimida samarali me'yoriyhuquqiy va tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;

- davlat va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi negizida ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;

- ta'lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta'lim jarayoni ishtirokchilari

- talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta'lim muassasalarining rolini oshirish. Barcha davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston sharoitida ham ta'lim tizimini modernizatsiyalashda davlat, jamiyat, mahalliy va ijtimoiy tashkilotlar, yuqori hamda quyi boshqaruv organlarining o'rni va roli, ular o'rtasidagi o'zaro birlik, hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar sanaladi: - elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish; - o'qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o'zaro muvofiqlashtirish; - o'quv hamda mutaxassislik fanlari asoslarining talabalar tomonidan mustaqillik o'zlashtirilishi uchun qulay pedagogik va texnologik shart- sharoitlarni vujudga keltirish

Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Texnologiya (yunon. "techne" – mahorat, san'at, "logos" – tushuncha, ta'limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi

Ta'lim texnologiyasi (ingl. "an educational technology") – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish Ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv

predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi. O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u talabalarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Ta'lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tadbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashning izchil metodi (YuNESKO). O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan namunda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi. Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi

ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30- yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lim) texnika(si)" tushunchasi "o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi. XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obykti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini "texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi. 60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy ta'lim talabalarga muayyan bilimlarni alohida qism hoida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan "Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha

birlashgan Qo‘mita” tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta‘lim o‘zida ta‘lim maqsadlari, ularni o‘zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta‘lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o‘zgartirish majmuasini to‘laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi: Har bir o‘quv fani uning uchun “yadro”, “o‘zak” sanaluvchi axborotlarga ega bo‘lib, ushbu axborotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o‘rganilishi, aniq mutaxassislik bo‘yicha mustaqil bilim olish, o‘zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo‘lida tayanch tushunchalar bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv ma‘lum yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O‘quv fanlarining muayyan yo‘nalishlar tarzda birlashtirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo‘riqishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta‘minlaydi. XX asrning 80-yillarida ta‘lim jarayonini tashkil etish ta‘lim oluvchilarga mavjud fanlar so‘zlarini bir yil ichida oz-ozdan ma‘lumot (bilim) berishdan iborat deb talqin etilgan bo‘lsa, 90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi o‘zlashtirilgan bilimlar negizida muayyan, aniq fan bo‘yicha yangi ma‘lumot (bilim)larga ega bo‘lish uchun qulay sharoitni yaratish jarayoni sifatida e‘tirof etildi. 3. Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili nemis pedagogi A. Disterveg tomonidan XIX asrda iste‘molga kiritilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili talabalarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta‘lim berilishini nazarda tutadi. O‘tgan asrda ta‘lim samaradorligini ta‘minlovchi yetakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e‘tirof etilgan bo‘lsa, bugungi kunda o‘qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo‘lishi

bilangina muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritib bo‘lmasligi barchaga ayon. Mazkur o‘rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediya vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e‘tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar “soha (yoki yo‘nalish)larning o‘ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlaridamda ma‘lum yutuqlarga erisha olishlari” g‘oyasi yetakchi o‘rin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga puxta tayyorlanishi lozim.

4. Ta‘lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug‘aviy jihatdan (yunon. “humanus” – insoniylik, “humanitas” – insoniyat), bir o‘zakka ega bo‘lsa-da, ularning har biri o‘ziga xos ma‘nolarni ifodalaydi. Insonparvarlashtirish ta‘lim muassasalarida o‘rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sosiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, insonparvarlashtirish – inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmati, sha‘ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo‘lsa, insoniylashtirish “barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun” degan g‘oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi. Ta‘lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o‘qituvchi ushbu tamoyilga qat‘iy amal qilishi lozim yoki o‘z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uni jamiyat manfaatlari bilan uyg‘un bo‘lishiga e‘tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagog talabalar faoliyatini avtoritar tarzida

boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalariga sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytsak, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2) o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi. O'qitish jarayonining mazkur ikki jihatini muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi. Ta'limning uzluksizligi tamoyili ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsga uning butun umri uchun asqotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o'n yil mobaynida o'zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o'qituvchining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog yetakchiligini ta'minlagan ta'limdan talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi. Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog'liqligiga asoslanadi.

Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi: a) ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar; b) ular tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar. Bilimlar faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni

amalda qoʻllay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tadbiqiga ega boʻlmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi. Taʼlim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligini bir qator mezonlar bilan aniqlash mumkin. Ular quyidagilardir: - taʼlim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish vazifalarining oʻzida yaxlit as ettira olishi; - oʻzida zamonaviy fan va texnika darajalarini ifodalay olishi; - gʻoyaviy jihatdan talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi; - oʻquv materialining zarur axborotlar bilan toʻliq taʼminlanganligi; - oʻqitish jarayonida rang-barang metod va vositalarni qoʻllash imkoniyatini taʼminlanganligi; - taʼlimning koʻrgazmaliligi va barcha uchun ochiqligini taʼminlash tamoyiliga egaligi; - koʻp funksiyali taʼlim vositalaridan foydalanish va ularni oson ekspluatasiya qilish imkoniyatining mavjuli; - pedagogning talabalarga mustaqil ishlarni samarali tashkil etishga koʻmalashish darajasi Oʻqitish tizimida pedagogik texnologiyalarini samarali qoʻllash pedagogning kasbiy kompetentligiga ham bogʻliq. Shu sababli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan ularning qoʻllanilishiga koʻra ham baholash mumkin. Bunda quyidagi mezonlar muhim ahamiyatga ega: - pedagogning texnologik madaniyatga egaligi; - pedagogning pedagogik texnologiyalarni qoʻllash borasida tajribaga egaligi; - pedagog tomonidan pedagogik texnologiyalarga “ijodiy” oʻzgarishlar kiritilishi va ularning qayta shakllantirilishi; - pedagogik texnologiyalarni taʼlim amaliyotiga tatbiq etishda oʻqituvchi va talabalar oʻrtasida oʻzaro hamkorlik negizida muvaffaqiyatli vaziyatlarning qaror topganligi; - pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismlari oʻrtasidagi oʻzaro

aloqadorlik; - peagogik texnologiyalarning talabalar va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashdagi imkoniyatlarga egaligi; - talabalar o'quv-bilish faoliyatining ijobiy ahamiyat kasb etishi 3. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish asoslari. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan islohotning muhim yo'nalishi sifatida ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishdan e'tirof etildi. Bu jarayonning samaradorligi o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lishquyidagi shartlar asosida ta'minlandi. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko'rinishi bo'lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari Pedagogik vazifaning hal etilishiga o'qituvchi va talaba faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya'ni, ta'lim jarayonini texnologik strukturasi muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi. O'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta'lim jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega. Har bir o'quv kursini o'rganish alohida mavzu va bo'limlarni loyihalash asosida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonini loyihalash – pedagogik faoliyat ko'rinishi bo'lib, u ta'lim jarayonining texnologik tuzilma hama o'qitish natijasini kafolatlovchi metod va vositalar yig'indisiga egaligi bilan tavsiflanadi Loyihalash mahsuli ta'lim jarayonining loyihasi sanaladi. Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta'lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratildi. Ular:

1) ta'lim jarayonining loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlarning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanadi;

2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari o'qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa ko'lami, loyihalash mazmuni, shuningdek, barcha omillar samaradorligiga bog'liq

Ta'lim jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi hamda loyihalash qonuniyatlari loyihalash tamoyillarining nazariy asoslarini ishlab chiqishga, pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llashga zamin tayyorlaydi. Mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonini loyihalashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat. Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari 1. Markazlashtirish tamoyili texnologik jarayonda talabalar faoliyati modelini loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta'lim jarayoni tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta'lim mazmuni va talaba faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini talabalarning ijtimoiy tajriba asoslarini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tashkil etadi. Har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni umumiy ta'lim maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi. Faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan umumiy o'rta ta'lim mazmunini tashkil etuvchi har bir unsur subyekt faoliyatining turlaridan biriga muvofiq kelishi kerak. Subyekt faoliyatining turlari, o'z navbatida, aniq modellar yig'indisi sifatida umumlashgan faoliyat modellari orqali ifodalanishi zarur. Talabalar faoliyati modeli tizimlashtiriluvchi element bo'lib, talabaning yaxlit faoliyati mazmunini aniqlashga xizmat qiladi. Markazlashtirish tamoyili loyihalashni quyidagi tartibda amalga oshirishni

talab etadi: faoliyat modellarini maqsadga muvofiq yaratish, ularni talabalar tomonidan o'zlashtirish usullari, vositalarini tanlash, o'quv faoliyatini boshqarish usullarini asoslash. Refleksivlik tamoyili subyektning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi. Loyihalash jarayonida o'qituvchiga doimo ta'lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, talabalarning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, ularni to'ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlari, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Refleksivlik tamoyili yaratiladigan ta'lim jarayonining loyahasini ta'lim jarayoni ishtirokchisi – subyektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzluksiz tuzatib, to'ldirib borishni talab etadi. Natijaviylik tamoyili pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik- ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operasiyalar, ularni o'zlashtirish, boshqarish uslublarini tanlash, o'quv faoliyatining muvofiqligi, ta'lim-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda subyektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim. Ko'p omillilik tamoyili. Har bir ta'lim jarayoni bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida amalga oshadi. Ular sirasiga o'qituvchi va talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, ta'lim muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o'quv muassasasining o'quv-moddiy bazasi, o'qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, ta'lim muassasasi yoki ma'lum sinfdagi ma'naviy-psixologik muhit, talabalarning o'quv imkoniyatlari, sinfning intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi ana shu omillarni hisobga olishi zarur.

Talaba shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yganidan boshlab uning faoliyat ko'lami kengayadi. Bu kabi faoliyat ko'nikmalarini egallashi natijasida ijtimoiy tajribaga ega bo'lib boradi. Shuning uchun ta'lim jarayonining samarali bo'lishi, uni loyihalashda ta'lim mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni talabalar kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta'minlanishi zarur. Ayni vaqtda umumiy ta'lim muassasalarida shaxsni rivojlantirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirish muayyan qonuniyatlarga muvofiq psixolog va sosiologlarning ishtiroklari asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili. Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim jarayonini samarali, talabalarning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini beradi. Tamoyilning mazmuni ta'limni ijtimoiylashtirish, talabalar tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishi bilan izohlanadi. Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo'lini tanlaydi. Loyihalashda talabani o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim shakli, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur. "Pedagogik texnologiya" tushunchasi esa o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihati, ya'ni, ta'lim hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur. Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga

nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish – aniq maqsad va ijtimoiy g‘oyaga asoslanib, talabalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi Ta‘lim jarayonidan farqli tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig‘ida ko‘ra olish imkoniyati yo‘q. Tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, talaba va o‘qituvchi o‘rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas‘uliyatli yondoshish zarurligini taqozo etadi.

Zamonaviy sharoitda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarning o‘tkazilishiga rasmiyatchilik nuqtai nazardan voz kechish maqsadga muvofiqir. Zero, tayyor ssenariy asosida muayyan tadbirni tashkil etish jarayonida uning asosiy subyektlari bo‘lgan talabalar faol ishtirokchi, tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi sifatida qatnashadi. Bu holat esa bir qator salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Xususan: 1) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi;

2) talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlikqobiliyatining tarbiyalanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi;

3) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta‘minlashga yo‘naltirilganligi haqida emas, balki sinfning ta‘lim muassasasi jamoasi oldida “soxta obro‘” orttirishi uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi xulosaning shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi

Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etishga texnologik yondashuv quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi: - tadbir

mavzusi va g'oyasini talabalar tomonidan bildirilgan shaxsiy tashabbuslar, ularning xohish-istaklariga ko'ra belgilash; - tadbir ssenariysini ishlab chiqishda talabalarning mustaqil faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish; - tadbir mazmunida o'z ifodasini topgan rollarning majburiy tarzda emas, balki talabalarning layoqati, qobiliyati, shuningdek, qiziqishlarini inobatga olish asosida taqsimlanishiga erishish; - tadbirning tashkil etilishi va o'tkazilishida o'qituvchining roli buyruq berishdan iborat bo'lmay, aksincha, talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning faoliyatini yo'naltirib turish hamda zarur o'rinlarda maslahat berish sifatida aks etishiga erishish; - tadbir maqsadining natijalanganligini sinf, guruh talabalarining faol ishtirokiga tayangan holda muhokama qilish Muhokama jarayonida o'qituvchi tomonidan turli tanbehlarining berilishiga yo'l qo'ymaslik, aksincha yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning talabalarning o'zlari tomonidan aniqlanib, ularni bartaraf etish (keyingi tadbirni o'tkazish jarayonida ularning takrorlanishini oldini olish) yo'lida chora-tadbirlarni belgilash muhim ahamiyatga ega. Talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga texnologik yondashuv mohiyati talabalar mustaqilligini ta'minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga e'tiborni qaratishni ham taqozo etadi: - talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag'batning mavjudligi; - talabalarning tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil etish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari; - tadbir g'oyasining talabalar ichki ehtiyojlariga mos kelishi. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi: 1) tadbir mavzusiga doir materiallarni yig'ish;

- 2) tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash;
  - 3) tadbirning mazmunini ishlab chiqish;
  - 4) tadbir shakli, metodlari va vositalarini tanlash;
  - 5) tadbirni tashkil etish va o‘tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash;
  - 6) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish;
  - 7) talabalar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini norasmiy (ularni bu maqada xabardor qilmasdan) baholash;
  - 8) loyihani amaliy faoliyatda qo‘llash;
  - 9) tadbirni tashkil etish jarayoni;
  - 10) tadbirning o‘tkazilish holatini muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish
4. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari.

Lug‘aviy jihatdan “innovasiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. “Innovasiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Innovasiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovasiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovasiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi

Bu o‘rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining

ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi. Amerikalik psixolog E.Rodjers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan. Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovasiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim innovasiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta'lim innovasiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979 yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan. Ta'lim innovasiyalari bir necha turga ajratiladi Ta'lim innovasiyalarining asosiy turlari Innovasiyalar turli ko'rinishga ega. Quyidagilar innovasiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi: - yangi g'oyalar; - tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar; - noan'anaviy yondashuvlar; - odatiy bo'lmagan tashabbuslar; - ilg'or ish uslublari Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovasiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovasiyalarning har

qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novasiya", "innovasiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novasiya deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovasiya deb ataladi Ilmiy adabiyotlarda "novasiya" hamda "innovasiya" tushunchalarining birbiridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e'tirof etishicha, "yangi", "yangilik" tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalarini o'zida aks ettiradi.

Yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra novasiya va innovasiya o'rtasida muayyan farqlar mavjud.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar

tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbqiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan. Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi. V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi. Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi. Xususiy yangilik munosabat, obyekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi. Subyektiv yangilik ma'lum obyektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi. Mahalliy yangilik alohida olingan obyekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi. Shartli yangilik esa munosabat, obyekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi. R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif

tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi. Rossiyalik olimlar – A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov va b. esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborni qaratgan.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi: - yangilikni qo'llashga tayyorgarligi; - pedagogik yangiliklarni qabul qilishi; - novatorlik darajasi; - kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi; - ijodkorligi Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida BKMni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. M.Jumaniyozovanning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi: - ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish; - pedagogik tadqiqot metodlarini egallash; - mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati; - tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish; - o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish; - hamkasblar bilan hamkorlik; - fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik; - ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish; - yangiliklarni

izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish V.Slasteninning fikriga ko'ra innovatsion yondashuv quyidagilarga ega bo'lishni ifodalaydi: - ijodiy faollik; - faoliyatga yangilik kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik; - yangicha fikrlash; - yuksak muomala madaniyati Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo'llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlarda

### **Savol va topshiriqlar**

1. Inovvatsion pedagogikaga nimalar kiradi?
2. Ta'lim mohitayining nazariy asoslarini klaster yordamida tushuntiring.
3. Ta'limning nazariy asoslari va mohiyati nima?

## **6-MAVZU: SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI. RIVOJLANTIRUVCHI VA TANQIDIY FIKRLASHGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI.**

### **Reja:**

1. Pedagogik faoliyatni takomillashtirishda bir necha vositalar.
2. Vositalarni innovatsion usullar bilan birlashtirib yondashish.

*Tayanch so‘z va iboralar shaxs, ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va uning turlari, ta’limning innovatsion shakllari, innovatsion metodlar, innovatsion vositalar, o‘quv loyihalari, portfolio, talabalar portfoliosi.*

Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma’lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shartsharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim Bu ta’lim o‘qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha talabaning shaxsiy

imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Bu turdagi ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi. Pedagog ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilaran iborat: - har bir talabani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi; - talabani hurmat qilishi; - talabaning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi; - talabaning xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi; - har bir talabaga tolerant munosabatda bo'lishi; - talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi; - har bir talaba uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi; - talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlariga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish; - talabalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish; - ta'lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o'tkazmaslik; - alohida talabaning kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmaslik; - bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik,

ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash; - aniqlangan sabablar asosida talabaning sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish; - ta'lim jarayonida har bir talaba uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish; - har bir talabaga ta'lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish; - talabaning qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabani ta'lim tizimiga - pedagog sifatida har bir talabaning hurmati va ishonchini qozona olishi moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turagi ta'lim talabalarni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Talabalar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yonashishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Xususan: - muammoli izlanish; - kichik tadqiqotlarni olib borish; - debat; - bahs-munozara; - evristik suhbat; - kichik guruhlarda ishlash va b.

Mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining talabalar bilim, ko'nikma, malaka va

tajribalariga tayangan holda ularni qiziqтира oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratishlari zarur.

Ta‘lim jarayonida pedagoglar tomonidan: - turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish; - o‘quv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish; - talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta‘minlash; - mashg‘ulotlarning loyihalashtirilishiga e‘tiborning qaratilishi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, Eng muhimi pedagoglar o‘quv mashg‘ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo‘lishlariga e‘tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarining mustaqil fikr bildirishlariga imkon berish, nima bo‘lganda ham ularni o‘ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo‘natirilgan ta‘limga xos muhim belgilardan biri sanaladi. Ta‘lim jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning yana bir belgisidir: - ijodiy topshiriqlar; - kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar; - muammoli vaziyatlar; - rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari; - bahs-munozara, debat; - musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar Ayni vaqtda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning quyidagi turlari farqlanmoqda (10-rasm): 10-rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning asosiy turlari 2.2. Ta‘limning innovatsion shakllari.

Zamonaviy sharoitda talabalarining o‘quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta‘lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta‘lim, modulkredit tizimi, masofali o‘qitish, blended learning

(aralash o‘qitish) va mahorat darslari ta’limning innovatsion shakllari sifatida e’tirof etilmoqda.

Ayni o‘rinda ta’limning innovatsion xarakterga ega ushbu shakllari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. I. Amaliy o‘yinlar. Dastlab “o‘yin” tushunchasining mohiyatini anglab olish talab etiladi. O‘yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli sanaladi Zamonaviy sharoitda ta’lim amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega o‘yinlardan samarali foydalanilmoqda. Amaliy o‘yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o‘yinlar Ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan amaliy o‘yinlar o‘z-o‘zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko‘p holatlarda “didaktik o‘yinlar” deb yuritiladi. Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o‘yin subyekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o‘qish bilan birga o‘yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinlar vositasida katta avlod tomonidan to‘plangan hayotiy tajriba, o‘zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan.

O‘yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta’lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o‘yinlar qadimqadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bevosita o‘yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. “Maktabgacha yoshdagi bola o‘yin faoliyatida o‘qish va mehnatga

tayyorlanadi. Yosh ulg‘aygan sari o‘yinning roli biroz kamayib boradi.

O‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi” . Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar bolalarda chaqqonlik, epcillik, chidamlilik, qat’iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o‘yinlar ularni o‘ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi. “O‘yin inson hayotining hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o‘yinda va o‘yin orqali bola voqyelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, hulqini, xatti-harakatlarini bilib oladi” . Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lindi. Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hodiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan. Zamonaviy pedagogikada o‘yinlar ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta‘lim oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda qo‘llaniladi: tushuncha, mavzu va alohida bo‘lim mohiyatini o‘zlashtirishda alohida texnologiya sifatida; - pedagogik texnologiyalarning elementi sifatida; - o‘quv mashg‘uloti shakli yoki uning bir qismi sifatida; - sinf (auditoriya)dan tashqari ishlardan biri (“Zakovat”, “Bilimon”, “Huquq fani bilimdoni” va b.) sifatida O‘yinning mohiyati va tuzilishi ma‘lum ko‘nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o‘yin davomida shakllanishini ta‘minlaydi. Ta‘lim jarayonda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishda o‘qituvchi pedagogik vazifalarini ssenariyda aniq ifodalay olishi zarur. O‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, o‘zining

hayotda o'rnini belgilash, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishan iborat asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi hamda o'yin jarayonida shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O'quv faoliyatining asosiy motivi – bu o'quv-bilish motivi bo'lsa, o'quv faoliyatining eng muhim motivasiyasi esa talabada o'zi tanlangan va asoslarini o'zlashtirayotgan kasbga bo'lgan qiziqishi sanaladi. Talaba o'quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy jihatdan qoniqa olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o'qitish jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O'yinli texnologiyalari, shuningdek, talabalarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o'stiradi. Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o'yinlar o'yin texnologiyalari deb nomlanadi. O'yin texnologiyalari – ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan biri O'yin texnologiyalari ta'lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqyelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko'nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari sifatida turli rollarni bajarish o'quvchilarga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi.

O'quv mashg'ulotlaridan o'yinlar va o'yinli vaziyatlarni qo'llash quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: -

didaktik maqsad talabalar oldiga o‘yinli topshiriq shaklida qo‘yiladi; - o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysundiriladi; - didaktik o‘quv materialdan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi; - o‘quv faoliyatida didaktik vazifani o‘yin vazifasiga aylantiruvchi musobaqa elementi qo‘llaniladi; - muvaffaqiyatli bajarilgan didaktik topshiriq o‘yin natijasi sanaladi O‘quv jarayonida o‘yin texnologiyalarining o‘rni, roli, shuningdek, o‘yin elementlari hamda ta’limning o‘zaro uyg‘unligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan pedagogik o‘yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi.

Aksariyat pedagogik o‘yinlar o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi Ta’lim muassasalarida ko‘p holatlarda rolli va kasbiy xarakterga ega ishbilarmonlik o‘yinlari foydalaniladi. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo‘llaniladigan o‘yinli texnologiyalarining asosini talabalarning faollik va tezkorlikka asoslangan faoliyati tashkil etadi. Pedagogik o‘yinlar yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish, mustahkamlash, talabaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko‘nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi.

Ayni o‘rinda o‘yin metodikasiga ko‘ra guruhlangan o‘yin texnologiyalarining mohiyati xususida so‘z yuritiladi.

1. Didaktik o‘yinlar – o‘rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o‘yinlar o‘quvchilar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o‘qish ko‘nikmalarini faol o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o‘yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ulardagi turli psixologik zo‘riqishlarni kamaytiradi.

2. Syujetli o‘yinlar – pedagogik voqyelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan o‘yinlar sanaladi. Bu kabi o‘yinlar odatda pedagogik muammolarning yechimini izlash, ta‘im-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish, shaxsni qayta tarbiyalash maqsadida qo‘llaniladi.

3. Rolli o‘yinlar – ma‘lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan o‘yinlar, ularda rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

Rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari o‘quvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma‘lum hayotiy voqyelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma-malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta‘lim jarayoni ishtirokchilari (m: o‘quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a‘zolari, ta‘lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarning vakillari va b.) sifatida turli rollarni bajarish talabalarga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratasa, o‘quvchilarga ma‘lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy, eng muhimi, ruhiy jihatdan tayyorlanishga yordam beradi.

4. Ishbilarmonlik o‘yinlari – ma‘lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to‘g‘ri, oqilona uyushtirishga doir ko‘nikma, malaka hamda sifatlarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o‘yinlar. Bu turdagi o‘yinlar ta‘lim oluvchilarda aniq faoliyat yo‘nalishida zarur BKM va sifatlarni shakllantirish yoki rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Shu jihatdan ishbilarmonlik o‘yinlari ishlab chiqarish jarayoni, kasbiy faoliyatining modellashtirilishini anglatadi. Ishbilarmonlik o‘yini talabalarda kasbiy sifatlarni hosil qilish bilan birga

shaxsiy sifatlarni ham tarbiyalaydi, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

5. Imitasion o'yinlar – ishlab chiqarish korxonalarini, ish o'rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo'naltiradigan o'yinlar. Bu turdagi o'yinlar ssenariyasi, syujetidan tashqari, imitatsiya jarayon, obyektlarning tarkibiy tuzilmasi va ahamiyatini to'la ochib berish maqsadida modellashtiriladi. Imitasion o'yinlar jarayonida ta'lim oluvchilar muayyan operatsiyalarni, m: masalalar yechish, ma'lum bir usulni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

6. Dramatik o'yinlar – psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar bo'lib, ular tashkil etilishi, metodik xususiyatlariga ko'ra rolli va ishbilarmonlik o'yinlariga yaqin. Odatda psixologik va ijtimoiy xarakterdagi dramatik o'yinlar jamoadagi muhitni yaxshilash, shaxslararo munosabatlarning ijobiy bo'lishiga erishish, muloqotga kirisha olish, jamoada yagona birlikni qaror toptirish, o'zgalarning ruhiy holatini to'g'ri baholash, og'ir vaziyatlarga uch kelgan subyektlarga yordam ko'rsatish hamda samarali, unumli faoliyat ko'rsatish uchun zarur sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Barcha o'yinlarda bo'lgani kabi pedagogik o'yinlar jarayonida ham ishtirokchi-talabalar faol holatda bo'ladi, sheriklari bilan o'zaro munosabatga kirishadi, shuningdek, o'z qarashlarini sheriklariniki bilan taqqoslash, jamoa bilan zarur munosabatni o'rnatish orqali o'zini o'zi o'rganadi.

Pedagogik jarayonda o'yinlardan foydalanishda ayrim jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Jumladan: - o'yin ssenariysini tayyorlash; - yo'riqnomalar tuzish; - auditoriyani o'yin mohiyatiga muvofiq jihozlash Ssenariy va uning mohiyati muhim ahamiyatga ega. Zero, aynan ssenariygina

tegishli ta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish imkoniyatini ta'minlaydi. O'qituvchilar o'yin ssenariylarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratishlari, ssenariyni tayyorlash malakasiga ega bo'lishlari zarur. Pedagogik xarakterdagi o'yinlarning tarkibiy tuzilmasi quyidagilardan iborat: - o'quv maqsadi; - o'yinning vazifasi; - o'rganiladigan muammo tafsiloti; - o'yin vaziyatining tafsiloti; - ishtirokchilarning tasnifi Ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalari qo'llash quyidagilarga asoslanadi: - guruhni shakllantirish; - mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash; - muammoli vaziyatni vujudga keltirish; - rollarni taqsimlash, - o'yin reglamentini o'rnatish; - materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish; - maslahat berish O'yin texnologiyalarini qo'llashda rollar qur'a tashlash yo'li bilan taqsimlanadi. Bunda rollar nomi yozilgan kichik qog'ozchalarda foydalanish mumkin. Rollarning talabalar o'rtasida qur'a asosida taqsimlanishi kelib chiqish ehtimoli bo'lgan noroziliklarning oldini oladi.

O'yin jarayonida belgilangan vaqt (reglament)ga, muloqot odobiga rioya etish, faollik ko'rsatish hamda o'yinni oxirigacha davom ettirish kutilgan natijani kafolatlaydi. Shuningdek, quyidagi omillar pedagogik maqsadlarda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi: - o'yin ssenariysining puxta tayyorlanganligi; - o'yin maqsadi va vazifalarining to'g'ri, aniq belgilanishi; - o'yin qoidalarining aniq, lo'nda ifodalanishi; - o'yin yo'riqnomasining mavjudligi; - talabalarining o'yin jarayoniga qiziqishlari; - rollarning samarali, to'g'ri taqsimlanishi; - jamoada ko'tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi; - ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari va qo'llab-quvvatlashlari; - har ishtirokchining o'yin natijasi uchun mas'uliyatni his etishi; - barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo'naltirilishi

O‘yin jarayonida hych kim halaqit qilmasligi kerak. Bordi-yu, zaruriyat bo‘lsagina faqat boshlovchi ishtirokchilarning harakatlarini tuzatishi, ularni to‘g‘ri yo‘naltirishi mumkin. Har qanday jarayon singari o‘yin yakunida uning tashkil etilishi, o‘tkazilishi yuzasidan muhokama o‘tkazilishi zarur. Muhokama chog‘ida o‘yin ishtirokchilari, tomoshabin ekspertlar o‘yinning tashkil etilishi va o‘tkazilishi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalari, takliflarini bildiradi. Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi: - taqrizchilarni chiqishlari; - fikrlar almashinuvi; - ishtirokchilarning o‘z qarorlari va xulosalarini himoya qilishlari; - o‘yinga yakun yasash

Pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan o‘yinlar subyekt faoliyatini taqozo etadigan hamda mashina o‘yinlari tarzda farqlanadi.

Muammoli ta‘lim ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli ta‘lim – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma‘lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim Bu turdagi ta‘limning ilk g‘oyalari amerikalik psixolog va pedagog J.Dyui (1859-1952 yy.) tomonidan asoslangan. U 1894 yilda Chikagoda o‘qitish o‘quv rejasi bo‘yicha emas, balki o‘yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan. J.Dyui muammoli ta‘lim asosi sifatida quyidagi yo‘nalishlarni 1) so‘z; san‘at asarlari; texnik qurilmalar; 2) o‘yinlar; mehnat

O‘tgan asrning 60-yillarida muammoli ta‘lim L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.L.Rubinshteynning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g‘oyasi muammoli ta‘limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan. Muammoli ta‘limning bir necha

turlari mavjud. M: M.N.Skatkin o‘z ishlarida muammoli ta‘limning quyidagi turlari borligiga urg‘u beradi

Aslida esa ular birbiridan farq qiladi. Muammo (yunon. “to‘siq”, “qiyinchilik”, arab. “jumboqli”, “sirli”, “tushunilishi qiyin”) – hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masala Mohiyatiga ko‘ra muammo uni keltirib chiqargan sabablarni o‘rganish, uni hal etishda ahamiyatli, samarali bo‘lgan yo‘l, metod va vositalarni izlash, ularning samarali ekanligini asoslovchi dalillarni to‘plash, dalillarni yangicha, yangi tahlitda izohlash asosida hal qilinadi. Pedagogika sohasida ko‘p holatlarda “muammo” tushunchasi tashkiliy- pedagogik, psixologik, ta‘limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishda qo‘llaniladi. Soha nuqtai nazardan pedagogik jarayonda quyidagi xarakterdagi muammolarga murojaat qilinadi: - didaktik xarakterdagi muammo; - amaliy xarakterdagi muammo; - ilmiy-metodik xarakterdagi muammo; - sof ilmiy xarakterdagi muammo

Ma‘lum bilimlar, noma‘lum bilimlar va mavjud tajriba muammoning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma‘lum bo‘lgan pedagogik xarakterdagi masala Ta‘lim jarayonida muammoni qo‘yish bir necha sathda kechadi.

Muammoni qo‘yish darajalari Ta‘lim jarayonida masalani qo‘yishda mavjud shart-sharoitlarni aniqlashda muammo fundamental asos sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quv materiallari mazmunini o‘zlashtirishda muammoning qo‘yilishi va hal etilishi quyidagi bosqichlarda kechadi (16-rasm): 16-rasm. Muammoni qo‘yish va hal etish bosqichlari Pedagogik jarayonda talaba “muammo”ga emas, balki muammoli vaziyatga ro‘para qilinadi. Muammoli vaziyat – talabalarning ma‘lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan

ziddiyatni anglashi bilan bog‘liq ruhiy holati bo‘lib, u hal etilayotgan masala bilan bog‘liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi. Darhaqiqat, muammoli vaziyat deganda talabaning hozirda yoki kelgusida ta‘lim maqsadiga erishishi uchun xavf tug‘diraigan vaziyat tushuniladi. Muammoli vaziyatni hal qilish bir necha bosqichda kechadi.

Muammoli ta‘limning asosi bo‘lgan bosqichlari Pedagogikada muammoli vaziyat metodi ham qo‘llaniladi. Muammoli vaziyat metodi – talabalarni muammoli vaziyatga to‘qnash kelishini ta‘minlash asosida uning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish va ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo‘l Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning yechimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat. Ta‘lim jarayonida muammoli vaziyat metodi qo‘llanilganda talabalarning faoliyatlari quyidagi tizim asosida tashkil etiladi

Muammoli vaziyat metodiga asoslangan talabalar faoliyati “Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi talabalarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta‘lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda talabalar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadi. “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi quyidagicha: - muammoli vaziyat tavsifini keltirish: - talabalarga kichik guruhlariga bo‘lish; - guruhlar tomonidan muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarining aniqlanishi: - guruhlarning muammoli vaziyatning oqibatlari to‘g‘risida fikr yuritishi; - guruhlar tomonidan muammoli vaziyat yechimi borasidagi

variantlarning asoslanishi; - variantlar orasidan to'g'ri yechimning tanlanishi; - guruh tomonidan yechimning bayon etilishi; - jamoada yechim yuzasidan muhokamaning tashkil etilishi Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat metodini qo'llash quyidagi tartibda kechadi:

Muammoli vaziyatni yechishda quyidagi usullar qo'llaniladi: - muammoni turli nuqtai nazardan o'rganish va tahlil qilish; - mavjud dalillarni solishtirish va umumlashtirish; - qo'shimcha dalillarni aniqlash va ularni o'zaro qiyoslash; - muammo bilan bog'liq xulosalarni chiqarish; - talabalarning mustaqil ravishda muammoni qo'yishlari Muammoli vaziyat metodi quyidagi afzalliklariga ega: - talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi; - talabalar muammoning sabab, oqibat va yechimlarini topishni o'rganadi; - talabalarning bilim va qobiliyatlarini - baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi; - talabalar fikrlar va natijalarni tahlil qilishni o'rganadi Ta'lim jarayonida ushbu metodni qo'llashda ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanai. Ular: - ta'lim oluvchilarda yuqori motivasiya talab etiladi; - qo'yilgan muammo talabalarning bilim darajasiga mos kelishi kerak; - ko'p vaqt talab etiladi Mohiyatiga ko'ra muammoli ta'lim muayyan texnologiyalarga asoslanadi. Muammoli ta'lim texnologiyalari – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari Muammoli ta'lim texnologiyalari talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ushbu texnologiyalarning asosiy g'oyasi – shaxsni fikrlashga, muammo mohiyatini tushunish, muamoli vaziyatni hal qilishga undash, unda muammoni his qila olish, yechimni topish yo'lida tadqiqot olib borish va muammoni hal qilish

qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlash sanaladi. Ushbu ta'lim texnologiyasi juda qadimdan shakllangan. Qadimgi Gresiyada Suqrot tomonidan qo'llanilgan usul, qadimgi Hindiston, Xitoy, Movarounnahrda qo'llanilgan bahs-munozalar. Zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan muammoli ta'lim texnologiyalari 1894 yilda amerikalik psixolog va pedagog J.Dyui tomonidan (Chikago tajriba maktabida) asoslangan. Bu turdagi ta'lim texnologiyalarining quyidagi shakllari mavjud: - muammoli bayon; - muammoli ma'ruza; - evristik suhbat; - muammoli namoyish; - izlanishga asoslangan amaliy mashg'ulot; - ijodiy topshiriq; - xayoliy muammoli tajriba; - muammo farazlarini shakllantirish; - masalalarni muammoli yechishning optimal variantlarini tanlash; - muammoli vazifa; - muammoli o'yin

Ta'lim tizimida muammoli ma'ruza muammoli ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan o'qitish shakli sanaladi. Shu sababli o'qituvchilar ularni to'g'ri tanlashga e'tibor qaratishlari zarur. Quyidagilar muammoli ta'limning asosiy metodlari sanaladi

Muammoli ta'lim metodlari III. Interfaol ta'lim ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida e'tirof etilayotgan ta'lim turi va o'qitish shakli sanaladi. Interfaol ta'lim (ingl. "interact", rus. "interaktiv"; "inter" – o'zaro, "act" – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim

Mohiyatiga ko'ra interfaollik talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham

suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi

An’anaviy ta’limga asoslangan suhbat Interfaol ta’lim o‘qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – talaba – talabalar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi. Interfaol ta’limda suhbat quyidagi shaxslar o‘rtasida tashkil etiladi

Interfaol TT mohiyatiga ko‘ra suhbatning “talaba – axborotkommunikasion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini anglatadi. O‘qituvchi interfaol ta’lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi.

Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar Odatda interfaol TTga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: - individual; - juftlik; -

guruh; - jamoa bilan ishlash Interfaol TTni qo'llash jarayonida talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi: - guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash; - tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hyech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish; - muammoni hal qilishga ijodiy yondashish; - guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish; - o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish; - fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash; - o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash; - o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish; - turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish Interfaol ta'lim muayyan belgilarga ega. Quyidagilar interfaol ta'limga xos asosiy belgilar sanaladi

Barcha ta'lim turlari kabi interfaol ta'lim ham ustuvor tamoyillarga ega: 1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi. 2. Guruhning tajribasi pedagogning tajribasidan ko'p. 3. Talabalar yosh, ijtimoiy mavqye va tajribaga ko'ra o'zaro teng. 4. Har bir talaba o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega. 5. Mashg'ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi. 6. Bildirilgan g'oyalar talabalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi Interfaol ta'lim quyidagi imkoniyatlarga ega: - talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi; - ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi; - har bir talabaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; - o'quv materialining puxta o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi; - talabalarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi; - talabalarda mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi; - talabalarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi; - talabalarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi Ta'limni tashkil etishga interfaol

yondashuvni qaror topshirish uchun pedagoglar bir qator shartlarga rioya eta olishlari zarur.

Ular: 1. Ta'lim jarayoniga jamoadagi barcha o'quvchilarning to'la qamrab olinishi. 2. Talabalarning mashg'ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish. 3. Talabalar sonining ko'p bo'lmasligi (25-30 nafar o'quvchi bilan kichik guruhlarda ishlash samaralidir). 4. O'quv xonasining jihozlanishi (stullar doira, archa, "Jonli liniya" kabi shakllarda joylashtiriladi). 5. Topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarining ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi. 6. Talabalarning kichik guruhlariga mohirona birlashtirilishi (har bir guruhda faol, nofaol talabalarning teng miqdorda bo'lishi)

Izoh: Stullar kichik va katta doira shaklida joylashtirilganda kichik doirada talabalar, katta doirada ekspert guruhi joylashadi. Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida interfaol ta'limning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum. Interfaol ta'limning asosiy shakllari Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blis-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b.

2. Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotasiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k.

3. Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b.

Interfaol ta'lim bevosita interfaol metodlari yordamida tashkil etiladi.

Binobarin, yuqorida aytib o‘tilganidek, insoniyatning omon qolishi va rivojlanishda davom etishining yagona chorasi irqiy, etnik, diniy ziddiyatlarga barham berish va o‘zaro birlik, hamkorlik, hamjihatlikka erishishdir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab barcha sohalarda bo‘lgani kabi oliy ta‘lim tizimida ham xalqaro hamkorlikka erishish, oliy ma‘lumotli, malakali kadrlarni tayyorlashga yagona yondashuvni qaror toptirish yo‘lida amaliy harakatlar olib borilmoqda. 1954 yilning 19 dekabrda qabul qilingan Yevropa kengashining Yevropa madaniyati konvensiyasi ham dastlab mazkur mintaqa davlatlari miqyosida oliy ma‘lumotli, malakali kadrlarni tayyorlashga nisbatan yagona yondashuvning qaror topishi uchun zamin tayyorlagan edi. Hozirda esa u jahonning ko‘plab mamlakatlari universitetlari faoliyatining o‘qitish tizimida yagona malakaviy talablar asosida tashkil etilishida muhim hujjat bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur Konvensiya g‘oyalari Yevropa hududida shaxs tafakkurini shakllantirishda ko‘p tillikka asoslanish uchun zarur shart-sharoitlarni hosil qilishdan iborat edi. Konvensiyani imzolovchi tomonlar o‘z hududlarida fuqarolar tomonidan Yevropa hududida mavjud bo‘lgan tillar, turli millatlarning tarixi va rivojlanish taraqqiyotini o‘rganish hamda o‘z hududida boshqalarga o‘z tili yoki boshqa tillarni o‘rgatish imkoniyatini yaratib berish lari zarur edi.

## 7-MAVZU: MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI

### Reja:

1. Muammoli o'qitish mohiyati, vazifasi.
2. Muammoli vaziyat turlari
3. Muammoli texnologiyani amalga oshirish omillari

*Tayanch so'z va iboralar:* pedagogika, vosita, innovatsiya, usul, ijtimoiy yondashuv, izlanuvchilik, an'ana, mahalliy, mikromahalliy, muammo, texnologiya.

Muammoli ta'lim 1894 yilda amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj. Dyuri (1895-1925) tomonidan asos solingan. U Chikagoda eksperimental maktab tashkil etar ekan, talabalarning qobiliyatlarini o'rganib, ularni to'rt guruhga ajratadi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy, tadqiqotchilik.

*Tadqiqotchilik xususiyatiga ega bo'lgan* bolalarga tadqiqot olib borish, muammolarni yechimini topish, amaliy tajribalar o'tkazish asosida ta'lim uyushtiriladi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga o'zlari mustaqil ravishda javob topishga harakat qiladilar. Bunday yondashuv juda yaxshi natijalarni ko'rsatdi.

Bugungi kunda muammoli ta'lim tushunchasi ostida o'quv jarayonida o'qituvchi tomonidan vujudga keltiriluvchi muammoli masalalarga yechimini topish va o'quvchi-talabani faol ijodiy mehnati tushuniladi. Muammoli vaziyatlarni yechimini topish talabalarda mustaqil fikr yuritish, ish jarayonida vujudga keluvchi turli muammolarni yechimini tez topish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham fan–texnika tez rivojlanayotgan va bilimlarimiz tez o'zgarayotgan

bir davrda muammoli ta'lim masalasi dolzarb bo'lib bormoqda.

Bugungi kunda olimlarimiz miyaning ishlash mexanizmlarini o'rganar ekanlar quyidagi xulosalarga kelmoqdalar:

Miya hujayralari son jihatidan doimo bir xil bo'ladi, ammo ularni mashq qilish orkali, aqliy mehnatni bajarish orqali miya hujayralarining sifatini o'zgartirish mumkin. Yoshlikda miya hujayralari mashqqa beriluvchan bo'ladi. Agar besh yoshgacha bola ikki tilni o'rgansa, ya'ni miya faol ishlasa, kelajakda u iqtidorli bolalar qatoriga qo'shilish imkoni bir necha barobar ortadi. Agar 15 yoshgacha uch tilni o'rgansa, unda bu bolaning miyasini ishlash samarasi yanada ortadi. Biz bilamizki, bugungi kunda inson miyasining o'rtacha 0,5% imkoniyatidan foydalaniladi. Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi ba'zi olimlar miyaning 10% imkoniyatidan foydalanadi. Olamshumul kashfiyotlar qilgan buyuk insonlar miyasining 15-20 % imkoniyatidan foydalangan.

Miyaning faol ishlashi nafaqat aqlni o'tkirlashtiradi, balki shaxsning salomatligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Miya faol ishlaganda o'zidan kuchli quvvat ishlab chiqaradi va bu quvvat organizmni energetik holatiga ta'sir ko'rsatadi va biologik jarayonlarni borishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Aqliy faoliyat organizmda biologik qarish jarayonini sekinlashishiga yordam beradi. Chunki miya faol ishlagach, ruhiyatda yangilanish sodir buladi, bu esa jismoniy tanada o'z aksini topadi. Demak, muammoli ta'limni joriy etish tarbiyalanuvchilarni nafaqat aqlini, balki butun jismini tarbiyalaydi.

Bugungi kunda kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarni aynan muammolarni hal etishga, masalaning yechimini mustaqil topishga o'rgatish dolzarb masala ekanini

bilamiz. Chunki bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib borar ekan, mavjud bilimlarimiz tez-tez yangilanib boradi. Bu holat bizdan faqat fundamental bilimlarni tushunib o'rganishni emas, balki fikrlash refleksini rivojlantirishni ham talab etadi.

Muammoli ta'lim tizimi aynan ana shu fikrlash refleksini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, aqliy faoliyatni faollashtiradi. Ma'lumki aqlning uch turi ajratiladi:

1. **Konseptual aql** – hodisalarning mantiqiy, matematik, lingvistik masalalarini yaxshi hal qilish imkonini tug'diradi.

2. **Estetik aql** – hodisalarning shaklini bilishga intilish, lekin har doim ham ularning sabablari bilan qiziqmaslik.

3. **Ijtimoiy aql (sosal)** – asosiy diqqat shaxslararo munosabatlarda jamlangan bo'ladi, shuningdek inson taqdiri, maqsadlar va qadriyatlar bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda alohida o'rin egallaydi.

Muammoli ta'lim ham ana shu aqlning qay birini rivojlantirishga qaratilganligi bilan bir-biridan farq qilishi mumkin. Lekin ta'lim jarayonida biz ko'pincha konseptual aqlni rivojlantirishga intilamiz. Bu borada ko'plab pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilgan, ammo ijtimoiy aqlni rivojlantirishga juda kam e'tibor qaratiladi. Agar ijtimoiy aql jamiyatni rivojida juda katta ahamiyat kasb etishini eslasak, bu kechirib bo'lmas kamchilik ekanini anglab yetamiz.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;

2. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
4. O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda talabalarga bayon etish.

Oliy o'quv yurtlari ta'lim jarayonida salmoqli o'rin egallagan muammoli (aqliy hujum) dars, munozarali (ilmiy munozarali va erkin fikrlash) darslari muammoli ta'lim texnologiyasiga misol bo'la oladi. Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, talabalarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasligi, ya'ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi.

Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi:

- o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;

- mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilishi;

- talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

- talabalar uchun noma'lum yangilik mavjudligi;

- muammolarni o'zlari hal etishlari;

-shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni o'zlari o'rganishga harakat qilishlari;

- nima noma'lum ekanligini bilib, ma'nosini tushunib, uni hal etishga intilish kabilar.

Yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib fikr yuritish, talabalarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirishning muhim talablaridandir. Bunday fikr yuritish talabani shu narsani anglay olmaganligini tushunib yetib, bu gapning ma'nosiga jiddiy ravishda e'tibor berishga qaratadi.

Muammoli ta'limni tashkil etish va olib borishda o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiya berishdagi faoliyatini aniq tushunib, yetishi ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi talabalarga tayyor fikr bermay, balki ularning izlanishiga to'g'ri yo'nalish berishi lozim. Talabalar mashg'ulotlarda va kundalik hayotda uchraydigan voqeya, xabar, hodisa va turli dalillarni o'zlari tahlil qilib, mustaqil fikrga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yishlari kerak. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi muammoli ta'lim, talabalarning izlanish faoliyati, bilim va malakalarni chuqur egallab olishini, tevarak-atrofdagi o'zgarishlarga bo'ladigan qarashiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ham yaratib beradi.

Muammoli ta'lim tizimida talabalar o'quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqati yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, yechimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Demak, buning natijasida talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni qo'yish, yangicha fikrlash yo'llariga o'rganish hamda tafakkurining rivojlanish qobiliyatining shakllanishiga imkon beradi. Talabalar muammoli ta'lim jarayonida o'quv materiallarini muammoli vaziyat sharoitida o'rganishlari,

tegishli ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o'quv masalalarini farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo'llari bilan yechishlari, ta'lim jarayonini o'zlashtirishga aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, talabalar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, talabalar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon muammoli darslarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

1. O'quv muammolarini hal etishda talabalar tomonidan avval o'zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo'llab, yangi bilimlarni egallash ko'nikmalarini;

2. Bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va amalda qo'llash malakalarini;

3. Izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli mashg'ulotda muammoli vaziyat bo'lishi nazarda tutiladi va an'anaviy darsning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi: uy vazifasini tekshirish, maxsus og'zaki mashqlar, talabalar oldiga dars maqsadini qo'yish, yangi o'quv materialini tayyorlash va uni o'rganish, yangi va ilgari o'rganilgan materialni bog'lab mustahkamlash, mashg'ulotni yakunlab, uyga vazifa berish kabilar. Muammoli mashg'ulotlarda yangi o'rganilayotgan qonun-qoidaga oid faktlar to'plash, ularni bir-biri bilan taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o'rganish va mustahkamlash jarayoni parallel ravishda olib boriladi.

Ta'limda muammoli o'qitishning uch sharti mavjud:

1. Muammoli ta'limni tashkil etishda o'quv materiallarini tizimli, tartib bilan rivojlantirish.

2. Vazifa berilganda uni yechish usullarini tanlash imkoniyatini berish.

3. O'quvchi-talaba bilim olishni maqsad qilib qo'yishi va maqsadiga erishishi uchun o'z bilimini to'g'ri baholay olishi.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishda bir qator didaktik maqsadlar ham ko'zda tutiladi, ya'ni;

- talabalar diqqati o'quv materialiga tortiladi;

- talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish;

- ularni o'zlashtirish faoliyatini jonlantirish;

- ularning oldiga aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi masalalar qo'yish;

- talabalar o'rganishi mumkin bo'lgan bilimlar yetarli darajada emasligini dalillarga asoslangan holda ko'rsatish;

- o'quv materiallarini tahlil etishga o'rgatish;

- o'qitishdagi muammolarni hal etishning yo'llarini topishda ularga ko'mak berish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar bir necha turga bo'linadi:

1. Talabalar o'z oldilarida turgan masalaning yechimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o'z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushunishda ancha qiyinchiliklarga duch keladi.

2. Talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo'llay olmaydi.

3. Ularning muammoni nazariy yo'l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

4. Talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o'zlarining nazariy jihatdan tushunib yetishlari o'rtasida bilimlarining yetishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida muammoli o'qitish samarali, maqsadga muvofiq bo'lishi uchun uni o'quv jarayoni, o'quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta'lim yordamida talabalarda o'quv muammolari va mutaxassislik masalalarini yechishga tadqiqiy yondoshish, mustaqil tarzda o'rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

Shunday qilib, muammoli ta'lim talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta'lim muammolarini yecha bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Muammoli ta'lim murakkabligiga ko'ra turli darajada bo'lishi, ya'ni tashkil etilishi mumkin. Bu talabalarning tayyorgarlik darajasiga, bilim darajasiga va fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga bog'liq holda tanlanadi.

*Muammoli ta'limning birinchi darajasi* – o'z holicha vujudga kelib qolgan muammolar bo'lib, turli dars tiplarida va turli vaziyatlarda surunkali holda vujudga keladi va o'z yechimini kutadi.

*Muammoli ta'limning ikkinchi darajasida* – o'qituvchi tomonidan muammo vujudga keltiriladi va talabalar tomonidan yechiladi. Bu holda talabalar muammoni yechish usulini kuzatadilar va passiv holatda bo'ladilar. Ular muammoni yechish malakasi bilan tanishadilar.

*Muammoli ta'limning uchinchi darajasida* – talaba tomonidan muammoli vaziyat tashkil etiladi va muammo o'rtaga tashlanadi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda yechim topiladi. Bunda talabalar faol ishtirok etadilar va ularda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.

*Muammoli ta'limning to'rtinchi darajasida* - muammoli vaziyatni ham, muammoning yechimini ham talabalar o'zlari tashkil qiladilar. Ular mavzudagi mavjud muammoni ko'ra olishga va uning yechimini mustaqil ravishda topa olishga o'rganadilar. Bu muammoli ta'limning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Chunki talabalar ijodiy fikrlashga o'rganadilar. Bu holda talabalar o'ta faol holatda bo'ladilar. O'qituvchi esa kuzatuvchi va ba'zan yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadilar.

Muammoli ta'limni tashkil etishga ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi xohlagan vaqtida uni tashkil etish imkoniga ega bo'lmaydi. Muammoli ta'limni tashkil etish uchun, ayniqsa uchinchi, to'rtinchi darajasida alohida sharoit talab etiladi. Muammoli ta'limni tashkil etish uchun shart–sharoitlar quyidagilardan iborat:

1. Talabalar ma'lum bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va ana shu bilimlardan foydalana bilishi lozim.

2. Talabalar muammoni yechish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

3. Tanlangan mavzu muammoli xarakterga ega bo'lishi talab etiladi.

4. O'qituvchidan mavzuni to'la o'rganish va muammoli vaziyatlarni ishlab chiqish talab etiladi.

5. Talabalar soni chegaralangan bo'lishi lozim.

Muammoli vaziyatlar mazmuniga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi:

1. Maqsad noma'lum – uni aniqlash kerak.

2. Faoliyat obyekti noma'lum – uni aniqlash kerak.

3. Faoliyat usuli noma'lum – uni aniqlash kerak.

4. Faoliyatni bajarish shartlari noma'lum – uni aniqlash kerak.

O'quv jarayonida o'qituvchi muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish uchun ularni tashkil etish texnologiyasi bilan tanish bo'lishi kerak. Albatta bu vazifa mavzuning xarakteridan kelib chiqqan holda bajariladi. Muammoli vaziyatlarni quyidagi turlari bor:

1. Kutilmagan favqulodda – hayratlanarli vaziyat.

2. Nizo vaziyati.

3. Faraz qilish vaziyati.

4. Inkor qilish vaziyati.

5. Nomuttanosiblik vaziyati. (amaliy va nazariy bilimlarning bir-biriga tugri kelmasligi, yoki eski bilimlarning yangi bilimlarga to'g'ri kelmasligi.

6. Tanlash vaziyati.

7. Izlanuvchi va tadqiqot ishlari o'tkazish ham muammoli vaziyatlaridan bo'lib hisoblanadi.

Muammoli ta'lim bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. U talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bu esa bugungi axborotlar oqimi davri uchun o'ta muhim. Fikrlash refleksi, ijodkorlikni va qiziqishni rivojlantiradi. O'zlashtirilgan bilimlarni puxta bo'lishiga yordam beradi. Talabalarni faollashtiradi va kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi. Ammo bu ta'limning bir muncha chegaralanganlik tomonlari ham yo'q deb bo'lmaydi. Muammoli ta'limni tashkil etish va o'tkazish bir muncha ko'proq vaqt talab etadi. Barcha mavzularni bu usuldan foydalangan holda tashkil etib bo'lmaydi. Talabalar soni chegaralanadi. O'qituvchi differensial va individual yondashuvni ishlab chiqmasa, ba'zi passiv talabalar chetda qolib ketadi.

Talabalar muammoli ta'limga tayyor bo'lmasa bu usulda o'quv jarayonini tashkil etish qiyin.

## **8-MAVZU: TA'LIMDA KEYS-STADI TEXNOLOGIYASI. O'QUV-LOYIHAVIY TA'LIMNING ASOSIY TAMOYILLARI.**

### **Reja:**

1. Keys-stadi texnologiyasi haqida tushuncha.
2. O'quv-loyihaviy ta'limning asosiy tamoyillari.

*Tayanch so'z va iboralar: keys-stadi, pedagogika, vosita, innovatsiya, usul, ijtimoiy yondashuv, ta'lim, texnologiya*

“Keys- stadi” yondashish usul deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan usullar tushiniladi. Keys (inglizcha ”casey”-hodisa) hayotda sodir bo'ladigan, aniq muammoli vaziyatning tafsilotidir ”Keys-stadi” bu hodisa va vaziyatlarni tahlil qilish usuli bo'lib, u talabalarga bilim berish yakuniy natija deb qaralmasdan, o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash ta'limning yakuniy natijasi sifatida qaralishi kerakligini anglatadi.

Keys usuli ilg'or pedagogik texnologiya usullari ichida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ishlab chiqarish masalalarini mashg'ulotlarda tahlil qilish va hal qilish imkoniyatini yaratadi hamda undagi muammolarni yechish jarayonida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan o'quv materialini ham ifodalaydi.

Keys manbalari: ta'lim- bunda keys usulini boshqa usullar bilan integrallashtirilgan holda ta'limning maqsadi va vazifalari aniqlanadi; fan – bunda fanga oid turli muammolar keys usulida tahlil qilinadi; amaliy keyslar-bu mutlaq hayotiy vaziyatlarni tasvirlaydi; o'rgatuvchi keyslar-buning asosiy vazifasi ta'lim berishdir; ilmiy - tadqiqot keyslari-ilmiy izlanish faoliyatini tashkil qilishga yo'naltiradi. Amaliy

keyslarning asosiy vazifasi hayotiy vaziyatlarni mufassal va batafsil tasvirlab ko'rsatishdir. Bunday keyslar maksimal ko'rgazmali va yetarlicha to'la yoritilishi kerak. Ishlab chiqarishga oid masalalarni amaliy keyslar orqali hal qilish yuqori samara beradi. Bunday keyslarda o'quv jarayoni ta'lim oluvchilarning treninggi bilan amalga oshirilib, ushbu vaziyat bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, qaror qabul qilish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Keys usuli ishbilarmon o'yin tavsifidagi ta'lim texnologiyasiga yaqin bo'lib, u o'zida o'yinni ijro etish bilan birga, intellektual yuksalish va nazorat malakasini xam mujassamlashtiradi. Talabalarga tavsiya qilinayotgan vaziyatlar haqqoniy yoki shartli, me'yordagi yoki favquloddali, nazoratli yoki nazoratsiz, kritik tavsifga ega bo'lishi mumkin.

Talabalarni vaziyatni tahlil qilishga undash maqsadida uni quyidagi tartibda bayon qilish mumkin: muammoli, tizimli, sabab-oqibatli, tavsiiyanomali, dasturiy-maqsadli, tashhisli. O'quv mashg'ulotlarida keyslarni hal qilish algoritmini tuzishda unga kichik guruhlarda ishlash usulini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Unda o'qituvchi vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki bir vaqtning o'zida barcha talabalar vaziyatga jalb etiladi va baholanadi. Keysning namunaviy algoritmi quyidagicha bo'lishi mumkin: 1. Topshiriqni berish, bajarish muddatini belgilash, yechimni baholash mezonini tushuntirish.

2. Talabalarni mikroguruhlariga ajratish.

3. Mikroguruhlarni nomlash, yetakchilarni aniqlash.

4. Mikroguruhlardagi javoblar bilan tanishishni tashkil qilish.

5. Mikroguruhlararo munozarani tashkil qilish.

6. O'qituvchining umumlashtiruvchi so'zi, uning vaziyat yechimi to'g'risidagi fikri.

7. Baholash natijalariga o'qituvchining fikri va yakunlovchi so'zi.

Keys bilan ishlashni tashkil qilishda variantlar juda ko'p bo'lib, bu o'qituvchining ijodkorlik imkoniyatlariga bog'liq holda tanlanishi mumkin. Biz keys ishini tashkil qilish mumkin bo'lgan darsning yetarlicha umumlashgan modelini tavsiya qilamiz.

Ushbu bosqichning asosiy vazifasi: hamkorlikdagi faoliyat afzalliklarini asoslash, vaziyat muhokamasi ishtirokchilarida tashabbuskorlikni uyg'otish. Bu bosqichda quyidagi ish variantlari bo'lishi mumkin: keys-stadi teksti talabalarda mustaqil o'rganish va savollarga javoblarni tayyorlash uchun dars mashg'ulotlarigacha tarqatib qo'yilishi mumkin. Dars boshlanganda talabalarda keys materiali bo'yicha bilimlarini namoyon qilish va muhokamada ishtirok etishga qiziqish uyg'onadi. Keys asosida yotuvchi asosiy muammo ajratiladi, u fanning alohida bo'limiga tegishli bo'ladi.

Faoliyatni kichik guruhlarda yoki yakka tartibda tashkil qilish mumkin. Talabalar vaqtinchalik kichik guruhlariga ajratiladi, o'qituvchi tomonidan vaqt belgilanadi va talabalar savolga javob topish uchun jamoa bo'lib ishga kirishadilar. Har bir kichik guruhda boshqa guruhlariga bog'lanmagan holda javoblarini solishtirish, ularni tuzatish, yagona fikrni ishlab chiqish va uni taqdimot uchun rasmiylashtirish jarayoni ketadi. Har bir guruhda yetakchi tanlanadi, u yechimni taqdimot qiladi. Agar keys chuqur o'ylab, yetarlicha muammoli va savodli qilib tuzilgan bo'lsa, guruhlarning yechimlar varianti o'zaro mos kelmasligi kerak. Yetakchilar o'z guruhining yechimlarini tavsiya qiladilar va savollarga javob beradilar. Taqdimot nazariy kurs materiallariga asoslangan holda vaziyatni tahlil qilishga bag'ishlanishi kerak. Taqdimot yechimning mazmuni va uni taqdim etish

texnikasiga qarab baholanadi (kichik guruh a'zolari sheriklarining qo'shgan hissalariga qarab o'zlarini o'zlari baholaydilar). O'qituvchi taqdimot va baholash munozaralarini yo'naltirib va boshqarib turadi. 3. Hamkorlikdagi faoliyatni tahlil qilish bosqichi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi, keys bilan ishlashdagi ta'lim va o'quv natijalarini namoyon qilishdir. Bundan tashqari bu bosqichda dars tashkil qilishning samaradorligi tahlil qilinadi, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil qilish muammolari ko'rib chiqiladi, kelgusi ishlar uchun vazifalar qo'yiladi.

### **Savol va topshiriqlari**

1. Keys – stadi texnologiyasini ta'lim jarayoniga bog'lab tushuntiring.
2. O'quv-loyihaviy ta'limning asosiy tamoyillarini sanab bering.

## **9-MAVZU: TALABALARDA PEDAGOGIK QADRIYATLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI MODELASHTIRISH**

### **Reja:**

1. Pedagogik qadriyatlar tizimini rivojlantirish.
2. Pedagogik qadriyatlar tizimini modellashtirishda zamonaviy yondasguv.

*Tayanch soʻz va iboralar: qadriyat, tizim, model, pedagogika, vosita, innovatsiya, usul, ijtimoiy yondashuv, izlanuvchilik, texnologiya.*

Talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish murakkab pedagogik hodisa boʻlganligi sababli qator nazariy-metodologik yondashuvlarga tayanishni taqozo etadi.

Eng avvalo, talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishning nazariy-metodologik asosi sifatida mazkur jarayonda pedagogik sohaning oʻziga xosliklariga doir quyidagi jihatlarni ajratib koʻrsatishga imkon beruvchi tizimli yondashuvning oʻziga xosliklari aniqlashtirildi:

- oʻziga xos tuzilishga va tarkibiy qismlarga ega yaxlit jarayon;

- koʻplab omillarga, shu jumladan, tashqi muhitga bevosita bogʻliqlikda muvaffaqiyatli amalga oshuvchi jarayon;

- pedagogika oliy taʼlim muassasalari talabalari bilan olib boriladigan chora-tadbirlar tizimi sifatida yuzaga chiquvchi jarayon;

- talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning tarkibiy qismini aks ettiruvchi jarayon;

- shartli ravishda ikki:

(a) pedagogika oliy ta'lim muassasalarining o'quv-bilish, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyati;

(b) talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini takomillashtirishi) shaklda amalga oshiriluvchi jarayon.

Mazkur yondashuvning ahamiyatini bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish masalasini yoritib berish orqali yanada, aniqlashtirish mumkin.

Bugungi kunda mutaxassis shaxsini yaxlit tarzda shakllantirishga qo'yiladigan talablar, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya tizimida olib borilayotgan islohotlarda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirish asosiy o'rin egallamoqda. Pedagogik ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning doimiy o'zgarib borishi bo'lak o'qituvchilar faoliyatiga bo'lgan nuqtai nazarining va kasbiy pedagogik madaniyatiga nisbatan qo'yilgan talablarning yangicha o'zgarishiga olib keldi. Hozirgi davrda bo'lajak o'qituvchidan o'z faoliyati, ta'lim-tarbiya qonuniyat, tamoyil va metodlarini chuqur anglash, talabalarning shaxs sifatida shakllanishi va ularning tarbiyasini samarali yo'lga qo'yish – bugungi kunning muhim talabidir.

Ma'lumki, bugungi kunda zamonaviy pedagogika fani metodologiyasi pedagogik jarayonga yaxlit hodisa sifatida qarash, uni bir tizimda joylashuvchi alohida tarkibiy qismlar birligi tarzida tushunishni talab etadi. Pedagogik mahorat ham yaxlit pedagogik jarayonning tarkibiy qismlaridan biri sifatida mazkur jarayonga tizimli yondashuvni talab etadi. Ana shu asosdan kelib chiqib, eng avvalo, “tizim”, “tizimlilik”, “tizimli yondashuv” tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Chunki mazkur tushunchalarni

tadqiqotchilar aksariyat hollarda o‘z tadqiqotlarining metodologik asosi sifatida qayd etadilar.

Tizim (yunoncha systema – yaxlit, qismlardan tarkib topgan, birlashtirilgan) muayyan yaxlitlik, birlikni hosil qiluvchi, o‘zaro ta’sirlashuv va bog‘liqlikda bo‘lgan ko‘plab elementlarni anglatadi. Tizim – tartibli ravishda joylashgan va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan qismlar birligini ifodalovchi yaxlitlikdir.

“Tizim” bu muayyan tahlitda tartibga keltirilgan elementlar to‘plami bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq holatda, muayyan yaxlit birlikni hosil qiladi.

“Tizimlilik” tushunchasini jarayonlar va borliqdagi hodisalarning tizim hosil qila olishi, tizimning mavjudligi, moddiy dunyoning hamda uni bilish shakllarining tizimli qurilishga egaligi kabi holatlarni aks ettira olishi to‘g‘risidagi xulosaga kelish mumkin.

Tizimli yondashuv – ilmiy bilish hamda ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo‘nalishi bo‘lib, uning asosida obyektlarni tizim sifatida qabul qilinishi yotadi. Tizimli yondashuv tadqiqotchini obyekt yaxlitligini ochib berishga, uning aloqalari turli tiplarini aniqlashga hamda ularni yagona nazariy ko‘rinishga keltirishga yo‘naltiradi. Tizimli yondashuvning metodologik o‘ziga xosligi uning tadqiqotlarni quyidagilarga yo‘naltirishi bilan izohlanadi: obyekt yaxlitligini va uni ta’minlovchi mexanizmlarni ochib berish; murakkab aloqalarining turli tiplarini aniqlash hamda ularni yagona nazariy ko‘rinishga keltirish; shuningdek, obyektning yaxlitlik xususiyatlarini, uning tuzilmasi hamda dinamikasini belgilash imkonini beruvchi murakkab obyekt o‘zaro bog‘langan modellarining iyerarxik tizimi to‘g‘risidagi tasavvurlarni amalga oshiradi. Demak, tizimli yondashuvdan kelib chiqadiki, murakkab obyekt (tizim)ning o‘ziga xosligi

uning tarkibiy qismlarining alohida xususiyatlarini inkor etmaydi, aksincha, ma'lum bir tarkibiy qismlar orasidagi aloqa va munosabatlarga doir bog'lanishlarni hosil qiladi.

Yaxlit tizimning asosiy belgilari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Yaxlit tizimning asosiy belgisi aynan tizimiy integral va uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarning jamoaviy sifati (yoki sifatleri)ning mavjudligidir.

2. Yaxlit tizimning ajralmas aloqasi uning tarkibiy qismlari, zero, tizim ulardan tarkib topadi hamda usiz mavjud bo'la olmaydi. Biroq tarkibiy qismlar tasodifiy obyektlarning yig'masi emas. Ular tizim bilan integrasiyalashgan, aynan ushbu tizimning tarkibi hisoblanadi. Tizimning maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash borasida uni tadqiq qilish, loyihalash, tarkibiy qismlarini aniqlashga tizimli-tuzilmaviy yondashuv deb ataladi.

Tizimli-tuzilmaviy (amaliy, asosli) yondashuv obyektning tuzilish xususiyatlarini yaxlit, tarkibiy qismlarga berilgan vaqt oralig'i bo'yicha bo'laklangan holatda qarab chiqishni ko'zda tutadi.

3. Yaxlit tizim – maqsadli tizim, u muayyan maqsadni amalga oshirishga intiladi. Maqsad tizimda uni hosil qiluvchi muhim omillardan biri sifatida yuzaga keladi. Biroq, maqsad unga erishish uchun muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Tizimning muhitda maqsadga erishish uchun amalga oshiradigan harakatlari aynan uning funksiyalarini tashkil qiladi. Funksiyalar maqsadga nisbatan unga erishish usuli sifatida yuzaga chiqadi. Tizimning maqsadga erishish uchun muhitdagi o'zini tutishi nuqtai nazaridan tadqiq qilish va loyihalashga tizimli-funksional yondashuv deyiladi.

4. Har qanday tizim o'zgarmas, barcha davrlar uchun bir xil bo'lib qolmaydi. U absolyut, abadiy emas, chunki

qarama-qarshiliklar mavjudligi unga ham xosdir. Har bir tizim nafaqat faoliyat ko'rsatadi, balki, shu bilan birga rivojlanadi; u o'z ibtidosiga ega, u yaralish davrini o'taydi, tarkib topadi va rivojlanadi. Tizimlar nazariyasida tizimning yashash vaqti uning asosiy tavsifiy belgilaridan biri hisoblanadi.

5. Tizimni uning vaqt bo'yicha rivojlanishi nuqtai nazaridan tadqiq qilish va loyihalash tizimli yondashuv deb ataladi.

Tizimli yondashuv obyektning yuzaga kelishi, yaralishi hamda tarkib topishini tizimli-genezis sifatida belgilab beradi.

6. Har bir tizim o'z navbatida o'zidan yuqori darajada turuvchi metatizimning tarkibiy qismi sanaladi, shu kabi u o'zidan quyi darajada turuvchi tarkibiy qismlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, hych bir tizim boshqalardan izolyasiyalanmagan, balki ko'plab aloqalar bilan boshqa turli tizimiy va notizimiy uyushmalar bilan ta'sirlashib turadi. Tizim o'ziga nisbatan tashqi bo'lgan muhitda harakatda bo'ladi, rivojlanadi, u bilan ko'plab kommunikasiyalar orqali bog'lanadi. Tizimni unga nisbatan mavjud bo'lgan boshqa tizimiy va notizimiy uyushmalar nuqtai nazaridan o'rganishga tizimli-kommunikativ yondashish deb ataladi.

7. Tizimga doimiy ravishda o'zida uning turg'unligini buzishga qaratilgan ta'sirlar ko'rsatib turiladi. Ushbu ta'sir avvalo har qanday tizimning ichida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar oqibatida yuzaga keladi. Shu bilan birga resurslar yetishmasligi, qattiq cheklashlar kabi tashqi salbiy ta'sirlar ham mavjud. Bunga qaramasdan tizim yashaydi va rivojlanib boradi. Demak, tashkil etuvchi qismlarning o'ziga xos yig'masi, ichki tuzilma va boshqalar bilan birga boshqa tizim hosil qiluvchi, tizimni himoyalovchi omillar ham mavjud.

Tizimning yashovchanligini ta'minlovchi ushbu omillarga boshqaruv deyiladi.

Talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishning asosiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda hamda o'qituvchi faoliyatining asosiy tavsifi va natijalariga asoslanib, tizimli yondashuv asosida kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishning to'rt darajasini ajratib ko'rsatish mumkin:

**I. Boshlang'ich – reproduktiv:** 1) kasbiy faoliyat asoslarini amaliy o'zlashtirish; 2) pedagogik vazifalarni nostandart tarzda hal etish; 3) pedagogik faoliyatning barqaror bo'lmagan sifat natijalari. Yetakchi faoliyat – reproduktiv.

**II. O'rta – produktiv:** 1) kasbiy ko'nikma va malakalarni egallash; 2) o'z pedagogik faoliyatida amaliyotda mavjud ta'lim va tarbiya usullaridan foydalanish; 3) pedagogik vazifalarni qisman nostandart tarzda hal etish; 4) pedagogik faoliyatning alohida turlaridagi samarali ko'rsatkichlar. Yetakchi faoliyat – produktiv.

**III. O'rtacha yuqori – produktiv-ijodiy:** 1) bir qator yuqori darajada rivojlangan ko'nikma va malakalar; 2) fanda ma'lum va ilg'or tajribadagi faoliyat usullaridan foydalanish, ta'lim-tarbiyaning yangi shakl va metodlarini izlab topish; 3) pedagogik faoliyatning barqaror sifat natijalari. Yetakchi faoliyat – produktiv-ijodiy.

**IV. Yuqori – ijodiy daraja:** 1) yuqori darajada rivojlangan kasbiy ko'nikmalar tizimi; 2) fan doirasida va yaxlit tarzdagi ijodiy faoliyat; 3) pedagogik faoliyatning nostandart va sifat ko'rsatkichlari; 4) yangiliklarni izlab topishdagi samaradorlik. Yetakchi faoliyat – ijodiylik.

Mazkur darajalarga asoslangan holda, biz tizimli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning uch bosqichli modelini aniqlashtirdik.

<b>Faoliyat bosqichlari</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	<b>Faoliyatni tashkil etish shakllari</b>
Tayyorlov	Shaxsiy va kasbiy qadriyatlar mohiyatini anglash, yangi pedagogik qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritish bilan bog'liq nazariy bilimlarni egallash	Pedagogika oliy ta'lim muassasalari, maxsus kurslar, davra suhbatlari, debatlar, ilmiy konferensiya va seminarlar
Asosiy	Pedagogik faoliyatni shakllantirish va takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik qadriyatlarni kiritish bilan bog'liq bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, izlanish, tajriba-sinov dasturlarini ishlab chiqish, yangilik kiritish jarayonida qo'llaniladigan vositalar, metodlar va ta'limni tashkil etish shakllarini tanlash malakasini takomillashtirish	Muammoli va maqsadli kurslar, ochiq, ko'rgazmali mashg'ulotlar, seminar-treninglar
Yakunlovchi	Pedagogik qadriyatlarning samaradorligini aniqlash, ulardan foydalanish malakasini egallash, yangi pedagogik qadriyatlarni bevosita ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash.	Individual rivojlanish dasturlari, kompyuter dasturlari

Akmeologik yondashuv talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishning ilmiy asosi sifatida mazkur jarayon ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning subyektlari tarzida

namoyon bo'lishlariga asoslanadi hamda ularning subyekt va bo'lajak mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi.

Akmeologik nuqtai nazardan kasbiy-pedagogik qadriyatlar tizimi rivojining tezligi, natijaviyligi, o'ziga xosligini, bundan tashqari qadriyatlarni idrok etish, amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini hamda mazkur jarayonni amalga oshishini ta'minlovchi psixologik mexanizm – refleksiyaning tavsiflash uchun tayanch tushuncha vazifasini bajaradi. N.G.Alekseyev va I.N.Semenovlar amaliy faoliyatni tahlil etish asosida qo'shqatlamli amaliy-yo'naltirilgan bilimlar tushunchasini qo'llashni taklif etishdi.

Innovatsion salohiyat ham o'z navbatida qo'shqatlamli ko'rinishga ega: birinchidan, unda xilma-xil yangiliklar kiritishga kamroq yoki ko'proq bir xil munosabat asosi bor bo'lsa, ikkinchidan, aniq vaziyat bilan bog'liq vaqtinchalik o'zgaruvchan qatlam mavjud bo'ladi. Birinchi qatlamning bosh tavsifi bo'lajak o'qituvchi-kadrlarning ijodiy kasbiy faoliyatga va o'z-o'zini rivojlantirishga qodir ekanligida namoyon bo'lsa, vaziyatli qatlamning asosiy jihati innovatsion salohiyatning bo'lajak o'qituvchilik kasbining o'ziga xosliklari va shart-sharoitlari, ya'ni ishtirokchilarning innovatsion o'zgarishlar natijasiga ijobiy munosabati, yangi muhitni qabul qilishga turli guruhlarining roziligi kabilarga bog'liqlikda ko'rinadi.

I.O.Sorokinaning fikricha, kasbiy ijodkorlikning rivojlanishi xilma-xil qobiliyatlarning aks etishi bilan bog'liqdir. Akmeologik qobiliyatlar – o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish kabilar inson hayotiy faoliyati jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, biroq ularning aynan jadal rivojlanishi autopsixologik kompetentlikning rivojlanishi natijasida sodir bo'ladi.

Shaxsiy autopsixologik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi: 1) umumiy – o‘z-o‘ziga munosabat, o‘z-o‘zini boshqarishga qodirlik; 2) bilishga doir – rivojlanish psixologiyasi va faqat insongagina xos yuqori ong darajasi sifatidagi intellekt; 3) kognitiv – ijodiy faoliyatning akmeologik mazmunida kognitivlik o‘z-o‘zini anglash va kasbiy faoliyatning o‘zaro harakatida aks etadi; 4) kreativ – ijodiy vazifalarni nostandart hal etish yo‘llarini izlab topish, yangi timsollarni tasavvur qilish va yaratish; ijtimoiy-perseptiv – ijtimoiy-perseptivlik akmeologik mazmunda o‘z-o‘zini baholashning shaxslararo o‘zaro harakatida aks etadi; empatiyaga doir – emosional ta’sirga beriluvchanlik; emosional ta’sirlarga moslashuvchanlik.

Model o‘zaro bir-biriga bog‘langan to‘rt tarkibiy qismni o‘z ichiga qamrab oladi: motivasion-qadriyatli; kognitiv; faoliyatli; kreativ.

Modelning otivasion tarkibiy qismi o‘zida quyidagi jihatlarni aks ettiradi:

- 1) bilishga doir va kasbiy motivasiyani o‘zaro uyg‘unlashtirishdagi barqaror ichki ehtiyojning mavjudligi;
- 2) mahsuldor faoliyatga intilish;
- 3) innovatsion jarayonlarga faol ishtirok etish ishtiyoqi;
- 4) o‘z-o‘zini namoyon etish ehtiyoji.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishning muhim omili – kasbiy qiziqishdir. Kasbiy qiziqish o‘zida faoliyatning aniq belgilangan sohasi mazmuniga qiziqishni ifoda etadi. Mazkur jarayonda bilishga qiziqish faoliyatning mavjud shakl va usullarini egallashni rag‘batlaydi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, u yoki bu ijodiy faoliyatga qiziqish unga nisbatan layoqatning hosil bo‘lishi bilan bog‘liq.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishning motivasion tarkibiy qismi ishga ijobiy

ijodiy munosabatni o'z ichiga qamrab oladi. Motivasion tarkibiy qismning tuzilishida kasbiy qadriyatlarga doimiy va yuzaki bo'lmagan qiziqishning mavjud bo'lishi lozim.

Modelning kognitiv tarkibiy qismi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy qadriyatlar hamda kasb sohasiga doir axborotlar bilan muntazam tanishib borish darajasi va sifatini asos qilib olgan. Kognitiv tarkibiy qismning rivojlanishi bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish doirasida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish tizimini ta'minlaydi. Bundan tashqari kognitiv tarkibiy qism o'ta mas'uliyatli ishga e'tiborli, mas'uliyatli munosabatda bo'lish, doimiy tayyorlikni ham qamrab oladi. Kognitiv tarkibiy qism shuningdek, intellektual faoliyat, ya'ni fikrlashning o'ziga xosligi, fikrlash jarayonining tezligi, aqliy harakatlarning tizimlilik, tahlil etish va umumlashtirish imkoniyatlarini oshirish, aqliy faoliyatning yuqori mahsuldorligi bilan ham bog'liqdir.

Kognitiv tarkibiy qism ko'p jihatdan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish bilan bog'liqdir. Mazkur vaziyatda kasbiy madaniyat deyilganda, bo'lajak o'qituvchining malakaviy ta'limiy ko'nikma va malakalardan oqilona foydalana olishi, ta'lim texnologiyalarini muvafaqqiyatli o'zlashtirganligi, xilma-xil axborot manbalarini integrasiyalashga qobiliyatlilik, kasbga doir yangiliklardan samarali foydalana olishi tushuniladi.

Faoliyatli tarkibiy qism – bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatda ta'limiy qadriyatlardan foydalanishga tayyorligini aks ettiruvchi innovatsion ko'nikma va malakalarni egallash darajasidir. Faoliyatli tarkibiy qism o'z ichiga ijodiy vazifalarni hal etishning gnostik (bilishga doir), loyihalashga doir, kommunikativ va tashkilotchilik unsurlarini qamrab oladi. Faoliyatli tarkibiy qismning yorqin namoyon bo'lishini ko'p jihatdan, bo'lajak o'qituvchining

kasbiy ijodkorlik darajasi, ijodning asosiy belgilarining qanchalik yangidan va qayta tashkil etilganligini aks ettirilganligi aniqlab beradi. Loyihalashga doir jihatda bugungi kundagi mavjud imkoniyatlarni va kelgusidagi ijodiy rivojlanish istiqbollari aniqlash; ijodiy vazifalarni hal etishda pedagogik faoliyatiga muvofiqlik, faoliyatning qulay metodlarini tanlab olish, faoliyatni oqilona rejalashtirish, kutiladigan natijalarga erishish yoʻnalishlari va mexanizmlarini aniqlash kabilar belgilab beriladi. Kommunikativ jihat ijodiy vazifalarni hal etishda jamoadagi shaxsiy va kasbiy munosabatlarni barqarorlashtirish hamda hamkasblar oʻrtasidagi pedagogik yangiliklarni muvaffaqiyatli almashinuvini taʼminlashni oʻz ichiga qamrab olgan. Kreativ faoliyatning oʻz-oʻzini tashkillashtirish, oʻz-oʻzini nazorat qilish kabi qismlari tashkilotchilik unsuri tarkibiga kiradi.

Akmeologik yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish modelining markaziy boʻgʻini sifatida samarali ijodiy faoliyatga qobiliyatlilikni aks ettiruvchi kreativ tarkibiy qism aks etadi. Aynan kreativlikni rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishning bosh maqsadlaridan biridir. Zamonaviy tez oʻzgaruvchan sharoitda aksiologik fikrlashga qobiliyatlilik – boʻlajak oʻqituvchining muhim kasbiy sifatlaridan biridir. Kreativ tarkibiy qism ijodiy fikrlash, ijodiy oʻquv, tarbiyaviy, tadqiqotchilik faoliyatiga qobiliyatlilik; yangilik yaratishga intiluvchanlik, pedagogik vazifalarni oqilona hal etish, oʻz faoliyatini mustaqil loyihalay olish; kasbiy ijodiy vazifalarni hal etishga imkon beruvchi fikriy vaziyatlarni shakllantirish kabilarni oʻz ichiga qamrab oladi.

Pedagogik qadriyatlarning individual-shaxsiy tizimi quyidagilarni oʻz ichiga oladi: shaxsning ham jamiyatda, ham

kasbiy muhitdagi o'zini namoyon etishi bilan bog'liq qadriyatlar (pedagog mehnatining ijtimoiy ahamiyatliligi, pedagog faoliyatining nufuzi, kasbning yaqin shaxsiy doiradagilar tomonidan tan olinishi va boshqalar); muloqotga bo'lgan ehtiyojlarni qondiruvchi va uning doirasini kengaytiruvchi qadriyatlar (bolalar, hamkasblar, mansabdor shaxslar bilan muloqot, bolalarga bo'lgan mehr va g'amxo'rlik, ma'naviy qadriyatlar almashinuvi va boshqalar); shaxsning ijodiy individualligini rivojlantirishga qaratilgan qadriyatlar (kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari, jahon madaniyatiga qo'shilish, sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish, doimiy kamolotga intilib borish va boshqalar); o'zini ishga safarbar etishga imkon beruvchi qadriyatlar (pedagog mehnatining ijodiy xarakteri, pedagoglik kasbining hissiyotga boyligi va maroqliligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga yordam bera olish imkoniyati va boshqalar); pragmatik (amaliy) ehtiyojlarni qondirishga imkoniyat beruvchi qadriyatlar (davlat tomonidan kafolatlangan ish, ish haqi, ta'til, xizmat pog'onasining oshib borishi va boshqalarga erishish).

Yuqorida keltirilgan pedagogik qadriyatlar ijtimoiy va kasbiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladigan, predmetli mazmuniga ko'ra farq qiluvchi shaxsiy va vositali ko'rinishlarga ajraladi. Shaxsiy qadriyatlar – bu pedagog mehnatining ijodiy xarakterini, nufuzlilik, ijtimoiy ahamiyatlilik, davlat oldidagi mas'uliyat, o'z-o'zini namoyon qilish imkoniyati, bolalarga mehr va g'amxo'rlikni o'z ichiga oluvchi maqsadli qadriyatlardir. Bu turga xos qadriyatlar o'qituvchi, ta'lim oluvchilarning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maqsadli qadriyatlar boshqa pedagogik qadriyatlar tizimida hal qiluvchi aksiologik funktsiyalar sifatida namoyon bo'ladi, chunki uning maqsadida o'qituvchi faoliyatining asosiy mazmun-mohiyati aks ettirilgan.

Pedagog pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidirar ekan, o'zini va o'zgalarni rivojlantirish yo'lidagi o'z kasbiy strategiyasini tanlab oladi. Binobarin, maqsadli qadriyatlar davlatning ta'lim siyosatini va pedagogika ilmining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Bu qadriyatlar subyektlashgan holda pedagogik faoliyatning ahamiyatli omillariga aylanadi va vositali qadriyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ular nazariya, metodologiya, pedagogik texnologiyalarni egallash natijasida shakllanib, pedagogning kasbiy ta'limi asosini tashkil etadi.

Shaxs uchun zaruriy qadriyatlar quyidagi maqsadli qadriyatlarni o'zida aks ettiradi: o'qituvchi mehnatining ijodiy va serqirralilik tavsifi, uning nufuzi va ahamiyatliligi, jamiyat olidagi yuksak ma'suliyat, o'zini namoyon qilish, bolalarga mehr va boshqalar. Bunday qadriyatlar ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi shaxsining, talabalar jamoasi va pedagogik jamoaning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogik faoliyatda o'z ifodasini topadi.

Vositali qadriyatlar maqsadli qadriyatlarga erishishda vosita bo'lib xizmat qiladi (mehnat natijalarining jamiyatda tan olinishi, shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini pedagogik faoliyat tavsifiga muvofiqligi, kasbiy o'sish va boshqalar).

Shuningdek, pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar pedagog nuqtai nazarini ham belgilab beradi.

Pedagogning nuqtai nazari – bu uning faolligining manbai hisoblangan olamga, pedagogik voqyelik, pedagogik faoliyat va xususiy holatlarga irodaviy va hissiy-baholovchi munosabati. Bu bir tomondan, jamiyatning unga qo'yadigan va taqdim qiladigan talablari, umidlari, imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Boshqa tomondan esa, uning doirasida ichki, shaxsiy faollik manbalar – mayllar, kechinmalar, faoliyat

motiv va maqsadlari, qadriyatlar tizimi, dunyoqarash, ideallar amal qiladi.

Pedagogning nuqtai nazarida uning shaxsi, ijtimoiy yoʻnalishi tavsifi, fuqarolik xulq-atvori va faoliyati namoyon boʻladi.

Pedagogning ijtimoiy nuqtai nazari umumtaʼlim maktabi chogʻlaridayoq, qarashlar, qadriyatlar tizimi tarzida shakllanib, rivojlanib boradi. Ularning asosida kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagoglik kasbiga, pedagogik faoliyatning maqsad va vositalariga nisbatan qadriyatli munosabat tarkib topadi. Pedagogik faoliyatga nisbatan qadriyatli munosabat, keng maʼnoda oʻqituvchi shaxsining negizini tashkil etuvchi yoʻnalganlikni ifodalaydi.

Pedagogning ijtimoiy nuqtai nazari koʻp jihatdan uning kasbiy qarashini ham belgilab beradi. Biroq, bu yerda hych qanday toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliqlik yoʻq, chunki tarbiya doim shaxsga koʻrsatiladigan oʻzaro taʼsirlardan hosil boʻladi. Pedagogning kasbiy nuqtai nazarini tanlanishida koʻplab omillar taʼsir koʻrsatadi. Ammo ular orasida hal qiluvchi rolni kasbga doir meʼyorlar, shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, temperament va xarakteri egallaydi. Aynan boʻlajak oʻqituvchilarda pedagoglik kasbiga nisbatan qadriyatli ong, qadriyatli munosabat, qadriyatli ustanovka va qadriyatli yoʻnalganlikni qaror toptirish ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning muhim omilidir. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, biz aksiologik yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish modelini ishlab chiqdik

### **Savol va topshiriqlar**

1. Pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish darajalarini sanab bering.

2. Tizim va tizimlilik tushunchasini izohlang. Ikki guruh boʻlib tushuntiring.

## **10-MAVZU: TALABALARDA PEDAGOGIK QADRIYATLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.**

### **Reja:**

1. Pedagogik qadriyatlar texnologiyasining tasnifi, qonuniyatlari, tamoyillari va mezonlari.

2. Innovatsion ta'limda pedagogik qadriyatlar texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari.

***Tayanch soʻz va iboralar:** qadriyat, modernizasiyalash, ta'lim jarayonini modernizasiyalash, texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologiyalashtirish, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, innovasiya, novasiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, innovatsion jarayon, ta'limiy innovatsion jarayon, ta'limiy innovatsion jarayon bosqichlari.*

Tarbiyaga texnologik yondashuv – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining oʻzida uning koʻp omilliligi – koʻplab omillar taʼsiriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon boʻlmasligi, tarbiyachi faoliyatining yoʻnaltirilganligi, koʻp bosqichlilik bilan bogʻliq ravishda mujassamdir. Koʻp bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq oʻzlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish koʻnikmasini shakllantirish hamda toʻgʻri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga oʻtish bilan tavsiflanadi. Shunga

asosan V.S.Selivanov tarbiya jarayoni, uning bosqichlari ketma-ketligi murakkab o'ziga xoslikka ega ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Tarbiya, shaxs sifatlarini shakllantirish emosional yo'nalganlik, xulqning ma'lum shakliga ijodiy munosabat uyg'otishdan boshlanadi. Ikkinchi bosqich harakatni to'g'ri bajarish malakasini, ya'ni to'g'ri xatti-harakat qilishni mashq qilish sanaladi. Keyinchalik harakatni unga ijobiy munosabat bilan ko'p marta bajarish davomida oqilona xulq-atvorga odatlantiriladi. Tushunchani o'zlashtirish – tarbiya jarayonining keyingi bosqichi. O'zlashtirilgan tushunchalar asosida ijtimoiy xulq tajribasi tashkil qilinadi.

Ishlab chiqarish jarayonida oddiy va aniq-ravshan tartib mavjud, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish murakkab va mazkur jarayonni texnologiyalashtirish ishlab chiqarishga o'xshash bo'lmagan kutilmaydigan belgilarga ega jarayondir: 1) ishlab chiqarish jarayonlaridan farqli ravishda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish yaxlit tavsifga ega, pedagogik ta'sir kichik qadamlar yoki alohida sifatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish tarzida amalga oshadi.

Tarbiyaviy ta'sir bosqima-bosqich-parallel tarzda emas, yaxlit tarzda amalga oshiriladi; shaxsni mazkur jarayonga olib kirish murakkab ish bo'lib, tarbiyachidan texnologik jarayonni boshidan oxirigacha olib borishni talab etadi. Bu yerda umumiy texnologiyaga asoslangan holda, individual mahoratga ega bo'lishi talab etiladi.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, Sh.T.Ergasheva shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga quyidagi bosqichlar ketma-ketligi sifatida qaraydi:

- qadriyatli yo'naltirilgan bosqich mavjud shaxsiy tajribani o'zining ma'naviy-axloqiy shakllanishining boshlang'ich bazasi sifatida aniqlash va dolzarblashtirishni ko'zda tutadi, o'kuvchining shaxs sifatida shakllanishi

mazmun jihatini hamda keyingi faoliyati yoʻnalishini belgilashda yordam beradi;

- kognitiv-intellektual bosqich boʻlajak mutaxassisning hayotiy-amaliy, ilmiy va kasbiy bilimlar, qadriyatlar, munosabatlar olamiga kirishi; oʻz fikrlari, gʻoyalari, xatti-harakatlarini anglash va baholash imkonini beradigan ongning reflektivligi, shuningdek ilmiy bilimlar va dunyoni sezishi asosida oʻzining subyektiv tajribasini tashkil etish ehtiyoji bilan tavsiflanadi;

- modelni realizatsiyalashning faoliyatli-xulqiy bosqichi oʻquvchi harakatlarining reproduktiv, izlanishli va kreativ shakllari bilan bogʻliq. Bu bosqichda uning ichki pozitsiyasini harakatlarning tashqi rejasiga oʻtkazish, aksiologik ongning aniq faoliyatda – xulqda, xatti-harakatlarda namoyon boʻlishi roʻy beradi. Oʻquvchida oʻz bilimlari, oʻz axloqiy rivojlanish doirasini kengaytirish ehtiyoji yuzaga keladi. Oʻquvchi axloqiy shakllanishining bu bosqichi uning butun hayoti mobaynida, dastlab kollej va OOʻYu taʼlimi jarayonida, keyin ulardan tashqarida – kasbda, hayotda davom etadi. Taklif qilingan modelda axloqiy tarbiyaning mazmunli va tashkiliy-metodik tarkibiy qismlari birgalikda taqdim etilgan.

Sh.T.Ergasheva tomonidan taklif etilgan axloqiy tarbiya texnologiyasi quyidagi uch bosqichni oʻz ichiga oladi:

- oʻquvchining shaxsiy axloqiy tajribasini aniqlash;
- axloqiy qadriyatlarni bilish va anglash;
- ichki nuqtai nazarni tashqi harakatlar rejasiga oʻtkazish.

I.F.Xarlamovning axloqiy sifatlarni tarbiyalash texnologiyasi esa oʻziga xos koʻrsatkichlarga ega:

- axloqiy rivojlanish ziddiyatlarini, axloqiy sifatlar rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash;
- kamchiliklarni bartaraf qilish boʻyicha vazifalarni belgilash;

- o'kuvchilarni shakllantiriladigan sifat mohiyatini anglashga qaratilgan bilish faoliyatiga jalb qilish;

- rolli va xulqiy tarkibiy qismlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish;

- to'g'ri xatti-harakatni mashq qildirish, uni mustahkamlash.

Mazkur texnologik yondashuvlardan ko'rinadiki, texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi – ko'plab omillar ta'siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdir. Ko'p bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o'tish bilan tavsiflanadi. Xulq-atvorning ma'lum shakllarini shakllantirish jarayonini bu kabi tasavvur qilishga muvofiq tarzda umuman tarbiyaning ketma-ketligi haqidagi tasavvur shakllanadi: dastlab xulq-atvor qoidalari va me'yorlari haqidagi bilimlar o'zlashtiriladi, keyin o'zini risoladagidek tutish malakalari ishlanadi, nihoyat, tizimli mashq qilish yo'li bilan oqilona xulq-atvor odatlari tarbiyalanadi. Shunga asosan V.S.Selivanov tarbiya jarayoni, uning bosqichlari ketma-ketligi murakkab o'ziga xoslikka ega ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Tarbiya, shaxs sifatlarini shakllantirish emosional yo'nalganlik, xulqning ma'lum shakliga ijodiy munosabat uyg'otishdan boshlanadi. Ikkinchi bosqich harakatni to'g'ri bajarish malakasini, ya'ni to'g'ri xatti-harakat qilishni mashq qilish sanaladi. Shu asosda bolada to'g'ri xulq-atvor me'yori haqida tasavvur shakllanadi. Keyinchalik harakatni unga ijobiy munosabat bilan ko'p marta bajarish davomida oqilona xulq-atvorga odatlantiriladi. Tushunchani o'zlashtirish– tarbiya jarayonining keyingi

bosqichi. O‘zlashtirilgan tushunchalar asosida ijtimoiy xulq tajribasi tashkil qilinadi va etika, estetika, insoniy munosabatlar va jamiyat haqidagi boshqa fan asoslari o‘zlashtiriladi.

V.S.Selivanovning axloqiy tarbiya texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- xulqning ma’lum shakliga ijobiy emosional munosabat uyg‘otish;

- oqilona xatti-harakat tarzini hosil qilish;

-xulqning ijtimoiy ma’qullanadigan shakli haqida tasavvurni shakllantirish va mustahkamlash;

- oqilona xulq-atvor odatlarini tarbiyalashga doir mashqlar;

- tushunchani o‘zlashtirish.

N.M.Egamberdiyevaning pedagogika oliy ta’lim musasasalari talabalarini shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishga doir tadqiqotida talabalarni o‘quv-ijodiy faoliyatda faol ishtirok etishini ta’minlash, shuningdek, nazariyaning amaliy-kasbiy faoliyat bilan aloqasini, umumiy madaniyat va etika haqidagi umumiy tasavvurlarning pedagogik madaniyat va axloqshunoslik bilan aloqasini ta’minlashda “ijtimoiylashuv” texnologiyasi samarali vosita sifatida qo‘llanilgan. Mazkur ijtimoiylashtirish texnologiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

1. Bosqichma-bosqich ijtimoiylashuvni nazarda tutish.

2. Talabalar faoliyatini har bir bosqichda algoritmlashtirish orqali amalga oshirish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqorida bayon etilgan mazkur texnologiyalarning butun tizimi alohida-alohida qismlarga ajratish, pedagogik shakl va metodlarning aniq turini to‘g‘ri belgilab olishga katta ehtiyoj mavjud. Qaysi pedagogik vositalar yordamida axloqiy ideallarning axloqiy e’tiqod, o‘quvchining xatti-harakati va sifatlariga o‘tishini

ko'rsatib berish kerak. Texnologiyalar algoritmi bosqichlilik jarayonni qayta hosil qilishni talab etadi, masalan, emosional munosabatning munozaraga o'rin qoldirmaydigan ahamiyatiga qaramay, undan oldin «taqdim qilish» bosqichini amalga oshirish zarur.

Tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq, qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan qadamlar ketma-ketligi texnologik jarayonni o'zida ifoda etadi.

Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvga doir nazariyalarni chuqur tahlil etish asosida mazkur hodisaga tegishli quyidagi muhim jihatlar aniqlashtirildi:

- tushunchaga berilgan ta'riflar o'zining asosiy mohiyat tavsifiga ko'ra bir-biriga mos keladi va qarama-qarshi holat mavjud emas;

- barcha t'riflar asosida texnologiyani qo'yilgan maqsadga erishishga doir tarkibiy qismlar yig'indisi tashkil etishi tushuniladi;

- texnologik jarayon real amaliyot bilan uyg'un;

- amalga oshirilayotgan obyekt yoki jarayonni to'liq izohlab beradi.

Falsafiy, sosiologik, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, refleksiya fikrlashni o'rganish, o'z-o'zini bilish, muloqotga kirishish, o'z-o'zini anglash va o'z-o'ziga ta'lim berish, shu bilan birga bilimlarni o'zlashtirish va ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishda refleksiv yondashuv g'oyasi undan ham o'quv jarayonida, ham auditoriyadan tashqari faoliyatda foydalanishga imkon beradi.

Refleksiya deganda talabalarda qadriyatlar tizimining tuzilishini tushunish va anglashning shaxsiy shakl va shart-sharoitlariga yo'naltirilgan fikrlash qobiliyatlari va tamoyillarini nazarda tutildi.

Nazariy va amaliy tadqiqot ishlarini o‘rganish talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishga imkon berdi. Mazkur texnologiyaning asosiy maqsadi talabalarda pedagoglik kasbiga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish shaxsiy-ijtimoiy anglangan yo‘nalishlarni erkin tanlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya to‘rt qismdan iborat: nazariy-metodologik; mazmunli; prosessual, baholovchi. Texnologiyaning metodologik asoslari munosabatli, aksiologik, madaniyatshunoslik, subyektli, faoliyatli tamoyillar, bundan tashqari yaxlitlik, tizimlilik asosidagi insonparvarlik pedagogikasiga asoslangan.

<b>Bosqich-lari</b>	<b>I daraja</b>	<b>II daraja</b>	<b>III daraja</b>	<b>IV daraja</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<i>Bilim</i>	Qadriyatga tegishli bilimlarni o‘zlashtiradi, ularni biladi va eslab qoladi	Qadriyat bilan bog‘liqlikda hodisalarning qiymatini aniqlaydi, uning mohiyatini tushunadi; ushbu hodisani bayon etuvchi tushunchalarni egallaydi va o‘zigi xos belgilarini tavsiflaydi	Nimani aks ettirishi bilan bog‘liqlikda odamlar hayotida qadriyatlarning namoyon bo‘lish qonuniyatlarini tushuntiradi, ularning real hayotda namoyon bo‘la olishini ko‘ra oladi.	Qadriyatni hayot me‘yori sifatida idrok etadi. Qadriyatga yo‘nalganlikni faoliyatida mo‘ljalga oladi.

<p>Metod va usullari</p>	<p>Reproduktiv obrazli suhbat (Kim? Nima? Qachon? Qayerda? Sen ...ni qanday tasavvur qilasan? ...nima uchun kerak? Nimasi yangilik bo'ldi?...) Tugallanmagan gaplar metodi-kasi va boshqalar</p>	<p>Test (refleksli tarkibga ega tushunchali). Bilimlar darajasi bilan bog'liqlikda og'zaki va yozma so'rov, shartli-grafik ko'rgaz-mali ish metodlari</p>	<p>Muammoli xarakterdagi suhbat (Savollar: nima uchun? Siz qanday hisoblaysiz? O'z nuqtai nazarin-gizni izohlang). Yorqin chiziq. Fikrlar shkalasi. Esse. O'z-o'zini baholash va boshqalar</p>	<p>Loyihali faoliyat faoliyatda shaxsiy munosabatning namoyon bo'lishi) va boshqalar.</p>
<p><i>Kadriyat</i></p>	<p>Qadriyatga qizi-qish darajasini namoyon bo'lishi: men o'zimni qad-riyat sifatida tasavvur qilaman? Men uchun u qizi-qarlimi? Ular haqida ko'proq bilishni xohla-sam</p>	<p>Ijtimoiy ahamiyatli sifatida qad-riyatlarning mohiyatini qabul qilish. Mohiyatini tahlil etish: men buni bilishni xohlaymanmi ? Nega mening nuqtai nazarim bunday?</p>	<p>Qadriyatlarga shaxsiy munosabatlarini tahlil etish, shaxsiy hayot yo'nalishini aniqlash: menda mazkur qad-riyatga o'z munosabati m bormi yoki yo'qmi? Nima</p>	<p>Hayot tamoyili: men ana shu qadriyat bilan bog'liqlikda harakat qilaman. Asoslay olish qobiliyati va e'tiqodini saqlab qolish.</p>

	bo'ladimi?		uchun...? va boshqalar.	
1	2	3	4	5
<b>Metod va usullar</b>	Axloqiy qayg'u-rishli vaziyat-larni yaratish usullari. Anketa, kuzatish, suhbat, tugallanmag an gaplar metodikasi	Hayotiy vaziyatga doir tajribalarin tahlil qilish, suhbat, anketa, tugallanmaga n gaplar metodikasi	O'yinli vaziyat, modellashtirish, o'quv loyihasi, ijtimoiy loyiha, kuzatish, o'z-o'zini baholash metodlari	
Faoliyat tajribasi	<b>Mushohadali tajriba:</b> hayot va faoliyatda pedagoglar qadriyat sifatida aks etadi, har bir inson o'z tamoyil va qadriyatlarida qoladi tarzidagi bilimni namoyish etadi	<b>Birinchi tajriba:</b> o'qituvchilarning tajribalarini o'zlashtirishga harakat qilish. Tarbiyachi rahbarligidagi o'zining faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi	<b>Ikkinchi tajriba:</b> shaxsiy tajribasini tushunish va foydalanish, o'zida ideal va me'yorlarni aks ettiradi. Pedagog ishontirish asosida maqsadga erishish jarayonini tahlil etadi va korreksiyalaydi	Hayotda real aks etgan <b>xulq-atvor odati:</b> shaxs doimo o'z qadriyatida qoladi. Mustaqil ravishda maqsadlarini shakllantiradi, maqsadga erishish yo'lini nazorat qiladi.
<b>Metod va usullari</b>	Hujjatlar va tarixiy manbalar bilan ishlash,	Rolli vaziyat: tarixiy shaxsni gavdalantirish, hujjatlar	Muammoli xarakterdagi hujjatlar bilan ishlash. O'quv sudi.	Ijtimoiy loyiha, o'quv jarayonini loyihalash,

	empirik suhbat (masalan: Forobiyning fikrini o‘qing. U qanday qadriyatni yoqlaydi? Va shu kabilar).	bilan ishlash. O‘zaro bir-birini baholash metodi.	Ma’ruza. Referat. Tugallanmag an gaplar metodi. O‘z-o‘zini va o‘zaro bir-biri-ni baholash va boshqalar	o‘z-o‘zini baholash metodlari, kuzatish.
--	---	---	--	--

### **Talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishning reflektiv texnologiyasi**

Tajriba-sinov ishlari jarayonida aksiologik yondashuvning mohiyati va o‘ziga xosliklarini aks ettiruvchi hamda ularning ijtimoiy-kasbiy qadriyatlarni o‘zlashtirishlarini faollashtirishga imkon beruvchi talabalarning faoliyat turlari va metodik usullari to‘plandi hamda sinab ko‘rildi.

Barcha metodlarning asosiy vazifasi – talabalarni narsa-buyum, harakat, voqyea-hodisa, shaxs, dalillarga doir (o‘zi uchun ahamiyatli ma’nosida) qadriyatlar bilan qurollantirish ekanligi aniqlandi.

Professor-o‘qituvchining faoliyati talabalarda o‘zining chuqur ahamiyati bilan idrok etilgan kasbiy qadriyatlarni tarkib toptirishda namoyon bo‘ldi. Bundan tashqari professor-o‘qituvchi mashg‘ulotlar va auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida talabalar o‘z taqdiri haqida o‘ylaydigan, hayot mazmunini izlashda san’atning ishtiroki, hayotning qadriyatli anglanishi bo‘yicha ma’naviy faoliyatni faollashtiradigan o‘zaro ta’sir etishning shakl va metodlari namunasini ishlab chiqdik.

O‘zaro harakatning mazkur shakllari:

- talabalarning ijtimoiy va kasbiy bilim darajasini oshirish;

-talabalarda ularning shaxsida chuqur qadriyatli ahamiyatga ega bo‘ladigan madaniy hodisalar, ijtimoiy voqyealar, badiiy obrazlarni taqdim etish;

- faoliyatning xilma-xil turlari, shakl va metodlari;

-faoliyatning nostandart, evristik, izlanishli tur, shakl va metodlarini tashkil etish;

- taqdim etilayotgan materiallarni insonparvarlashtirish;

- evristik, izlanishli shakl va metodlarning qo‘llanilishi;

- talabalarning o‘zlaridagi ehtiyoj, tashabbus, qiziqish va izlanish kabi metodik yo‘nalishlar orqali amalga oshirildi.

Bundan tashqari ko‘rsatilgan yo‘nalishlarni aniq amalga oshirish uchun ham turli metodlar qo‘llanildi.

Pedagogik fanlarda o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning bir qancha metodlari ma’lum. Metodlarni turlicha tasnif etishdan kelib chiqqan holda, ta’limga madaniy-insonparvarlik yondashuvini amalga oshirish quyidagi metodlar bilan bog‘liq deb hisoblaymiz:

- og‘zaki – hikoya, kitob bilan ishlash, tushuntirish, og‘zaki ishontirish, taqqoslash, savollarga javob berish, axloq haqida suhbatlar, istiqbolni muhokama etish, ma’qullash yoki ma’qullamaslik;

-ijtimoiy-pedagogik – rag‘batlantirish, istiqbolni tashkil etish, xulk-atvor qoidasi, marsoimlar, an’analar, obrazli tasvirlash, hamkorlik ishlarida ishtirok etish, jamoaviy jipslik sharoitini yaratish, bellashuv guruhli nazorat, jamoaviy fikr, jamoadagi o‘zaro uyg‘un kayfiyat, hisobotlar, yig‘ilish, erishilganlarni muhokama etish va baholash, do‘st (hamkor)ga, pedagogik jamoaga, ustozlarga yordam berish va qo‘llab-quvvatlash;

- faoliyatli – axloqiy hatti-harakatlarni hosil qilish, tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish, tarbiyaviy ish, vazifalarni amaliy hal etish, tartiblilik, yaxshi muomalani mashq qilish, ijtimoiy topshiriq, faoliyatni modellashtirish, ichki(psixologik) qiyinchiliklarni modellashtirish, qiyinchilik, muvaqqat ko‘ngilsizliklarni bartaraf etish, muammolarni hal etish yo‘llarini birgalikda izlash, tajribaga asoslanish, talab, trening, autotrening, birgalikdagi faoliyatlarda ishtirok etish, boshqalarga yordam ko‘rsatish, o‘rtoqlar va jamoaga yordam berish, jamoaviy o‘zaro bog‘liq xulq-atvor, tajriba orttirish, tarbiyalanganlikning tarkibiy qismlarini psixo-pedagogik testlash, «men o‘zim» metodi;

- rejalashtiruvchi;
- tashkilotchilikka doir;
- safarbarli-axboriy;
- kommunikativ;
- muvofiqlashtiruvchi-tuzatishli.

Mazkur metodlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda aksiologik yondashuvini amalga oshirish jarayonidagi talabalarning faoliyat turlari ham aniqlandi:

- madaniy faoliyatning bir qancha yo‘nalishlaridagi keng madaniy qiziqishlarni amalga oshirish va qondirish;

- maqsadga yo‘naltirilgan va o‘z-o‘ziga ta’lim berish;

- san’at bilan doimiy muloqot;

- asosiy insonparvarlik manbalar bilan mustaqil tanishish va o‘rganish;

- xilma-xil badiiy ijod turlari, sevimli mashg‘ulotlarning o‘ziga xosliklarini tushunish, kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, badiiy faoliyatda ishtirok etish, ko‘rgazma va konkurslarni tashkil etish orqali badiiy didni rivojlantirish;

- talabalar bilish faoliyatining ijtimoiy-pedagogik sohalari – maktab, akademik lisey va kasb-hunar

kollejaridagi malakaviy amaliyot, qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni tahlil etish, taqqoslash, shaxsiy faoliyatni va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni ko‘ra olish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirishga imkon beruvchi psixologik-pedagogik treninglarni keng yo‘lga qo‘yish va boshqalar.

Mazkur pedagogik yondashuvlarni amalga oshirish natijasida (ta’lim maqsadi va talabalarning shaxsiy qiziqishlari asosida tanlab olingan muammoli o‘qitish va ijodiy faoliyat sababli yuzaga keluvchi) uzviy, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi muhit hosil qilindi.

Ushbu metodik yo‘nalishlar va aniq metodlar bizga o‘quv faoliyatini tashkil etishning o‘zaro mos shakllarini guruhlashni quyidagi tamoyillar asosida olib borish kerakligini ko‘rsatadi:

- ishtirokchilar soniga ko‘ra – individual, mikroguruhli, guruhli (jamoaviy) va ommaviy;

- alohida vazifalariga ko‘ra – madaniy, kasbiy, kommunikativ, ijodiy, ijtimoiylashtiruvchi;

- o‘tkazilishidagi o‘ziga xosligiga ko‘ra – ma’ruza, suhbat, muhokama, munozara, bahs, umumiy yig‘ilish, tajribali, bilimdon va obro‘li kishilar bilan uchrauv, madaniy tadbirlar (teatr, kinofilm va ko‘rsatuv)ga tashrif buyurish, individual topshiriq, jamoaviy ish, ijtimoiy shakldagi ishda ishtirok etish, o‘rtoqlik yordami, vasiylik, otaliq, rahbarlik, boshqarish, g‘amxo‘rlik va boshqalar;

- o‘tkazilish joyiga ko‘ra – o‘quv, o‘quv-tarbiyaviy, amaliy-pedagogik, metodik, oliy ta’lim muassasasidan tashqari;

- o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra – rejali, profilaktik, bashoratlashga oid, yakuniy, umumiy.

Kasbiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishga doir aksiologik yondashuv shakllari quyidagi tarzda tasnif etildi:

### **1. Kasbga doir:**

- pedagogik vaziyatlarni modellashtirish;
- pedagogik faoliyatga taqlid qilish;
- pedagogik mutaxassislikning ijtimoiy masalalariga doir maxsus seminar;

- oliy ta'lim muassasasi fanlarini o'qitish mazmunida ijtimoiy muammolarni ochib berish;

- bitiruv malakaviy ish va magistrlik dissertasiyalariga pedagogik muammolarni ijtimoiy-madaniy asoslashga doir bo'limlarni kiritish;

- pedagogika, etika, estetika, madaniyatshunoslik, ekologiya bo'yicha madaniy-insonparvar dasturlarning fanlararo bloklarini ishlab chiqish.

### **2. Ijtimoiylashtirishga oid:**

- faoliyatning jamoaviy shakllari – o'kuv, o'quv va ilmiy-tadqiqot, ijodiy, madaniy-rivojlantiruvchi;

- pedagogik vaziyatlarni muhokama qilish;

- ijtimoiy-pedagogik, ishbop va rolli o'yinlar;

- ziddiyatlarni bartaraf etishga doir vazifalarni hal etish;

- "Yosh o'qituvchining moslashuvli xaritasi"ni kiritish.

### **3. Dialogli:**

- ma'ruza-dialog;

- professor-o'qituvchining ko'magida tashkil etiluvchi izlanishli o'quv ishi;

- professor-o'kituvchilar, kursdoshlar, oila a'zolari, talabalar bilan madaniyatga doir fikrlarni almashish bo'yicha faoliyat va muloqot;

- o'zaro munosabat – o'zaro ishonch, oliyjanoblik, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlashning issonparvar tizimi.

### **4. Individual-rivojlantiruvchi:**

- ijtimoiy-pedagogik o'z-o'zini loyihalashga doir shaxsiy faoliyat;

- “Men – aytaman”, refleksiv kundalik;
- o‘zining psixologik-pedagogik, shaxsiy, madaniy-insonparvar rivoji dasturini tuzish.

### **5. Badiiy-estetik:**

• kasbiy tayyorgarlikning oliy ta‘lim muassasasidan tashqari shakllari – keyinchalik muhokama qilinadigan musiqali va dramali teatrlar, konsertlar, kinofilm, ko‘rgazmalarga jamoa bo‘lib tashrif buyurish;

• ijodiy kecha;

• ijodiy xodimlar va jamoalar ishtirokida munozara o‘tkazish;

• mutaxassislikning ijtimoiy bo‘limlari bo‘yicha seminarlar o‘tkazish;

• o‘quv va o‘quv jarayonidan tashqari faoiyatni integrasiyalash, o‘quv faoliyatini o‘yin va badiiy faoliyat bilan qo‘shib olib borish.

Qadriyatlar tizimini rivojlantirishning muhim jihati uni texnologik amalga oshirishda namoyon bo‘ladi.

Shubhasiz o‘quv faoliyatining an‘anaviy turlari (manbai sifatida o‘qituvchi yoki kitob aks etadigan axborotni o‘zlashtirish va qayta tiklash) va ular bilan bog‘liq ta‘lim metodlari madaniy-insonparvar yondashuv tizimidan chetda qolishi mumkin emas, biroq ular keng hajmda amaliy ko‘nikmalarni egallash, strategik rejalashtirishdan foydalanish, muammoni qo‘yish va hal etish, talabalarning hissiy-irodaviy va kommunikativ sohalarini rivojlantirishga imkon bermaydi.

Bu borada asosida talabalarning o‘zlari orasida, o‘qituvchilar va ijtimoiy-tabiiy atrof-muhit bilan o‘zaro birgalikdagi harakat yotadigan interfaol o‘qitish metodlari ko‘proq istiqbolni aks ettiradi. Juftlik va guruhlardagi hamkorlik, o‘quv munozarasi va konferensiya, “aqliy hujum” hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar, “keys-stadi” (aniq namuna asosida o‘qitish), imitasion

modellashtirish, ssenariylar ishlab chiqish, bilimlar xaritasini tuzish kabi metod va ish shakllari o'quv materialini faol o'zlashtirish va asosiy tushunchalarni egallashga imkon beradi.

Ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi masalan, atrof-muhit holatini yaxshilashga erishish (OTM, maktab, mahalla, uy xo'jaligi doirasida)ga yo'naltirilgan loyihalar metodini amalga oshirish yordamida ta'minlanadi. Loyihalarni tuzish jarayonida maqsadga muvofiq muammoni aniqlash va shakllantirish, faoliyat vositalarini tanlash, uning axboriy, moddiy-texnik va tashkiliy jihatdan ta'minlash usullarini o'zlashtiradi, amaliy natijalarga erishishga intiladi va ularni tahlil etadi, shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, darslarni tanlab oladi.

Ularsiz tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli moslashish va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga o'tish mumkin bo'lmagan axborot-kommunikasion texnologiyalari (AKT)dan foydalanish muhim ahamiyatga ega. AKT vositalari talablarga voqyea-hodisalar haqidagi ma'lumotlarni izlash va qayta ishlash, axborotni bir turdan boshqasiga ko'chirish, ma'lumotlarni taqdim etish va axborotdan kerakli bilimlarni tanlab olish, faqat obyekt va hodisanigina emas, balki muammoli jarayon (modellarga asoslangan holda)ni o'rganish, masofaviy muloqot, o'z mehnati natijalarini rasmiylashtirish va taqdim etish uchun axboriy asbob-uskunalarni mustaqil qo'llay olishga imkon beradi.

Kelajakni loyihalash talabalarga o'z kuchini dolzarb, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga sarflash, zarur shaxsiy tajribalarni egallashga imkon beradi.

G.K.Selevko va V.Kukushinlarning izlanishlari va tizimlashtirishiga asoslanib, quyidagi aksiopedagogik texnologiyalarini aniqladik va amaliyotga tatbiq etdik:

## **1. Qo'llanish darajasi va tavsifiga ko'ra:**

• ijtimoiy-pedagogik, umumpedagogik (meta-texnologiyalar);

• modulli (blokli);

• politexnologiyalar (integrativ);

• chuqur singdiruvchi, moslashuvchan.

## **2. Falsafiy asosga ko'ra:**

• dialektik, insonparvarlik, tabiat bilan uyg'unlik, antropologik.

## **3. Metodologik yondashuvga ko'ra:**

• insonparvarlik, tabiat bilan uyg'unlik, tizimli, yaxlit, integrallashgan, shaxsga yo'naltirilgan, amaliy-yo'naltirilgan, faoliyatli, izlanishli, tadqiqotchilik, ijodiy, ijtimoiy-madaniy.

## **4. Rivojlanishning asosiy omillariga ko'ra:**

• biogen, sosiogen, psixogen.

## **5. Shaxsiy soha va individning ochqichli kompetentlikka yo'nalganligiga ko'ra:**

• shaxsiy o'z-o'zini boshqarish mexanizmi sohasi (O'BM);

• axloqiy-estetik sifatlar sohasi (AES);

• harakatli-amaliy soha (HAS);

• ijodiy sifatlar sohasi (ISS).

## **6. Mazmuni va tuzilish tavsifiga ko'ra:**

• insonparvar;

• ijtimoiy-madaniy;

• moslashuvli-variativ;

• ko'p tomonlamalilik;

• kasbiy yo'nalganlik;

• chuqur singdiriluvchi.

## **7. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat turiga ko'ra:**

• rivojlantiruvchi;

• qo'llab-quvvatlovchi (uyg'un);

- ijtimoiylashuv;
- moslashuvli;
- ijtimoiy chiniqish;
- ijtimoiy-pedagogik;
- madaniyatga doir.

## **8. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy turiga ko‘ra:**

• pedagogik qo‘llab-quvvatlovchi (uyg‘un), pedagogik yordam, ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlanishga e‘tibor qaratuvchi rivojlantiruvchi texnologiyalar.

## **9. O‘quv-tarbiyaviy va ijtimoiy jarayonda boshqarilish turiga ko‘ra:**

- kichik guruhlar tizimi;
- individual – «maslahatchi» tizimi;
- chop etilgan axborot (kitob bilan ishlash)ni mustaqil o‘rganish;
- kompyuterli individual;
- o‘zaro boshqarishli, o‘zaro o‘qitish;
- o‘z-o‘zini boshqarish (o‘z-o‘zini tashkillash, o‘z-o‘zini yo‘naltirish).

## **10. O‘qitish metod va usullarining ustunligiga ko‘ra:**

- muammoli, izlanishli, tadqiqotchilik;
- ijodiy, evristik;
- art-texnologiyalar;
- o‘yinli;
- loyihali;
- produktiv;
- rivojlantiruvchi;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish.

## **11. Pedagogik o‘zaro harakatga yo‘nalganlik va talabga yondashuvga ko‘ra:**

- subyekt-subyektkli;

- demokratik;
- antroposentrik;
- shaxsiy-faoliyali-muhitga yoʻnalganlik;
- interfaol;
- individual;
- hamkorlik texnologiyalari;
- oʻz-oʻzini tarbiyalash, oʻz-oʻziga taʼlim berish.

## **12. Anʼanaviy taʼlim tizimiga munosabat va modernizatsiyalashga yoʻnalganligiga koʻra:**

- insonparvar va demokratik munosabatlar asosidagi;
- talabalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi;
- materialni metodik va didaktik qayta tiklash asosidagi;
- ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyalarni kuchaytirish asosidagi.

Tadqiqotning amaliy qismi asosida bir nechta yoʻnalishlar yoʻlga qoʻyildi.

### **Birinchi.**

- ijodiy salohiyatni rivojlantirish;
- ijtimoiy-pedagogik yoʻnalganlikni shakllantirish;
- talabalarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning shaxsiy qadriyatli-mohiyatli mazmunini anglashi va aniqlay olishiga yoʻnaltirilgan taʼlim oluvchilarning umumiy va maxsus pedagogik koʻnikma va qobiliyatlarini shakllantirish.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi noanʼanaviy mashgʻulot shakllari amalga oshirildi: binar maʼruza, oldindan rejalashtirilgan xatolar asosidagi maʼruza hamda

a) dastlabki bosqichida – javob, qabul qilinayotgan qaror va harakatlarni batafsil asoslash;

b) keyingi bosqichida – tez qaror qabul qilish va qisqacha (masalan, faqatgina oʻz pedagogik nuqtai nazari gʻoyasi yoki tamoyili) izohlashni talab etuvchi mashqlar tizimini aks ettiruvchi seminar.

Bundan tashqari mazkur yo‘nalish bo‘yicha izohlashning maxsus usullari qo‘llanildi:

- pedagogika yoki ijtimoiy pedagogikaga oid tarixiy matnni bugungi kunga, zamonaviy ijtimoiy-pedagogik holat, shaxsiy-kasbiy vaziyatga tadbiiq etish;

- turli ijtimoiy-pedagogik jarayonlarning subyektlari nuqtai nazariga asoslanib, pedagogik matn yoki vaziyatni izohlash.

Yuqori kurs talabalari uchun pedagogikaning zamonaviy muammolari va shaxsning rivojlanishi, bundan tashqari pedagogik oliy ta‘lim muassasalari bakalavr-talabalarining kasbiy shakllanishi ko‘zda tutuvchi pedagogik vazifalarning qadriyatli-mazmunli ahamiyati va ularni hal etish usullarini aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar to‘plami ishlab chiqildi. Ushbu metodning mohiyati mazkur vazifalarni hal etishga turlicha – antropologik, refleksiv, ijodiy yondashuvni amalga oshirishda yaqqol namoyon bo‘ldi.

**Ikkinchi.** Pedagogik hodisalarning mazmun va mohiyati, ularning maqsadga muvofiqligi hamda ijtimoiy-madaniy qimmatini aniqlash, bir xillik va shoshilib baholashdan qochish, axloqiy, pedagogik, ijtimoiy, madaniy masalalar bo‘yicha shaxsiy nuqtai nazar, milliy va jahon madaniyatiga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish.

Ushbu yo‘nalishni amalga oshirishning asosiy shakllari sifatida muqobillik nuqtai nazaridan qaraladigan ma‘ruza-munozara va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Talabalarining fikrlari, ularning u yoki bu masala bo‘yicha turli fikrlarni baholashga doir tahliliy ishlari:

- narsa-hodisalarning ijobiy, salbiy va munozarali-muammoli xususiyatlarini aniqlaydi;

- solumning dinamik o‘zgaruvchan vaziyatda kasbiy vazifalarni hal etishda yuqori darajada moslashuvchanlikka erishganliklarini ta‘kidlab o‘tishga imkon beradi.

Talabaning tanlovi o‘z navbatida, eng avvalo, ularning shaxsiy tajribasiga tayanadi, biroq tarbiyaga avtoritar yondashuv ularda xohishni hosil qilmaydi, chunki ular na nazariy, na amaliy jihatdan tarbiyaning boshqa shakl va metodlari bilan tanish emaslar. Metodik jihatdan kelib chiqadigan muammo shuki – ularga qiyin, ba‘zan esa, imkoniyat ham yo‘q.

“Ta‘lim va tarbiya jarayonining mohiyati” muammosini muhokama etishda talabalarga rivojlanish va tarbiya jarayonlarining o‘zaro munosabatini turlicha tushuntiradigan xilma-xil pedagogik nazariyalarga tavsif berish taklif etildi. Qoidaga muvofiq, kim uchundir mustaqil inson timsoli ma‘qul, unga solumda tanish bo‘lgan pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyada avtoritar yondashuvga afzal deb qaraladi. Buni esa quyidagicha tushuntirishadi: muloqotning bunday shakli manzur emas, biroq ularning fikricha, tarbiya jarayonini tashkil etishga boshqacha yondashuvlar samarasiz bo‘lishi mumkin.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun “An‘naviylik va novatorlikning uyg‘unligi nimada?”, “Omadli kishi va pedagogik muvaffaqiyat – ularning o‘rtasida qanday farq bor?”, “Istalgan ishga moddiy manfaatdorlik yoki ishqibozlik bilan qarash to‘g‘rimi?” mavzusida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

**Uchinchi.** Nazariya, amaliyot, shaxsiy tajriba va madaniyat sohasi doirasida obyektivlik va subyektivlikka erishish orqali pedagogik kasbining mazmun-mohiyati va ahamiyatini o‘zlashtirish. Talabalarining madaniy mazmundagi matn bilan ishlashlari asosida amalga oshiriladigan mazkur yo‘nalish ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bu o‘quv materialining asosida darslik yoki professor-o‘qituvchining ma‘ruzasidagi ma‘lumot emas, talabalarining birinchi darajali manbalar – mashhur pedagog, psixolog,

sosiolog, ijtimoiy pedagog, faylasuflar, fan va san'at namoyondalari asarlarining mazmunini mustaqil ijodiy qayta ishlab chiqishi o'z aksini topishini anglatadi. Shu bilan birga aksiologik mazmundagi matn real matndan tashqaridagi rolni bajarish va faoliyat namunasi hamda ba'zan hayotiy pedagogik vaziyatni ifoda etishini aytib o'tish zarur.

Texnologiyaning barcha bosqichlari talabalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni emosional idrok etish, badiiy ijodkorlik va refleksiya orqali interiorizatsiyalashga imkon beruvchi metodlar yordamida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasi har bir bosqichining o'ziga xosligini hisobga olgan holda, ma'lum bir guruh metodlar qo'llanildi:

tanishuv, bilishga doir metodlar: suhbat, ma'ruza, munozara, polilog, motivasion dialog, ma'naviy madaniyatga doir faoliyatni modellashtirish;

faoliyat va xulq-atvorni rag'batlantirish metodlari: illyustrasiya, demonstrasiya, dramalashirilgan o'yinlar, mashq, faoliyatni rag'batlantirish metodlari, guruhiy o'quv loyihalarini bajarish, xulq-atvorni refleksiyalash metodi;

talabalarda faoliyatga hissiy-emosional munosabatni shakllantirish metodlari: emosional ta'sir ko'rsatish metodlari, ma'naviy madaniyatga doir faoliyatni kuzatish va emosional idrok etish, madaniy dialog;

talabalarni ma'naviy madaniyatga doir faoliyatga jalb etish: emosional ta'sir ko'rsatish, ijodiy izlanishga doir vaziyatlar, erkin tanlovni qo'llab-quvvatlashga doir vaziyatlar, ma'naviy-axloqiy tanlov va hamkorlikdagi faoliyat asosida yechim topiladigan vaziyatlar.

Quyida ayrim metodlarni qo'llash namunalari keltirib o'tamiz.

“Debat” tushunchasi fransuzcha “debattere” so'zidan olingan bo'lib, “debats” – bahslashmoq ma'nosini anglatadi.

Debat – qandaydir majlis yoki yig‘ilishlarda o‘zaro fikr almashish jarayonini ifodalaydi. Zamonaviy sharoitda debatlaridan muayyan mavzu, masala yoki muammo yuzasidan qarama-qarshi fikr, nuqtai nazar va fikr-mulohazalarni ifodalash orqali bahs tashkil etish maqsadida foydalanilmoqda. Auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida qo‘llanilayotgan debatlar ta’limiy-tarbiyaviy maqsadlarni ifodalay olishi kerak.

Debatlarni tayyorlash va o‘tkazish quyidagi bosqichlarga asoslanadi:

1. Talabalarning ma’naviy ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiladigan masala yoki mavzular aniqlanadi.

2. Debat uchun tanlangan mavzuning oldindan talabalarga yetkazilishi.

3. Talabalar jamoasi ikki guruhga bo‘linadilar va har bir guruh tanlangan mavzu bo‘yicha bir-biriga zid bo‘lgan yechimni bayon etadilar.

4. Guruhlar o‘zlari tomonidan ifodalangan yechimlarning to‘g‘riligi dalillar, hayotiy misollar yordami isbotlaydilar.

5. Guruhlar o‘z pozitsiyalari (muammo bo‘yicha taklif etgan yechimlar)ni spikerlari yordamida himoya qiladilar.

Debatlarning talabalar uchun qiziqarli bo‘lgan mavzu yoki masalalar bo‘yicha o‘tkazilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tarbiyaviy samaradorlikni ta’minlaydi. Talabalarda ma’naviy ehtiyojni qaror toptirish jarayonida quyidagi mavzularda debatlarini tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. Axloqiy tubanlik nimadan boshlanadi?

2. Hayot go‘zal: musiqa, sevgi, maroqli dam olish, biroq...

3. G‘ayriinsoniy illatlar: namoyon bo‘lishi va ko‘rinishlari.

4. Mayl-istak va his-tuyg‘ular: ularni me‘yorida tutish va ustunligiga yo‘l qo‘ymaslikka erishish mumkinmi?

5. Moddiy va ma‘naviy zaiflik: ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik nimada?

6. Moddiy yoki ma‘naviy zarar: qay biri jamiyat uchun xavfli?

7. Xudbinlik va loqaydlik – ma‘naviy illat.

8. An‘analarning qadrsizlanishi: oqibatlar va xavfi.

9. Internet va ma‘naviy tahdid.

10. Ezgulik va haqiqatga sadoqatli bo‘lmagan, ularga ishonmagan odam qo‘rqinchlidir.

Ma‘ruza – u yoki bu ilmiy masalani to‘g‘ri, mantiqiy izchillikda va aniq izohlab berish. Ma‘ruza o‘qituvchi shaxsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg‘usi, e‘tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo‘lishining eng samarali, jonli shaklidir. Bunda o‘qitishning yo‘naltiruv, axborot berish, metodologik va tarbiyalov funksiyalarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Ma‘ruzaning yo‘naltiruv funksiyasida talabalarning diqqati o‘quv materialining asosiy qoidalari, uni o‘rganishdagi hamda bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatidagi roli va ahamiyati, uni o‘zlashtirish metodlariga jalb qilinadi. ma‘ruzaning axborot berish funksiyasi o‘qituvchi tomonidan asosiy ilmiy faktlar, qoidalar, xulosalarning mohiyatini ochish chog‘ida amalga oshiriladi. O‘qitishning metodologik funksiyasini qo‘llash tadqiqot metodlarini qiyoslash, chog‘ishtirishga, ilmiy izlanishning tamoyillari va yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi. O‘qitishning tarbiyalov funksiyasi ma‘ruza jarayonida o‘quv materialiga hissiy baho berish munosabatlarini uyg‘otish, qiziqishlarini o‘stirish, mantiqiy fikrlash va isbotlashni oydinlashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Anjuman-ma'ruzani tashkil etish metodikasi.

Maqsadi:

- inssenirovka taklif etilgan mavzu yoki qandaydir qo'yilgan vaziyatga o'zining munosabatini konspektiv tarzda bayon etish, nutq ayta olish, tezkor fikrlay olishni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi;

- chiqishlarni tahlil qilish va baholash, ma'ruza qiluvchilarni baholash mezonlarini ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantiradi.

1. Pedagog yoki boshqa boshlovchi mavzuni, maqsadni e'lon qiladi va unga qiziqishni rivojlantiradi.

2. Ekspertlar va sekretar belgilanadi.

3. Qaysi mavzu bo'yicha, ma'ruzachilar o'zlarini qanday vaziyatda tasavvur qilishlari va qanday ko'rsatkichlar bo'yicha baholanishlari aytib o'tiladi.

4. Tayyorlanish uchun vaqt beriladi. Har bir ishtirokchi indiviudal tarzda o'zining ma'ruzasini tayyorlaydi.

5. Keyin ishtirokchilarga navbati bilan so'z beriladi. Ma'ruzalar besh minutdan oshmasligi kerak. Qolgan tinglovchilar ma'ruzachilarni tinglashadi.

6. Ma'ruzalar tugaganidan so'ng, ekspertlar chiqishlarni aytib o'tilgan mezonlar bo'yicha baholashadi. Chiqishlarni tahlil etish uch bosqichda amalga oshiriladi. Har bir ekspert chiqishga mos bahoni qo'yadi va ma'ruzachining o'rnini belgilaydi. Keyin o'zining tashabbusi bilan yonidagi sherigi bilan baholash bo'yicha aloqaga kirishadi. Zaruriyat tug'ilganda, o'zining bahosiga o'zgartirish kiritadi. Shundan so'ng, umumguruhiiy munozara o'tkaziladi. Chiqishlarning mazmuni tahlil qilinadi, ma'ruzachilarning xatti-harakatlaridagi ijobiy va salbiy jihatlar aniqlashtiriladi.

7. Texnik ekspert ma'ruzachilar egallagan o'rinlarni e'lon qiladi.

Boshlovchi chiqishlar bo'yicha yakuniy xulosani aytadi va umumlashtiradi.

Anjuman-ma'ruzani quyidagi mavzularda tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. Milliy ma'naviyat – millat va jamiyatning kuch-qudrati.

2. Islohotlar jarayonida milliy-madaniy merosga yangicha munosabat – umummilliy ehtiyoj sifatida.

3. Milliy ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlar aloqadorligi.

4. Shaxs ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi.

5. Jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitida shaxs faolligi.

6. “Ma'naviy ideal” tushunchasi va uning axloqiy omillari.

7. Ma'naviy idealning jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitiga ta'siri.

8. Imon-e'tiqod butligi – ma'naviyat belgisi.

9. Diniy bag'rikenglik – ma'naviy fazilat sifatida.

10. Ma'naviy tahdidlar va axloqiy tarbiya mezonlari.

Trening – bu maqsadga yo'naltirilgan ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan qisqa muddatli o'qitish shakli. Ta'lim sohasidagi treningning o'ziga xosliklari quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi:

1. Maqsadga yo'nalganlik. Treningning asosiy maqsadi – qisqa muddatda uch-yigirma besh talabadan iborat guruhni oliy ta'lim muassasasi sharoitiga moslashtirish maqsadida aniq ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.

2. Trening o'tkazish vaqtining chegaralanganligi. Treningning o'tkazilishi uchun aniq muddat belgilanib olinishi va shu muddatda kutiladigan natijalarga erishilishi zarur.

3. Ishtirokchilar sonining cheklanganligi. Trening o'tkazish uchun eng qulayi 25 talabadan oshmagan guruhdir.

4. Shakllantirilishi lozim bo'lgan ko'nikmalar tavsifi. Mazkur o'ziga xoslik turlicha namoyon bo'lishi mumkin: formal moslashuvga o'rgatishdan, didaktik moslashuvga qadar.

Treningni muvafaqqiyatli o'tkazish uchun quyidagi shart-sharoitlarga amal qilish lozim:

1) treningning maqsadi va vazifalari haqida aniq tasavvurlarni rivojlantirish;

2) qisqa muddat ichida talabalarni treningda ishtirok etishga o'rgatish;

3) treningning talabalarining iqziquishlari, ehtiyojlari bilan muvofiqligini ta'minlash;

4) treningni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun interfaol metodlardan foydalanish.

“Men qanday odamman?” treningi.

Boshlovchi: kishi ko'pincha, boshqalarga savol berishni yaxshi ko'radi. Bu savollar turli xil narsalar haqida bo'lishi mumkin, biroq kishining aynan o'zi haqida emas. Biz Siz bilan esa bugungi mashg'ulotda “Men qanday odamman?” degan savolga javob beramiz.

Bir yozilmagan varaq oling va quyidagi savollarga javob bering:

1. Mening asosiy yutuq va kamchiliklarim nimadan iborat?

2. Oilam – ota-onam, aka-ukalarim va opa-singillarim, yaqinlarim menga qanday ta'sir ko'rsatishadi?

Javoblaringiz imkon qadar ochiqchasiga berilishi kerak, zero ularni Sizdan boshqa hyech kim ko'rmaydi. Ruxsatingiz bilan men ularni ko'rib chiqaman. Mana shu tarzda o'ndan ortiq javob to'planadi. Bu javoblar o'zingizni yaxshiroq bilib olishga Sizga yordam beradi.

Avvalgi mashg'ulotda aniqladikki, o'zini jamiyatda to'g'ri tutishga o'rganish uchun nafaqat odob qoidalarini

o‘zlashtirish, balki o‘zida xarakterning ma’lum qirralarini rivojlantirishga intilish kerak. O‘z ustida ishlash, odatlari va xarakteri haqida o‘ylab ko‘rish kerak. Har birimizga chindanda, tarbiyali va madaniyatli kishi bo‘lishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan xarakter qirralarini aniqlashga urinib ko‘ramiz.

Chinakam muloyimlik bayramona libos emas, kundalik kiyim-bosh, u haftaning har kunida orasta va chiroyli bo‘lishi kerak.

Xulq-atvor madaniyati – madaniyatli kishi rolini o‘ynashni istagan havaskor aktyor uchun ssenariy emas. U hayotni oxiri yo‘q maskarad (faqat kiyimlaringi almashtirib ulgursang bo‘lgani) deb tushunadiganlar uchun ham to‘g‘ri kelmaydi. Kishilar ko‘z o‘ngida ular oliyjanob va tarbiyali bo‘lib ko‘rinishga urinadi, ularni hyech kim ko‘rmaydigan va to‘xtatmaydigan joylarda esa, quyunday shoshiladi, baqiradi, eshikni qarsillatib yopadi va shu kabilar.

Bu yerda qanday xarakter qirralari namoyon bo‘ladi?

Uyga (talabalar turar joyiga) qaytgach, kiyimlarni almashtirmasdan, muzlatkichdan yoki stoldan birinchi duch kelgan yegulikni olasiz, kosaga suzmasdan, qozonning o‘zidan yeyishni boshlaysiz. To‘ygach, og‘zingizni yengingizga artasiz va mamnun bo‘lib stulda yo divanga yonboshlaysiz.

Nima deb o‘ylaysiz, mehmonda o‘zingizni qanday his qilasiz va tutasiz?

Ehtimol, bunday:

Pichoq va sanchqilar qo‘lingizda “sakrab”, polga tushadi; qo‘llaringiz og‘izni yengga artish uchun avtomatik tarzda bukiladi.

Biroq... agar har kuni uyda tartib bilan, pichoq va sanchqidan to‘g‘ri foydalanilsa, bu hamma vaqt qulay va oson bo‘lardi.

Xulosa: yaxshi xulq doimiy mashqni talab qiladi. To‘xtash, tanaffus qilish mumkin emas. O‘zingizni uyda va ko‘chada turlicha tutadigan bo‘lsangiz, hych qachon yaxshi xulq egasi bo‘lolsangiz.

Shubhasiz o‘quv faoliyatining an‘anaviy turlari (manbai sifatida o‘qituvchi yoki kitob aks etadigan axborotni o‘zlashtirish va qayta tiklash) va ular bilan bog‘liq tarbiya metodlari talabalarning ma‘naviy madaniyatini rivojlantirish tizimidan chetda qolishi mumkin emas, biroq ular keng hajmda amaliy ko‘nikmalarni egallash, strategik rejalashtirishdan foydalanish, muammoni qo‘yish va hal etish, talabalarning hissiy-irodaviy va kommunikativ sohalarini rivojlantirishga imkon bermaydi.

Bu borada asosida talabalarning o‘zlari orasida, o‘qituvchilar va ijtimoiy-tabiiy atrof-muhit bilan o‘zaro birgalikdagi harakat yotadigan interfaol o‘qitish metodlari ko‘proq istiqbolni aks ettiradi. Quyida interfaol ta‘limga asoslangan amaliy mashg‘ulot ishlanmasini namuna tarzida keltirib o‘tamiz:

“Ta‘qiqlangan meva” o‘yini.

Maqsad: ma‘naviy hayotda ta‘qiqlangan xulq holatlari motivlarini aniqlash.

Materiallar: quti, “mumkin emas” deb yozilgan ikkita tablichka.

O‘yinning borishi: o‘yin 25 minutgacha davom etadi.

1. Boshlovchi qutini xona o‘rtasiga qo‘yadi va uning ikki tomoniga “mumkin emas” degan yozuvlarni qo‘yadi, ushbu yozuv hamma qatnashchilarga ko‘rinib turishi kerak.

Quticha kun boshlanishidanoq xona o‘rtasiga qo‘yilgani ma‘qul, natijada ishtirokchilarning qiziqishi ortadi, o‘yinning asosiy qismiga o‘tish osonlashadi. Boshlovchi o‘yin boshlanishida ishtirokchilarning qiziqishlarini oshirishi mumkin (“Ha, endi, bir qiziq narsa yashirilgan-da”, “Keyin

ko'rarsizlar", "Bir narsa bor-da" kabi so'zlar bilan), lekin qutiga qaramaslik haqidagi ta'qiq o'z kuchida turishi kerak. Ko'p hollarda ba'zi oila a'zolari o'zlarini tiya olmay quti ichiga qarashga urinishida va ta'qiqni buzishadi. So'ngra boshlovchi ushbu mashq bilan bog'liq bo'lgan asosiy qismga o'tadi va guruhga quyidagicha yo'riqnoma beradi:

"Xona o'rtasida kun boshidanoq chiroyli quti turibdi, uning xususiyati shundaki uning ichiga qarash mumkin emas. Bu qutiga nisbatan Sizda biron qiziqish uyg'ongan bo'lsa kerak. Kelinglar kimning ichida nima kechayotganligini tahlil qilib ko'raylik. O'z kechinmalaringiz haqida aytib beringlar".

Tahlil. Boshlovchi ishtirokchilardan ular nega o'zini shu xilda tutganligini so'raydi, ularning harakatlaridagi asosiy sababni aniqlashga harakat qiladi. Ta'qiq haqidagi qoidani buzish qanchalik qiyin bo'lganligi haqida so'raydi, o'zini tiyib turish oson yoki qiyin kechganligi haqida bilishga urinadi.

2. O'yin yakuni sifatida odamlar nega ta'qiqlangan xatti-harakatlarni sodir etishlari, oilaviy hayotga zid bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishlarining sabablari aniqlanadi. Ushbu yakuniy xulosalar kichik guruhlarda ham ishlab chiqilishi mumkin.

"Ma'naviy qadriyatlar tahlili" o'yini.

Maqsad: inson hayotida yetakchilik qiluvchi qadriyatlarni va odamlar orasida sodir bo'ladigan tushunmovchiliklarning kelib chiqish sabablarini anglash.

Materiallar: ma'naviy qadriyatlar ro'yxati yozilgan kartochkalar.

O'yinning borishi: ma'naviy qadriyatlar yozilgan oltita kartochka xonaning turli tomonlariga qo'yiladi. Ishtirokchilar ushbu ta'riflarning har biri bilan tanishib, o'zlariga ma'qul keluvchi fikrni tanlashadi va ushbu yozuv oldiga borib turishadi. Har bir yozuv oldida turgan ishtirokchilar nima

uchun shu ta'rif ularning hayotlarida yetakchi ekanligi haqida asosli dalillar ishlab chiqishadi. So'ngra har bir ishtirokchi o'z fikrini asoslab beradi. Boshqa ishtirokchilar esa bu chiqishga nisbatan o'z fikrlarini, e'tiroz va savollarini bildirishlari mumkin.

O'yin nihoyasida boshlovchi ishtirokchilarning diqqatini quyidagi fikrlarga qaratadi: "Hayotda har bir odam e'tiqod qiluvchi g'oya va qadriyatlar xilma-xildir. Bu xilma-xillik odamlarning turli xarakter va moyilliklarini ifodalaydi. Inson o'zaro muloqotda mana shu farqlarni doimo hisobga olishi, iloji boricha ularni chetlab o'tishi, g'oya va qadriyatlarga qarama-qarshi bormasligi kerak".

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish asosida shunday xulosaga kelish mumkin: talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishni bosqichma-bosqich loyihali tarzda amalga oshirish lozim. Talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish jarayonini tashkil etishga bunday tizimli yondashuv qo'yilgan maqsad va vazifalarni samarali hal etishga to'liq imkon beradi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Tarbiyaga texnologik yondashuv deganda nimani tushunasiz?

2. Pedagogik qadriyatlar mohitayining nazariy asoslarini klaster yordamida tushuntiring.

## XULOSA

Oliy ta'lim tizimidagi ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish jarayoniga tadqiqot farazidan kelib chiqqan holda yondashildi. Bu jarayonning samaradorligini oshiruvchi quyidagi tamoyillar aniqlandi va joriy qilindi: tizimli ravishda til amaliyoti bo'yicha o'z malakalarini oshirib borish, o'z lingvomadaniy bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy va muntazam yangilab borish; ingliz tilini o'qitish jarayonida milliy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning mutanosib va yetarli xajmda o'quv dasturlaridan o'rin olishini ta'minlash, ta'lim mazmunining xalqaro talablarga monand bo'lishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil qilinishini ta'minlash; o'qitish jarayonida erkin muloqot qilish talablarini bajarish, o'quvchining vizual, eshitish, so'zlashish, fikr almashish kabi layoqat va malakalarining teng ravishda shakllantirilishi zarurligini inobatga olish va buning uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish; o'qitish jarayonini insonparvarlashtirish talablariga rioya etish, ta'limning uzviyligi, uzluksizligi, bosqichma-bosqichliligi, demokratlashuvi va xalqchilligini ta'minlash; ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishda pedagogik motivasiya, realizasiya va refleksiya talablariga to'liq rioya etish. OTMlardagi ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatlarini tashkil qilish uchun zarur pedagogik sharoitlar, usullar va shakllarni to'g'ri aniqlash va ularning keng ravishda pedagogik jarayonga tatbiq etilishiga qaratildi. Nazorat va tajriba guruhlari qiyosida muqobil farazni taqqoslash orqali miqdorlar ishonchliligi, validligi, reprezentativligi aniqlandi, ehtimolligi esa 0, 1, 0,005, 0,01 darajada bo'lishi dalillandi. Tajribalarda qatnashgan o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi 0,95

ko'rsatkichga ega bo'lishiga erishildi hamda a, v, s, d, k kattalıkları tavsifi keltirildi. Aksariyat materiallar 4 ballik (o'rta, salbiy, ijobiy, yuqori) tizimda baholandi. Miqdoriy natijalar ishlanmasi boblarda berilgan materiallarning ustuvorligi, fikrlar dominanti qabilida xulosa chiqarishga imkon berdi. Izlanish maqsadini tadqiqotda qaror toptirish uchun Myunstenberg, Kettell, Ayzenk, Leongard testlari, pedagogik trening yordami bilan olingan natijalar tahlili tufayli ingliz tilini o'rganish motivasiyasining psixologik mexanizmlari, kasbiy faoliyatga tayyorlik xolatlari ilmiy jihatdan asoslanildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й 18-сон, 313-модда; 19-сон, 335-модда; 24-сон, 490-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 6-сон. 70-модда.

3. Мирзиёев Ш.М. 2018 йил 14 февраль куни мактабгача таълим тизимини ислоҳ қилиш ва ривожлантириш бўйича кўрилаётган чора-тадбирлар натижадорлиги таҳлилига бағишланган видеоселектор йиғилишида сўзлаган нутқи // “Ўзбекистон овози”, 2018 йил 15 февраль.

### Asosiy adabiyotlar:

1. Ганиева М.А., Файзуллаева Д.М. Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами / Мет.кўлл. “Ўртамахсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар” сериясидан. – Т.: ТДИУ, 2013. – 95 б.

3. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар / Амалий тавсиялар. – Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008. – 180 б.

4. Олимов Қ.Т. Педагогик технологиялар. – Т.: “Fan va texnologiyalar” нашриёти, 2011. – 275 б.

5. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Ҳолиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Метод.қўлл. – Т.: Низомий номли ДТПУ, 2013. – 115 б.

6. Сайфуоров Д. Малака ошириш тизимида масофавий таълимни ташкил этишининг ўзига хос хусусиятлари // Касб-хунар таълими ж. – Т.: 2002. - №5- 6. – 28-29-б.

7. Сайфуоров Д. Масофадан ўқитиш тизимининг шаклланиши ва ривожланиши // Касб-хунар таълими ж. – Т.: 2004. - №6. – 16-20-б.

8. Реформа и развитие высшего образования. Программный документ ЮНЕСКО, 1995. –С. 46.

9. Каланова Ш.М. Национальная оценка качества образования в Великобритании. // «Вестник Высшей школы Казахстана», 2002, № 4. -С. 134-141.

10. Джунстоун Д.Б. Система высшего образования в США: структура, руководство, финансирование. // «Университетское управление: практика и анализ», 2003, № 5-6(28). -С. 92-102.

11. Мотова Г.Н., Наводнов В.Г. Системы аккредитации за рубежом: Научное издание. – Йошкар-Ола: Центр государственной аккредитации, 2004. –С. 58.

12. Quality Procedures in European Higher Education. European Network for Quality Assurance.

13. Quality Assurance: A Reference System for Indicators and Evaluation Procedures. European Association of Universities. 7. Wahlen S. Is there a Scandinavian model of evaluation of higher education? // Higher Education Management, November 1998, Vol. 10. No. 3. P. 27-42.

14. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар. Т. Фан, 2000.

15. Азизхўжаева Н.Н.. Педагогик технология ва технологик маҳорат. Т. ТДПУ, 2003.

16. Исмаилова З.К., Мусаев Р.С., Шаюсупова А.А. Ўқитишнинг замонавий технологиялари. Ўқув қўлланма. ТИМИ, 2008.

17. Hakimova M.F., Xo'jaev N.X., Ahmedov D.Q. Pedagogik texnologiyalar. T. 2008.

18. Исмаилова З.К., Мусаев Р.С. Таълимнинг техник воситалари. Ўқув қўлланма. ТИМИ, 2008.

19. Рашидов Х.Ф. Хабиб Х. Елдашева Г. Закиров А. «Касбий педагогика» блокини ўқитиш методикаси. Ўқув услубий қўлланма. Т. 2007. 165б.

20. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфулов Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 150 б.

21. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004.

22. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Ҳолиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет.қўлл. – Т.: Низомий номли ДТПУ, 2013. – 115 б.

23. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари – Т.: 2006. – 260 б.

24. Файзуллаева Д.М., Ганиева М.А., Неъматов И. Назарий ва амалий ўқув машғулотларда ўқитиш технологиялари тўплами / Мет.қўлл. Ўрта махсус, касб-хунар таълимида инновацион таълим технологиялари сериясидан – Т.: ТДИУ, 2013. – 137 б.

25. Жалолов Ж.Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 284 б.

26. Жумаев Р. Давлат ва жамият демократлаштириш йўлида. – Тошкент, 1998. – 122 б.

27. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика назарияси. Дарслик. – Т.: Фан ва ахборот технологиялари, 2013. – 322 б.

28. Ибрагимова Ф.Х. Совершенствование профессиональной компетенции будущих учителей английского языка через формирование интереса к культуре Англии: дисс.канд.пед. наук. – Ташкент, 2018. - 156 с  
Махмудова М., Исаев А. Ўзбекистонда чет тилларни ўрганишнинг ўзига хос хусусиятлари. Рисола. - Самарқанд, 2019. – 80 б.

29. Махмудова М. Чет тилини ўрганиш – долзарб вазифа / Хорижий тилни ўрганишнинг педагогик-психологик омиллари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд, 2017. –Б.6-8.

30. Махмудова М. Чет тилларни ўқитишнинг педагогик тамойиллари. – Самарқанд, СамДЧТИ, 2018. – Б.15-18.

14. Мавлонова Р. Педагогика. Дарслик. – Тошкент, 2001. – 141 б.

31. Федорова С.В., Федорова Е.А. Формирование готовности педагога к экспериментальной деятельности: Автореф. канд.пед.наук. -Новгород, 1997. – 19 с.

32. Ходжаев Б.Х., Зуфаров Ш.М. Педагогик инноватика. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2010. – 86 б.

33. Хуторской А.В. Практикум по дидактике и современным методикам обучения. – СПб: Питер, 2004. – 541 с.

### **Электрон ресурслар:**

34. [http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact\\_id=3107036](http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036)

35. <http://www.enqa.net/texts/procedures.pdf>

36. <http://www.eua.be/eua/jsp/en/upload/>

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1-Mavzu:</b> Pedagogik faoliyatni takomillashtirishning modeli .....	5
<b>2-Mavzu:</b> Pedagogik faoliyatni takomillashtirish shakllari .....	22
<b>3-Mavzu:</b> Pedagogik faoliyatni takomillashtirishda metod va vositalar .....	34
<b>4-Mavzu:</b> Ilg‘or pedagogik texnologiyalar va ularni ta‘lim jarayonida qo‘llash amaliyoti .....	44
<b>5-Mavzu:</b> Innovatsion pedagogika. Ta‘lim innovatsiyalarining mohiyati, nazariy asoslari va turlari .....	50
<b>6-Mavzu:</b> Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari .....	71
<b>7-Mavzu:</b> Muammoli ta‘lim texnologiyasining mohiyati va mazmuni .....	91
<b>8-Mavzu:</b> Ta‘limda keys-stadi texnologiyasi. O‘quv-loyihaviy ta‘limning asosiy tamoyillari.....	102
<b>9-Mavzu:</b> Talabalarda pedagogik qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasi .....	106
<b>10-Mavzu:</b> Talabalarda pedagogik qadriyatlar tizimini rivojlantirishni modellashtirish .....	120
<b>Xulosa</b> .....	151
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	153

Gulnoza Azizova Ganijanovna

PEDAGOGIK FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHDA  
INNOVATSION YONDASHUV

(O'quv-uslubiy qo'llanma)

ISBN 978-9943-6272-9-1

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021  
140104, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy

Muharrir: G.Rahimova  
Musahhih: Yo.Qarshiboyev  
Tex.muharrir: B.Ergashev

2021-yil 25-mayda bosishga ruxsat etildi:  
Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1/16</sup>.  
“Times” garniturası. Ofset bosma usuli.  
Hisob-nashriyot t.: 9,8. Shartli b.t.:6,4.  
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma №134.

---

SamDChTI nashr-matbaa markazida chop etildi.  
Manzil: Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93.